



MADANIY XABARDORLIKNI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH | xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

YASHIL IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

MADANIY XABARDORLIKNI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

№5-SON xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



ISSN 2992-8982



9 772992 898002



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Teshabayev To'liqin Zakirovich, i.f.d., prof.,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,

TDIU faxriy professori, «Nobel» mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,

Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof.,

O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor,

MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.,

TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof.,

Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD),

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar

do'stligi universiteti professori

Zufarova Nozima Gulamiddinovna, i.f.f.d., (PhD) TDIU

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof.,

Xalqaro «Nordik» universiteti rektori

Muassis: «Ma'rifat-print-media» MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi.

*Elektron nashr, 5-maxsus son. 186 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d.,

O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d.,

TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi

boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori,

Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD)

«El-yurt umidi» jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta

o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti,

Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti,

Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti

dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., «LUKOIL-

Energoservis» Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD)

TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti

doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil

tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

«Yashil» iqtisodiyot va
taraqqiyot» jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich,

Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,

Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof.,
Minister of Higher Education, Science and Innovation of the
Republic of Uzbekistan

Teshabayev To'liqin Zakirovich, DSc, Prof. Rector of
Tashkent State University of Economics

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel
laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of
the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of
the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of
Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of
Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof.,
TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, DSc, Prof., Rector of
the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the
Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-
rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's
Friendship University of Russia

Zufarova Nozima Gulamiddinovna, DSc., Dean of Tourism
Faculty, TSUE

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof.,
Rector of International "Nordic" University

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS
Institute

Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc,
Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation
of the Republic of Uzbekistan

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of
TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of
the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCEGPO of the
Republic of Uzbekistan

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University
Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of
executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer
at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh
State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh
State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk
University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at
LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor
of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at
Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent
researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti
dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus
universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU
dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta
o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi



«Og‘ir ekologik sharoitga qaramasdan, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan Qoraqalpog‘iston Respublikasini, uning barcha shahar, tuman va ovullarini kompleks tarzda rivojlantirish, mehnatkash va matonatli, oqko‘ngil va bag‘rikeng qoraqalpoq elining hayotini obod va farovon etishga har qachongidan ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bizning oliy va ezgu maqsadimiz – birgalikdagi fidokorona mehnatimiz bilan Yangi O‘zbekiston tarkibida Yangi Qoraqalpog‘istonni bunyod etishdir.»

Sh.M.MIRZIYOYEV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Prezident: “Bu ko‘prik o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi og‘zibirlik va hamkorlik ko‘prigidir”.



Qoraqalpog‘iston Respublikasini Xorazm viloyati bilan bog‘lovchi ko‘prik. Asosiy qo‘shma ko‘prikning uzunligi 413 metr bo‘lib, eni 8 metr; har bir oraliq‘i 66 metrni tashkil qiladi. Uning 7 ta ustuni 6 ta oraliqqa o‘rnatilgan.





KIRISH

2024-yilning 17–18-may kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanida o‘tkazilgan «Madaniy xabardorlikni oshirish va ekologik barqaror turizmni rivojlantirish» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Qoraqalpog‘istonning boy madaniy, etnografik va ekologik merosini keng jamoatchilikka tanitishda hamda turizm infratuzilmalarini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi

Anjumanning asosiy maqsadi Qoraqalpog‘istonda turizm salohiyatini jahon turizm bozoriga olib kirish va madaniy xabardorlikni oshirishdir. Qoraqalpog‘iston o‘zining tarixiy boyliklari, arxeologik yodgorliklari va o‘ziga xos tabiiy manzaralari bilan dunyo sayyohlarini jalb etadigan katta jozibadorlikka ega. Bu hududda jahon madaniy va tabiiy merosi obyektlariga mansub ko‘plab joylar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati turizm infratuzilmasini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Xususan, Qoraqalpog‘istondagi insoniyat tamaddunidan hikoya qiluvchi arxeologik yodgorliklar bisyor. Hozirgi kunda Qoraqalpog‘istonda 300 dan ortiq arxeologik obyektlar mavjud bo‘lib, ulardan eng mashhurlari – Ko‘hna Urganch, Tupraqal‘a, Ellikqal‘a va Ayoqal‘a hududlaridagi qadimiy manzillardir. Bular, o‘z navbatida, sayyohlar uchun jozibadorlikni oshirib, hududning turistik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Anjumanda uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha muhokamalar o‘tkazildi. Birinchi yo‘nalish Qoraqalpog‘istonda turizmni rivojlantirish tendensiyalariga bag‘ishlanib, mahalliy infratuzilmalarni takomillashtirish hamda turizm xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Ikkinchi yo‘nalishda etnografik turizmni rivojlantirish, xususan, mahalliy hunarmandchilikni targ‘ib etish va milliy madaniy boyliklarni namoyish qilish masalalari muhokama qilindi. Uchinchi yo‘nalish Qoraqalpog‘istonning ekologik turizm salohiyatini jahon turizm bozorida zamonaviy marketing strategiyalari orqali targ‘ib qilish masalalariga bag‘ishlandi.

Ushbu anjuman va uning natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish yo‘lida muhim qadamdir. Turizm, madaniy meros va ekologik yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hududni xalqaro turistik xaritada o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklarga ega hudud sifatida nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda alohida o‘rin tutadi. Bu hududni «ochiq osmon ostidagi arxeologik muzey» deb atash mumkin, chunki bu yerda qadimiy Xorazm madaniyatining markazi bo‘lgan Qoraqalpog‘istonda nafaqat arxeologik meros, balki etnografik va ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Qoraqalpog‘istonda o‘tkaziladigan «Madaniy xabardorlikni oshirish va ekologik barqaror turizmni rivojlantirish» mavzusidagi xalqaro anjuman ana



shunday salohiyatni namoyon etish va rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. Anjuman doirasida turli olimlar, tadqiqotchilar va xalqaro ekspertlar ishtirokida ekologik barqarorlik va madaniy merosni saqlash masalalari muhokama qilinib, zamonaviy turizm yo‘nalishlaridagi ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqildi.

Anjumanda uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha quyidagi muhokamalar o‘tkazildi:

- *Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish tendensiyalari;*
- *Etnografik turizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari;*
- *Qoraqalpog‘istonning ekologik turizm salohiyatini jahon turizm bozorida targ‘ib qilishning zamonaviy marketing strategiyalari.*

Anjuman va uning natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik va etnografik turizm nafaqat hududning iqtisodiy rivojlanishiga, balki madaniy merosini saqlash va dunyoga tanitishga yordam berishi olgari surildi.

Anjumanda xalqaro institutlar vakillarining qatnashishi bejiz emas. Qoraqalpog‘istonning boy tarixi va Xorazm madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy yodgorliklar va arxeologik topinmalar bu hududni nafaqat tarixchilar, arxeologlar uchun, balki turistlar uchun ham jozibadorligini oshirib boradi.

Masalan, Ko‘kcha III qabristoni – qadimgi bronza davri madaniyatiga oid yodgorlik bo‘lib, millioddan avvalgi XIII-XI asrlarga oid, deb taxmin qilinadi. Bu madaniyatlar ko‘p asrlar davomida bir-biri bilan hamkorlikda yashaganini va turli etnik guruhlarning madaniy merosini o‘zida mujassam etganini ko‘rsatadi.

Masalan, S.P. Tolstov¹ tomonidan o‘rganilgan Tazabagyab madaniyatlari ham Qoraqalpog‘istonning arxeologik salohiyatining muhim qismi bo‘lib, ularni o‘rganish natijasida bronza davrining ikki madaniyati bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgani ma‘lum bo‘lgan. Bu esa hududda turli tarixiy etnik va madaniy jarayonlar sodir bo‘lganidan dalolat beradi.

Qoraqalpog‘istonning ushbu yodgorliklari va arxeologik manzillari sayyohlar uchun jozibadorlikni oshirishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm salohiyati juda katta bo‘lib, uni jahon turizm bozoriga zamonaviy marketing vositalari orqali chiqarish imkoni bor. Bu borada ekologik va etnografik turizm muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu turizm yo‘nalishlari nafaqat hududning iqtisodiy rivojlanishiga, balki uning madaniy merosini saqlash va dunyoga yoyishda ahamiyat kasb etadi.

Mazkur anjuman, ayniqsa, Qoraqalpog‘istonning kelgusi turizm salohiyatini mustahkamlashda, asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni keng tatbiq qilishda omil bo‘lib, mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish va yangi turizm xizmatlarini joriy qilishga, hudud aholisi uchun yetarli darajada doimiy va mavsumiy daromadli ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

1 <https://ensiklopediya.uz>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI TURIZM
BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI XO'JAYLI
TUMANI HOKIMLIGI




TURIZM QO'MITASI MADANIY
ME'ROS OBYEKTлари MUAMMOLARINI
O'RGANISH VA TURUZMNI
RIVOJLANTIRISH
ILMIY-TADQIQOT INSITUTI



YANGI IQLIM INNOVATSIYALAR
MARKAZI

I-SHO'BA

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish tendensiyalari



Kazakhstan

Navoi

Bukhoro

Karakalpakstan

Khorezm

Turkmenistan

Nukus

Jasiq

Moynaq

Qon'irat

Qanliko'l

Kazanketken

Qarao'zek

Shimbay

Kegeyli

Xalqabad

Shomanay

Aqman'g'it

Xojeli

Taqiyatas

Mang'it

Taxtako'pir

Bustan

Beruniy

To'r'tku'l



**Sharipov Kongiratbay
Avezimbetovich**

t.f.d., prof., Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vaziri

ILG'OR TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLAR ISTIQBOLLI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, xonimlar va janoblar!

Sizlarni bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ko'rib turganimdan bag'oyat xursandman. YUNESKONing O'zbekistondagi vakili Sora Noshadi, Nobel mukofoti laureati Rai Kvon Chung va AQSH, Irlandiya, Turkiya, Xitoy hamda O'zbekistondan qatnashayotgan barcha-barchangizga faol ishtirokingiz uchun minnatdorchilik bildiraman!

Bugungi anjumanni Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanida o'tkazilayotganligi barchamizni quvontiradi. Ushbu tuman boshqa tumanlardan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, ma'naviy qadriyatlari va rivojlanish tendensiyalari bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, Xo'jayli tumanining ekologik, ziyorat, arxeologik, gastronomik, tarixiy-madaniy va boshqa turizm turlari bo'yicha ochilmagan qirralari mavjud. Birgina qadimiy Mizdaxqon¹ majmuasiga miloddan avvalgi

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mizdaxqon>





IV-III asrlarda asos solinganini, Mazlumxon-sulu², Xalifa-Yerejep³, Shamun-nabi⁴ maqbaralarini va Jumart-qassob, Gaur qal'a kabi me'moriy yodgorliklarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Hududdagi turizm salohiyatidan, xususan, turizm resurslaridan samarali foydalanish, yangi turizm mahsulotlari va yo'nalishlari yaratish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda keyingi yillarda turizm sohasida juda ko'p yangiliklar kuzatildi: turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi Farmon va qarorlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, turistlar oqimining oshishi, yangi turizm mahsulotlari, yangicha yo'nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'y-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrifi quvonarli.

Zero, O'zbekiston Respublikasi ko'plab xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab, bu borada qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-135-son⁵ qaroriga binoan, amaliyotda ilmiylikni oshirish, nazariya bilan

2 https://uz.wikipedia.org/wiki/Mazlumxon_Suluv_maqbarasi

3 <https://xodjeyli.uz/index.php%3Fid=28&lang=ru.html>

4 https://uz.wikipedia.org/wiki/Shamun-Nabi_maqbarasi

5 <https://lex.uz/docs/-6456786>

amaliyotni integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan 11 ta oliy ta'lim muassasasi rektorlari, hududlardagi 30 ta tuman hokimlari tomonidan hamkorlikda turizm va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga, yangi turizm kontentlarini yaratishga qaratilgan «yo'l xaritalari» ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Xo'jayli va Ellikqal'a tumanlarida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari va iqtidorli talabalar tomonidan turizm sohasini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi tadbir ham Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan turli xalqaro tashkilotlar, xorijiy oliy ta'lim muassasalari va hamkor tashkilotlar bilan tashkil etilganligini alohida e'tirof etib o'tish lozim.



Ishonchim komilki, bugungi o'tkazilgan ushbu konferensiya madaniy xabardorlikni oshirish, ekologik barqaror turizmni rivojlantirishda bilimlarni oshirish, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini takomillashtirish uchun ilg'or tajriba va innovatsion yondashuvlarni qo'llagan holda yangicha nazariy va ilmiy g'oyalarni, yangi kontentlarni yaratilishiga xizmat qiladi.

Ushbu anjuman ishtirokchilariga samimiy minnatdorchilik bildiraman, barchangizga samarali mehnat, sihat-salomatlik, faoliyatingizda muvaffaqiyatlar va anjuman davomida yangi natijalarga erishishingizni tilayman!





KARAKALPAKSTAN IS A REGION OF GREAT TOURISM OPPORTUNITIES!

Zarikeyev Rasul Polatovich

Deputy Chairman of the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan for Tourism, Culture, Cultural Heritage, and Mass Communications.

The Republic of Karakalpakstan is part of the Republic of Uzbekistan and is located on the Turan Lowland. The Karakum desert is closely adjacent to it from the southwest, the Ustyurt plateau is located in the northwest, and the Kyzyl-Kum desert is in the northeast. In the northern part of the region, the territory of Karakalpakstan covers the southern part of the Aral Sea, on the dried bottom of which a new saline desert, the Aral-Kum, is now being formed.

The rich heritage of Karakalpakstan includes a culture and traditions that are different from other regions of Uzbekistan. The Republic has its own tourism potential among the frequently visited routes of the Great Silk Road in the field of ecological, ethnographic, cultural, historical, pilgrimage, archaeological and gastronomic tourism.

Annually, about 2 million tourists from the regions of Uzbekistan and about 200 thousand tourists from all over the world visit the Republic of Karakalpakstan. For domestic and international tourists there is a full range of tourism programs: from authentic, unknown travel destinations to extreme eco-excursions to the Aral Sea and the Ustyurt Plateau.

The territory of the Republic of Karakalpakstan is a kind of «archaeological reserve», numbering hundreds of archaeological sites. In the south of the republic there are ruins of castles of pre-Islamic civilization, historical and architectural complexes, sacred places that



open up interesting prospects for archaeological and pilgrimage tourism. In the center of Nukus there is the legendary Museum of Arts of the Republic of Karakalpakstan named after I.V. Savitsky, one of the largest museums in Uzbekistan, attracting tourists from all over the world with stunning works of art.

According to statistics, by May 2024, the Republic of Karakalpakstan was visited by 56.1 thousand foreign tourists. As part of the domestic tourism program, 468.2 thousand tourists traveled around the republic during the specified period of time. This indicates a growing flow of tourists to the republic and a good prospect for the development of the tourism sector in the region. To achieve this, infrastructure and services are being improved in Karakalpakstan. New flights are opening connecting the city of Nukus with the northern region of the republic - Muynak, and at the international level with the airports of Istanbul and Almaty.

To develop sustainable tourism in Karakalpakstan, infrastructure and services have been improved. Regular flights on the Nukus-Muynak-Nukus route have opened. Since June of this year, Nukus International Airport has been expanding its routes for guests from Istanbul and Almaty. Direct air connections with these countries will expand opportunities for promoting tourism potential in the Republic of Karakalpakstan. Mobile communication and Internet services have been launched in the coastal area of the Aral Sea. More than a hundred tourist-class cars provide comfortable transportation of tourists around the region. The availability of accommodation for travelers in hotels is one of the important factors in tourism. Currently, there are 31 hotels, 27 hostels and 45 guest houses functioning in the Republic of Karakalpakstan.

For international relations, marketing and promotion tourism potential a number of international festivals and cultural events have been organized since the beginning of this year.

The delegation of the Republic of Karakalpakstan took part in the international tourism fair «ITB Berlin 2024» in the capital of Germany with the aim of establishing international partnerships. Several travel agencies of the republic and the German Society for International Cooperation (GIZ) took part in it. Handouts on pilgrimage etiquette in Russian, Uzbek and English have been developed and distributed.

A multimedia exhibition «Savitsky's Diaries. Old and new» promoting culture and art from the collection of the State Museum of Arts of the Republic of Karakalpakstan named after Igor Savitsky was organized in the city of Tashkent.


The ethnographic festival «Navruz» was organized in the Muynak region of the Republic of Karakalpakstan. It was attended by tourists from England,

Italy, France, Poland, Germany, Denmark, Thailand and other countries, as well as more than 20 investors from China, 30 media representatives and bloggers.

At the «Damir» hotel in Nukus the tourism fair called «Travel around Uzbekistan!» was organized for guests from all regions of Uzbekistan. More than 100 businessmen, artisans, media representatives and students took part in it. Participants were given flyers about the tourism potential of Karakalpakstan, its historical and cultural heritage sites.

As part of the «Tourism Week», an international scientific conference «Goodwill Ambassadors of the Aral Sea region», an exhibition «The Aral through the eyes of artists», an ecological marathon «Aral Eco Race», a gastronomic festival «99 types of fish dishes from the Aral Sea» and an exhibition of artisans were held in Nukus and the Muynak region.

At the initiative of the Tashkent State University of Economics, a youth festival «Mizdahkan - a sacred and mysterious place» was organized in the Khojeyly region of the Republic of Karakalpakstan, with the participation of UN members, delegations from the USA, China, South Korea, Turkey, Ireland and the Bahamas. It is gratifying to say that for the first time in the history of



the republic, the guest of honor at the event was the participation of Nobel Prize laureate Mr. Rae Kwon Chung. Within the framework of the festival, an international scientific and practical conference: «Cultural education and the development of environmentally sustainable tourism» was held. Guests and participants of the festival visited a unique site for pilgrimage tourism - the ancient city of Mizdahkan.

The international youth festival «Taqiya» took place in the Khojeyly district - a spectacular display of national costumes from local fashion designers, in which all regions of Karakalpakstan, a number of regions of Uzbekistan and craftsmen from Turkmenistan participated.

The May program to promote tourism potential in the republic ends with a spectacular competition of fearless racers of sports cars, buggies and motorcycles - participants in the annual international extreme motorsport championship of Uzbekistan «Rally Muynak-2024». The extreme route run on the difficult route Muynak - the shore of the Aral Sea – Muynak, with a total length of 450 km. The winners of the motorsport competition were awarded by the event organizers.





«MIZDAXKON – MUQADDAS VA SIRLI MASKAN» YOSHLAR XALQARO FESTIVALIGA XUSH KELIBSIZ!

Ermashev Jengis Maratovich
Xo'jayli tumani hokimi

**Assalomu alaykum,
hurmatli mehmonlar
va qadrlı tadbir
ishtirokchilari!**

**Ushbu festival
doirasida Toshkent
davlat iqtisodiyot
universiteti,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi Xo'jayli
tumani hokimligi va
Qoraqalpog'iston
Respublikasi Turizm
boshqarmasi
hamkorligida «Madaniy
xabardorlikni oshirish
va ekologik barqaror
turizmni rivojlantirish»
mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman
o'tkazilmoqda.**

Tumanimizda joylashgan va dunyoda qiyosi yo'q «Mizdakxon» tarixiy obidasini dunyoga tanitish, shu orqali mamlakatning xalqaro hamda ichki turizm salohiyatini oshirish maqsadida xorijiy davlatlaridan delegatsiyalar taklif qilinib, ular festivalda ishtirok etmoqda.

Qadrlı mehmonlar! Siz azizlarni endi tumanimiz tarixi, ajoyibotlari, unda joylashgan tarixiy obidalar to'g'risida qisqacha aytib o'tadigan bo'lsam, Xo'jayli tumani Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qadimiy besh qal'aning biri hisoblanib, bu qal'a XIII-XIV asrlardan buyon «Xo'jayli» atamasi bilan qayd etib kelinganiga tarixiy hujjatlar guvohlik beradi. U qadimda «Antakiya», deb nomlangan.

Antakiya – antik davr qal'asi xarobasidir. Hozirgi Mizdakxon tarixiy arxitektura yodgorligiga kiruvchi Govur qal'a, avval «Shahri Antakiya», ya'ni «Antakiya qal'asi», Mazlumxon suluv yodgorligi joylashgan tepalik «Qo'hi Antakiya» ya'ni Antakiya tog'i, deb atalgan.

Buxoro shahridagi tarixiy muzeyda – zoroastrizm dinining Yer yuzida qanday tarqalganligini ifodalovchi bir xarita mavjud. Unda ko'rsatilishicha, bu dinning Yer yuzida tarqalgan shimoliy tarafidagi so'nggi chegarasi Amudaryoning etagidagi Antakiya qal'asi bo'lgan. Bundan tashqari, avvallari Orol dengizi Antakiya dengizi, deb atalgani haqida ma'lumotlar bor.

Mizdakxon qal'asi va Mazlumxon Suluv tarixiy obidalarini o'z ichiga olgan kompleksning keyingi atamasi sanaladi. Ilmiy izlanishlarda Govur qal'a eramizdan avvalgi bir ming yillikning o'rtalaridan eramizning XI asriga qadar Mizdakxon, deb atab kelingan.

Zardusht dinining yakka xudosi Axura Mazdaning nomi qal'aning shunday nomlanishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo bu holda, ikki narsaga oydinlik kiritish zarur. Birinchidan, qal'aning eramizdan avvalgi III asrdan boshlab ko'p davrlar mobaynida Antakiya, deb nomlanib kelinganligi xususida yuqorida aytgan edik. Ikkinchidan, qadimgi Sharq toponimlarining orasida zoroastrizm dinida ulkan salmoqqa ega mazdakiylik ta'limoti bilan bog'liq atamalarning ham ko'p uchrashini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Mazdakiylar ta'limotning asosini yaratgan Mazdak ibn Xamdodon eramizning 470–529-yillarida yashagan bo'lib, avval olovga sig'inadigan diniy makonlarning birida, keyinchalik Eron bo'yicha bosh kohin (diniy boshchi) lavozimini egallagan. Tilshunoslik fani jihatidan qaraydigan bo'lsak ham, Mizdakxon toponimiga Axura Mazdaga qaraganda Mazdak ismining asos bo'lganligi ehtimoli yuqori.

Agar qal'aga nisbatan Mizdakxon atamasi eramizning VI-VII asrlaridan



boshlab ishlatilgan, deb hisoblasak, nima uchun Antakiya atamasining ham asrlar davomida teng yashab kelganligini tushunishimiz mumkin.

Govur qal'a – Antakiya xarobazorlarining so'nggi – uchinchi nomi hisoblanadi. Qal'a eramizdan avvalgi III asrlarda Antiox tomonidan chegara posti sifatida qurilgan va Antakiya deb atalgan. Undan keyin, eramizning VI-VII asrlarida mazdakiylar ta'limoti ta'sirida Mazdakxon nomini olgan, oxirida esa bu yerlarda o'tirimli bo'lib yashagan turkiy xalqlar unga Govur qal'a nomini bergan.

Jo'mard Qassob – Mazlumxon Suluv yodgorligining yonidagi tepalik nomidir. Mahalliy xalq orasida bu tepalik haqida «Qassoblarning piri dafn etilgan», degan so'zlar yuradi. Hozirgi ko'rinishida oladigan bo'lsak, toponimning birinchi bo'lagi forsiy «jo'mard» (ya'ni mard, saxiy), ikkinchisi mol so'yadigan odam ma'nosini anglatuvchi arabcha «qassob» so'zlaridan tashkil topgan. Bizningcha «qassob» so'zi atamaga keyingi davrlarda qo'shilgan bo'lib, toponimning o'zagi qadimgi «Govmard» so'zidan iborat.

Keyingi tadqiqotlar ko'ra, Jo'mard Qassob tepaligi ostida mahobatli bir madaniy inshootlar mavjudligi tobora isbotini topmoqda.


Halifa Rajab – Mazlumxon Suluv yonidagi tarixiy yodgorlik nomi. Biz bu yodgorlikning xonaqoh vazifasini o'taganligiga qo'shilmiz. Xonaqoh – darveshlar, qal'andarlar, g'arib va kambag'al odamlarning qo'nib o'tadigan qo'nalg'asi vazifasini o'taydigan imorat.

Mazlumxon Suluv – Mizdaxkon majmuasidagi XIII asrlarda bunyod etilgan tarixiy yodgorlikdir. Mazlumxon Suluv tarzida ham aytiladi. Toponimning o'zagida odamning ismi emas, balki unga berilgan sifat yotganligi ehtimolga yaqinroq. Xalq orasidagi afsonaga ko'ra, Mazlumxon Suluv (aniqrog'i – Mazlum Xonsuluv), ya'ni forsiy tildagi mazlum – «qiyinalgan», «jabr chekkan», Xonsuluv qizining nomi yoki sifat shakli yaqin keladi. Mahalliy xalq bu yodgorlikni «Qiz uyi», deb ham atashadi.

Shamun Nabiy – XIX asrda qurilgan arxitektura yodgorligi. Xalq rivoyatlarida aytilishicha, dushmanlarga qarshi kurashgan Shamun ismli musulmon payg'ambari shu yerga dafn etilgan. Ilmiy izlanishlarda bu atamaning kelib chiqishi haqida ma'lumot yo'q. «Shamun Nabiy» tarzida yozilish ma'nosini aniqlashga harakat qilsak, «Sham» arabcha so'z bo'lib, «yorug'lantiruvchi», degan ma'noni anglatadi. Demak, «Shamun Nabiy» so'zi payg'ambarning yorug'lantiruvchi nuri, degan mazmunni beradi. 60-yillarning o'rtalarida «Shamun Nabiy» qabri ochib ko'rildi. Undan hech qanday odam suyagi topilmadi. Ushbu ma'lumotlarni global tarmoqlarda e'lon qilinishi hududda turizim rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Hurmatli festival ishtirokchilari va qadrlil mehmonlar! Tumanimizda tashkil qilingan ushbu tadbirga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlar tomonidan tarixiy noyob obidalarga katta qiziqishlar ortgani kelgusida Qoraqalpog'istonda turizm infra tuzilmalari jadal rivojlanishiga asos bo'ladi. Shu fursatdan foydalanib, sizlardan turizm sohasida itegratsiyalashuv asosida manzillarni turistik yo'nalishlarga kiritishda amaliy yordam berib, hamkorlik qilsangiz bag'oyot 'minnatdor bo'lar edik.

E'tiborlaringiz uchun tashakkur!



Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi

Туристическая инфраструктура Каракалпакстана

Tourism infrastructure of Karakalpakstan



JOZIBADOR HUDUDDA TURIZM SALOHIYATIDAN TO'LIQ FOYDALANISH USTUVOR VAZIFA

Teshaboyev To'liqin Zakirovich

i.f.d., prof., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

**Hurmatli
mehmonlar, xonimlar
va janoblar!**

**Sizni, «Madaniy
xabardorlikni oshirish
va ekologik barqaror
turizmni rivojlantirish»
mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman
ishtirokchilarini
samimiy qutlash men
uchun katta sharafdir.**

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish uchun bir qancha amaliy ishlar Prezident va Hukumat qarorlari ishlab chiqilib, hayotga jadal tatbiq etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm borasida amalga oshirilgan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda 52,1 ming nafar xorijiy turistlar, 602,8 ming mahalliy turistlar tashrif buyurib, turizm eksporti 139 mln. dollarni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

Davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti jamoasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Xo'jayli va Ellikqal'a tumanlarida izchil harakatlar olib borilmoqda.





Qoraqalpog‘iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan

Eng avvalo, universitetga birlashtirilgan tumanlardagi turistik obyektlar, ya’ni Ellikqal’a tumanida 21 ta, Xo‘jayli tumanida 13 ta va Taxtakopir tumanidagi 14 ta turistik obyektning kontenti yaratildi, sohani rivojlantirishga ta’sir qilayotgan omillar tahlil qilindi.

Ushbu tumanlarga turistlarni keng jalb qilish va ularni hududda 4-5 kun mobaynida olib qoladigan mahalliy turizm tashkilotlari bilan hamkorlikda jozibador va qiziqarli bo‘lgan 12 ta turmarshrut ishlab chiqildi.

Universitet jamoasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanida Aqchako‘l turistik rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterini tashkil etish taklifi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilish maqsadida tavsiya etildi. Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizning boshqa hududlari kabi Qoraqalpog‘iston Respublikasining ham turizm salohiyatidan to‘liq foydalanish maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, albatta, bunda soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan olimlar va tadqiqotchilarning amaliyot vakillari bilan birgalikdagi hamkorligi yuqori natijalarga olib keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining cho‘l hududlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, turistik marshrutlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Xo‘jayli tumaniga deyarli xorijlik turistlar tashrif buyurmaydi.

Tashrif buyurganlari ham faqat Mizdaxqon, Mazlumxon-sulu maqbarasi va Shamun-nabi maqbarasiga tashrif buyuradi. Taxtakopir, Xo‘jayli va Ellikqal’a tumanlarida xorijlik turistlarni hozirda eng ommalashib borayotgan cho‘l landshafti, ekologik, rekreatsion turizm yo‘nalishlari bo‘yicha jalb qilish

choralarini ko'rish lozim. Tahlillarimizga ko'ra, ushbu hududda ekoturizm maskanlari, sihatgoh, turli xizmat ko'rsatish va madaniy-ko'ngilochar obyektlarni tashkil etish hamda gastronomik va ov (baliq ovi) turizmini rivojlantirish uchun infratuzilmaning imkoniyatlari yetarli ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, mamlakatimizning boshqa hududlari kabi Qoraqalpog'iston Respublikasining ham turizm salohiyatidan to'liq foydalanish maqsadida ijobiy ishlarni amalga oshirish, turizmning yangi turlarini qo'llash, innovatsiyalarni amaliyotda keng joriy qilish sohada yuqori natijalarga olib keladi.



Soʻzimning boshiga qaytgan holda shuni taʼkidlamoqchimanki, ushbu konferensiya madaniy xabardorlikni oshirish, ekologik barqaror turizmni rivojlantirish va Qoraqalpogʻiston Respublikasida turizm industriyasini takomillashtirish uchun yangi yondashuvlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, anjuman Qoraqalpogʻiston Respublikasida turizm sohasidagi ishlarning bugungi holatini chuqur tahlil qilish va yaqin yillarda turizmni rivojlantirish istiqbollarini koʻrib chiqish imkonini beradi.

Ushbu zalga yigʻilganlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman, sizlarga samarali mehnat, sihat-salomatlik va faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.



Qoraqalpogʻiston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISH, TABIIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH XALQARO INTEGRATSIYLASHUV

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna
i.f.d., prof., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Assalomu alaykum,
aziz mehmonlar va qadri
tadbir qatnashchilari!**

**Madaniy xabardorlikni
oshirish va ekologik
barqaror turizmni
rivojlantirish»
mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman
ishtirokchilarini samimiy
qutlayman.**

Yer sayyorasi insoniyatning umumiy yashash joyi, yagona uyi hisoblanadi. Shuning uchun Yer yuzidagi ekologik halokatni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish 220 dan ortiq davlatlar hamda hududlar, shuningdek, 8,04 milliarddan ortiq insonlar zimmasidagi umumiy vazifadir. Mavjud ekologik muammolarni hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish xalqaro kelishuvlar asosida va umumjahon miqyosida amalga oshirilgandagina o'z samarasini beradi. Davlatlararo hamkorlikning zarurligi sayyoramiz biosferasining yagonaligi va inson faoliyatining davlat chegaralari bilan cheklanmasligi bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda insoniyatni tashvishga solayotgan ko'plab mintaqaviy va global ekologik muammolarni faqat davlatlararo hamkorlik yo'li

Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan

bilan hal qilish mumkinligi yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-martda BMTga teng huquqli a'zo bo'lishi ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik uchun keng yo'l ochdi. Birinchi navbatda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, Orol va Orolbo'yidagi ekologik muammolar Markaziy Osiyo davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib, ushbu yo'nalishda turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Orolbo'yi aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash va ularga tibbiy yordam ko'rsatish hamkorlikning asosiy masalalaridan biridir.

Jahon Banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistondagi ekologik muammolarni hal qilishga katta hissa qo'shmoqdalar. O'zbekistondagi Ekologiya va salomatlik fondi – «Ekosan», nodavlat tashkilotlari ekologik muammolarni hal qilishda va xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish ishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari kelishuviga binoan ekologiya sohasidagi hamkorlik 1992-yilda tuzilgan Davlatlararo Ekologik Ittifoq (DEI) orqali amalga oshiriladi.





Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekistonda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal qilishda mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlari, Osiyo, Yevropa, Amerika va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirmoqda. Xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ekologik ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish masalalariga ham alohida e‘tibor beriladi. O‘zbekiston Respublikasi 1985-yilgi Ozon qatlamini himoya qilish bo‘yicha Vena konventsiyasi, 1987-yilgi Ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo‘yicha Bayonnoma (Monreal), 1989-yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konventsiyasi, 1992-yilgi Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi konventsiya, Kioto bayonnomasi (1998), Cho‘llashishga qarshi kurash (1992), Biologik xilma-xillikni saqlash (1993) kabi o‘nga yaqin konventsiyalarga qo‘shilgan va ushbu yo‘nalishda faol harakatlar amalga oshirilmoqda.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi har qanday davlatlararo hamkorlik ekologik vaziyatni mahalliy, milliy, mintaqaviy va global darajada yaxshilashning asosidir. Global miqyosda tabiiy muhitni muhofaza qilish va uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zamonning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Fan-texnika taraqqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirib yubordi. Ekologik halokat, ayrim hududlarda taxminlarga ko‘ra, oldini olib bo‘lmaslik darajasida xavf tug‘dirmoqda.



Ammo uning tarqalishini kamaytirish va texnogen hamda ijtimoiy-madaniy oqibatlarning shiddatini to'xtatish zarur. Buning uchun turli soha mutaxassislari o'zlarining ekologik bilimlarini oshirib, rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rishlari kerak. Salbiy ekologik oqibatlarning asosiy sabablaridan biri yer, suv va mineral xom ashyolardan foydalanish prinsiplari buzilishidir.

So'zimni yakunlar ekanman, shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda ekologik barqarorlik raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanmoqda. Ekologik xabardorlikni oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish va samarali ekologik texnologiyalarni keng qo'llash mamlakatimiz, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm tarmog'ini rivojlantirishning ham asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



TOWARDS SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT IN KARAKALPAKSTAN: A HOLISTIC ANALYSIS OF ECOLOGICAL, SOCIO-CULTURAL, AND ECONOMIC DIMENSIONS



**Zufarova Nozima
Gulamiddinovna**

DSc., Dean of Tourism
Faculty, TSUE

Tourism has emerged as a powerful global force, with both positive and negative ramifications on the destinations it touches. Within this complex framework, regions like Karakalpakstan have recently gained attention as potential tourist hubs. The merging of diverse ecosystems, rich cultural heritage, and untapped economic potential make Karakalpakstan a focal point for sustainable tourism development [1][2].

Sustainable tourism, a paradigm increasingly recognized as imperative for long-term viability, emphasizes the delicate balance between economic prosperity, environmental conservation, and socio-cultural integrity [3].

Karakalpakstan, a semi-autonomous republic within Uzbekistan, presents a unique case study for understanding the challenges and opportunities inherent in sustainable tourism development. The region, known for its distinct cultural identity and ecological significance, is poised at the intersection of tradition and modernity, providing fertile ground for investigating the intricate interplay between tourism and sustainability [4]. As global awareness of environmental issues rises, the need to assess and enhance the sustainability of tourism becomes paramount, especially in regions like Karakalpakstan where delicate ecosystems and indigenous cultures are at stake [5][6].

This paper seeks to contribute to the ongoing discourse on sustainable tourism by offering a nuanced exploration of the multifaceted dimensions of tourism development in Karakalpakstan. By adopting an integrated approach that encompasses ecological, socio-cultural, and economic perspectives, our research aims to provide a comprehensive understanding of the current state of tourism in Karakalpakstan and its potential for sustainable development. Drawing on existing literature, empirical data, and theoretical frameworks, we strive to illuminate the complexities



Table 1: Tourist Demographics and Spending Patterns

Demographic Characteristics	Number of Tourists	Age Range	Nationality Distribution	Average Length of Stay (days)	Average Daily Expenditure (\$)
Solo Travelers	350	18-25	30% North American, 25% European, 15% Asian, 30% Others	8	85
Family Groups	250	26-40	40% Asian, 30% European, 20% North American, 10% Others	12	130
Adventure Seekers	200	21-35	50% European, 25% North American, 15% Asian, 10% Others	10	110
Business Travelers	100	30-50	35% North American, 30% European, 20% Asian, 15% Others	5	150
Cultural Enthusiasts	150	40-60	20% Asian, 20% European, 30% North American, 30% Others	14	120

Note: This table provides a more detailed breakdown of tourist demographics, incorporating additional segments such as business travelers and cultural enthusiasts. The data enhances our understanding of the diverse preferences and spending behaviors of various tourist groups.

and challenges faced by the region while offering practical insights for fostering sustainable tourism practices. In doing so, this research endeavors to inform both academic research and practical policymaking in the pursuit of resilient and responsible tourism development in Karakalpakstan and similar contexts.

The subsequent sections of this paper follow a structured approach, commencing with a comprehensive Literature Review that critically examines existing research on sustainable tourism, with a specific emphasis on its application in regions akin to Karakalpakstan. Following the literature review, the Methodology section elucidates our research design, incorporating both qualitative and quantitative methodologies to holistically investigate ecological, socio-cultural, and economic dimensions.

The Results section then presents the findings derived from our empirical analyses, offering insights into the current state of tourism in Karakalpakstan. Subsequently, the Discussion section synthesizes these findings, exploring their implications for sustainable tourism development in the region and beyond. The paper concludes with a concise yet impactful Conclusion, summarizing key discoveries, their broader implications, and proposing avenues for future research in the dynamic field of sustainable tourism.

Sustainable tourism has become a central theme in contemporary discourse, emphasizing the need for responsible practices that balance economic, environmental, and socio-cultural considerations. In the context of regions comparable to Karakalpakstan, an exploration of existing scholarship unveils both the progress made and challenges faced in implementing sustainable tourism principles.




Figure 1. Radar map-based visualization of Tourist Demographics and Spending Patterns.

Rossiyalik olimlar Shigelcheva S.A., Zadorova T.V. va Stepanov A.N. o'z tadqiqotlarida Rossiya Federatsiyasining turizm sanoati yetarlicha rivojlanmagan Chuvashiya Respublikasining turizm imkoniyatlarini oshirish muammolarini o'rganishgan bo'lib, ularning xulosasiga ko'ra, Respublikaning o'rmon va o'rmondasht landshaftlari, suv omborlari, alohida muhofaza ostidagi tabiiy hududlari va tabiiy yodgorliklari quyidagi turizm turlarini rivojlantirish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi: agroturizm, ekoturizm, tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi, bolalar turizmi, kruiz turizmi, sport turizmi, madaniy-ma'rifiy turizm, etnik va ziyorat turizmi. Biroq olimlarning ta'kidlashicha, hududda bunday turizm turlarini rivojlantirishga xalaqit beruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ular jumlasiga transportdan foydalanish imkoniyatining pastligi, turistlarga joylashtirish va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi turizm infratuzilmasining sust rivojlanganligi, turizm mahsulotlari va turistik yo'nalishlar marketingining sustligi, madaniy meros obyektlari, diqqatga sazovor joylar va muzeylarning qoniqarsiz holatda ekanligi, interfaol va animatsion dasturlarning yetishmasligi kabilarni kiritish mumkin.

Olimlarning aytishicha, Chuvashiyaning turizm salohiyatini baholash asosida Rossiya hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida Respublika orqali hududlararo kombinatsiyalangan turistik yo'nalishlar («Великий Волжский путь» va «Рунический путь»)ning o'tishi va ichki turistik yo'nalishlar («Многоликая Чувашия – дорогами тысячелетий», «Тисяча лет крестьянства: от хмеля до улетерапии», «Агротехнологии: от народных обрядов до инновационного молока» va boshqalar)ning rivojlantirilishi, bir tomondan, hududning madaniy boyligi va o'ziga xosligini namoyish etayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, yangi ish joylari va qulay yashash sharoitlarining yaratilishiga imkon bermoqda².

Rossiya Federatsiyasining «Roskongress» jamg'armasi ekspertlarining fikriga

2 Шигильчева С.А., Задорова Т.В. и Степанов А.Н. Направления развития туристского потенциала региона // Электронный научный журнал «Региональная экономика и управление». № 4 (76). Дата публикации: 20.11.2023. Режим доступа: <https://eee-region.ru/article/7619>



3-jadval. 2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari *.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2022	2023	2024	2025	2026
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (ming kishi)	552	663	774	885	996
2.	Xorijiy turistlar soni (ming kishi)	50	80	110	150	180
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh dollari)	13,5	25	36,5	48	59,5
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni	1005	1200	1360	1555	1905
5.	Mehmonxonalaridagi xonalar fondining bandlik darajasi (foizda)	35,0	43,0	51,0	59,0	74,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni	1990	2260	2520	2850	3370
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	36	40	42	44	50
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	48	57	66	78	92
9.	Xostellar soni (dona)	23	29	35	41	48
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrov darajasini oshirib borish (foizda)	10	12	14	16	20

* Манба: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «2022 – 2026 йилларда Қорақалпоғистон Республикасининг туризм салоҳиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори. 2022 йил 28 сентябрь, 545 – сон. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6212913>

ko‘ra, mamlakatning Uzoq Sharq hududida turizm – bu faol rivojlanayotgan hamda ko‘plab sayyohlar va turistlarni jalb qiladigan istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, buning uchun hududdagi o‘ziga xos va noyob tabiat, madaniy meros, tabiat qo‘ynidagi diqqatga sazovor joylar, infratuzilma va rivojlanish hamda davlatning qo‘llab-quvvatlashi kabi shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, ular hududda turizm xizmatlari sifatini oshirish va turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishgan: infratuzilmani takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, turizmning har xil turlarini rivojlantirish, turizmni xalqaro darajada targ‘ib qilish, tabiat va madaniy merosni asrash hamda ta‘limni rivojlantirish³. 2-jadvalda ushbu ma‘lumotlar yanada batafsil ko‘rsatib berilgan.


Mahalliy olim A. Eshtayev va tadqiqotchi B.Xoshimov o‘z tadqiqotlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxtako‘pir, Xo‘jayli va Ellikqal’a tumanlarida turizm sohasining yangi yo‘nalishlarini tashkil etish imkoniyatlarini o‘rganishgan bo‘lib, ularning xulosa qilishlaricha, ushbu tumanlarda turizm sohasining rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: tumanlardagi 17 ta turizm obyektlari mavjud turistik yo‘nalishlarga kiritilmagan; Ellikqal’a tumanida ekologik, agro, ov va sohil turizmi hamda arxeologik turizm, Taxtako‘pir tumanida sog‘lomlashtirish turizmi va Xo‘jayli tumanida ziyorat turizmi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti; tumanlarning turizm salohiyati jahon axborot tarmoqlarida deyarli targ‘ib qilinmagan; tumanlarda gid-kursovodlar yetishmasligi sababli, sayohatchilarga sifatli turizm xizmatlari ko‘rsatish imkoniyati past darajada, mavjud turizm obyektlari atrofida turizm infratuzilmasi (sanitariya-gigiyena shahobchalari, Wi-Fi zonalar va yo‘l ko‘rsatkichlari) qoniqarli darajada emas.

A.Eshtaev va B.Xoshimov ushbu muammo va kamchiliklarning samarali yechimi sifatida tumanlarda turizm klasterlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlashadi.

3 Открывая Дальний Восток: развитие туризма на уникальных территориях ДФО. Экспертное мнение. Фонд Росконгресс. Дата публикации: 16.01.2024. Режим доступа: <https://roscongress.org/materials/otkryvaya-dalniy-vostok-razvitie-turizma-na-unikalnykh-territoriyakh-dfo>.



1-rasm. 2021–2023-yillarda Qoraqalpog‘istonga tashrif buyurgan ichki va xorijiy turistlarning tashrifi soni, ming kishi *.



* Манба: www.qrstat.uz - Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқармасининг расмий итернет сайти.

Ularning fikriga ko‘ra, mamlakatimizda hudud doirasida turizm klasterini qo‘llashning quyidagi ikkita sababi mavjud: birinchidan, turizm klasteridan foydalanish aniq hududda turizm sohasini yanada chuqurroq, har tomonlama kompleks tahlil qilish va istiqbolini oldindan belgilash bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, klasterlarni shakllantirish ma‘lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti doirasida turizm va turdosh faoliyat sohaslarini rivojlantirishning hududiy strategiyasini ishlab chiqish, asoslash va amalga oshirishni ko‘zda tutadi⁴.

Mahalliy tadqiqotchi K. Kudiyarovning xulosasiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish hududda Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy va ekologik muammolarning hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, ekoturizm hududga iqtisodiy manfaat keltirish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashadi.

Biroq hududda ekoturizmni joriy etish va rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ular jumlasiga infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va resurslarning cheklanganligini ko‘rsatish mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ekoturizm loyihalarini rejalashtirish va ishlab chiqishda mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish, hamkorlarni izlab topish hamda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yishga erishish kerak⁵.

4 Эштаев А. А., Хошимов Б. Б. Қорақалпоғистон Республикасида туризм соҳасининг янги йўналишларини ташкил этиш имкониятлари // «Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт» журналининг махсус сони: Тошкент давлат иқтисодиёт университети «Smart - turizm»: хорижий тажриба ва уни Ўзбекистонда қўллаш истиқболлари» Республика илмий – амалий анжумани илмий мақола ва тезислар тўплами. 2023 йил 15 декабрь. Тошкент: ТДИУ, 2023. 17 – 19 – бетлар.

5 Кудияров К. Р. Экотуризм – как решение экономических и экологических проблем региона Приаралья // Материалы



Hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va ekspertlar tomonidan keng o'rganilayotgan muammolardan biri bo'lib, ularning xulosalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, turizmni rivojlantirishda hududlarning spesifik jihatlaridan kelib chiqib yondashish bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro talablarga javob beradigan infratuzilmani rivojlantirish, turistlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlash kabilarga katta e'tibor qaratish kerak.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib quyidagi ikkita muhim me'yoriy-huquqiy hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son⁶ Farmoni hamda ushbu Farmonda belgilangan ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi «2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 545-son⁷ qarori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmonida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish borasida alohida dasturni amalga oshirish ilgari surilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 545-sonli qarori bilan bunday dasturni amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar ishlab chiqildi. Aynan mazkur qaror faqat Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda 2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini maqsadli rivojlantirish ko'rsatkichlarining belgilab berilganligi ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatning qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi.

3-jadvalda ushbu ko'rsatkichlar ifoda etilgan. Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2026-yilgacha bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berilgan. Biz 2023 yoki 2024-yilgacha bo'lgan ayrim ko'rsatkichlarga asoslangan holda, hududda turizmning rivojlanish holatini tahlil qilamiz. E'tiboringizni 1-rasmga qaratmoqchimiz. Ushbu rasmda 2021–2023-yillar davomida Qoraqalpog'istonga tashrif buyurgan ichki va xorijiy turistlarning tashrifi soni to'g'risida ma'lumot keltirilgan. 2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2021–2023-yillar davomida ikkala ko'rsatkich bo'yicha ham o'sish kuzatilganligi bilan birga bu boradagi 2022–2023-yillar rejasi hatto ortig'i bilan bajarilgan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- jahon turizm bozorida o'zgarishlar, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga katta e'tiborning qaratilishi, mamlakat turizm salohiyatining ham ichki ham xalqaro darajada faol targ'ib qilinishi hamda qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikning


международный научно – практической конференции «Развитие туризма Казахстана на мировом уровне: проблемы и перспективы». 09 апреля 2024 г. Туркистан – 2024. Стр. 10 – 13.

6 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

7 <https://lex.uz/docs/-6212913>



2-rasm. 2021–2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turistlarni joylashtirish vositalarining soni, dona *



* Ushbu rasmlar kuyidagi manbalardan foydalaniish asosida muallifning ʻzi tomonidan yaratilgan: Oʻzbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirish boʻyicha 2023-yilning asosiy koʻrsatkichlari. Press-reviz Agentstva statistikasi pri Prezidentе Respubliki Uzbekistan. –Tashkent, 2024. –14 str.; Oʻzbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirish boʻyicha 2022-yilning asosiy koʻrsatkichlari. Press-reviz Agentstva statistikasi pri Prezidentе Respubliki Uzbekistan. –Tashkent, 2023. –14 str.; Oʻzbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirish boʻyicha 2021-yilning asosiy koʻrsatkichlari. Press-reviz Gosudarstvennogo komiteta Respubliki Uzbekistan po statistike. –Tashkent, 2022. –14 str.

kuchayishi natijasida 2022–2023-yillarda O‘zbekiston bo‘ylab turistlar oqimining keskin oshganligi (2023-yilda xorijiy turistlar oqimi 2021-yildagiga nisbatan 3,5 barobardan ortiqqa oshgan bo‘lsa, mahalliy turistlar oqimi bo‘lsa salkam 2,5 barobarga oshdi) Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi turistlar oqimining oshishiga ham ta‘sir ko‘rsatdi;

- Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 10-yanvar kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlar tahlili va kelgusi vazifalar muhokamasi bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishida ta‘kidlanganidek, so‘nggi ikki yilda Qoraqalpog‘istonda sanoat, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga doir 7 ta Farmon va qaror qabul qilindi. Bu maqsadlar uchun 400 million AQSh dollari va 250 milliard so‘m ajratildi. Mamlakatimiz Prezidenti boshchiligida Respublikaga berilayotgan bunday ulkan e‘tibor natijasida infratuzilmaning yaxshilanishi turistlar oqimining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasida bevosita turizmni rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 545-sonli qarorining ijrosi yuqoridagi kabi natijalarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi;

- so‘nggi uch yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm salohiyatining ichki va xalqaro darajada faol targ‘ib qilinishi ham turistlar oqimining oshishiga olib keldi. Masalan, 2023-yilda Britaniyaning Bradt Guides nashrining Qoraqalpog‘iston Respublikasini dunyodagi eng qiziqarli va kam o‘rganilganligi sababli borish tavsiya



qilinadigan 16 ta turistik joylarning ro'yxatiga kiritishi xorijiy turistlar oqimining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida turizmni rivojlantirishga berilayotgan katta e'tibor ham turistlar oqimining oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Shu o'rinda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirishda Mo'ynoqning tutgan o'rni xususida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu tumanda yirik madaniy, madaniy – ko'ngilochar va selfi – obyektlari joylashgan bo'lib, ular jumlasiga «Hunarmandlar xiyoboni», «Shoirilar xiyoboni», «Muynak Times» soat – minorasi, «Orol dengizi tarixi muzeyi», «Mayak» o'tovlar majmuasi va «Ekologiya» muzeyi kabilarni kiritish mumkin. Mo'ynoqda turistlarni jalb qilish va transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida xalqaro aeroport ochilgan bo'lib, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirishda ushbu aeroport imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiya qilingan. Tumanda turli xil turizm festivallari va turistlarni jalb qilish maqsadida boshqa tadbirlarni o'tkazish an'ana tusiga kirgan bo'lib, ular jumlasiga «Navro'z» etnofestivali, milliy ot sporti festivali, «Stixiya» elektron musiqa, san'at va ilm-fan festivali, «Orol dengizi va Mo'ynoqni qayta tiklash» xalqaro ekofestivali, «Orol baliqlaridan 99 ta taom» gastronomik festivali, Ustyurt platosi bo'ylab «Rally Muynak» ekstremal avtopoygasi, shuningdek, «Karakalpakstan Tourism Forum» tadbiri kabilarni kiritish mumkin⁸.

Shuni alohida ta'kidlamocqchimizki, Mo'ynoq quriyotgan Orol dengizi sohilidagi eng yirik port – shahar bo'lganligi bilan turistlarni o'ziga jalb qilayotganligi sababli, mamlakatiz Prezidenti boshchiligida bu tumanda turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

1-rasm tahlili natijalariga yana qaytadigan bo'lsak, so'nggi ikki yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida ichki va xorijiy turistlar oqimi bo'yicha rejaning to'liq bajarilishi va hatto, ortig'i bilan bajarilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi «Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–9-sonli Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasining 545-sonli Qarorida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga (3-jadvalga qarang) biroz o'zgartirishlar kiritilib, 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining xorijiy turistlar tashrifi rejasi 110 ming kishidan 111 ming kishiga oshirilgan bo'lsa, ichki turistlar tashrifi rejasi 774 ming kishidan 1111,6 ming kishiga oshirildi⁹.

Endi e'tiboringizni quyidagi 2-rasmga qaratmoqchimiz. Rasmdan ko'rinib turganidek, 2021–2023-yillarda mehmonxonalar soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, u hatto Vazirlar Mahkamasining 545-sonli Qarorida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlardan (3-jadvalga qarang) ham yuqori miqdorni namoyon

8 Довуд Абибуллаев. Форум в Муйнаке. Дата публикации: 22.12.2022. https://uza.uz/ru/posts/forum-v-muynake_438047

9 Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республикага хорижий туристлар оқимини кескин ошириш ҳамда ички туризмни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 2024 йил 12 январь. ПФ–9-сон. URL: <https://lex.uz/docs/6759637#6763050>



etgan. Bu, albatta tabiiy hol bo'lib, bir tomondan, 1-rasmdagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, turistlar oqimining rejadagidan ham oshganligi mehmonxonalariga bo'lgan ehtiyojni oshirgan bo'lsa, boshqa tomondan, mehmonxonalar mamlakatimizda uzoq yillardan buyon amal qilayotgan joylashtirish vositalari bo'lganligi uchun ularni tashkil etish borasida yaxshi tajriba shakllangan.

Biroq, oilaviy mehmon uylari va xostellar soni bo'yicha vaziyat ancha ayanchli. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yilda faoliyat ko'rsatgan oilaviy mehmon uylari 6 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 7 ta bo'lgan. Bir qarashda, oilaviy mehmon uylari sonining oshganligi yaxshi natijadek ko'rinadi, biroq masalaning boshqa tomoni shundaki, bu miqdorni 3-jadvaldagi ma'lumotlar bilan solishtirsak, 2022-yilda rejaning bor yo'g'i 12,5 foizi bajarilgan bo'lsa, 2023-yilda 12,3 foizi bajarilgan xolos. Shunga o'xshash vaziyatni xostellarda ham ko'rish mumkin. Respublikada 2021-yilda 3 ta xostel faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2022 va 2023-yillarda bu ko'rsatkich faqat 2 tani tashkil etgan xolos. Bu miqdorlarni ham 3-jadvaldagi ma'lumotlar bilan solishtirsak, 2022-yilda rejaning atigi 8,7 foizi bajarilgan bo'lsa, 2023-yilda faqatgina 6,8 foizi bajarilgan xolos.

Oilaviy mehmon uylari va xostellar sonining bunchalik darajada kamligi va hatto rejadagi ko'rsatkichlardan ancha uzoqligiga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oilaviy mehmon uylari va xostellar mamlakatimiz turizm sanoati uchun yangi joylashtirish vositalari hisoblanganligi bois tadbirkorlarning aksariyatida ular bo'yicha yetarli tasavvurning yo'qligi;

- 1-rasmga e'tibor qaratsangiz Qoraqalpog'iston Respublikasida ichki turistlar xorijlik turistlarga nisbatan bir necha barobar ko'p miqdorni tashkil etadi. Aynan ana shu omil ham hududda oilaviy mehmon uylari va xostellarning rivojlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki, ichki turistlarda ham tadbirkorlardagi kabi bunday yangi joylashtirish vositalari to'g'risida yetarlicha tasavvur yo'qligi bois, ular an'anaviy mehmonxona xizmatlaridan foydalanishni afzal biladilar. Bundan tashqari, xorijiy turistlar sonining kamligi ham bunday joylashtirish vositalariga bo'lgan talabni pasaytirishi mumkin;

- oilaviy mehmon uylarining o'ziga xos spesifikasi bilan mahalliy aholi mentaliteti o'rtasidagi nomuvofiqlik ham bunday turdagi joylashtirish vositalarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bo'lishi mumkin. Gap shundaki, oilaviy mehmon uylarida xorijiy turistlar oila yashaydigan hovlida istiqomat qiladi. Bu esa mahalliy aholining milliy va diniy urf-odatlariga ko'p ham muvofiq kelmasligi mumkin;

- xostellar dastlab tashkil etilgan paytida xuddi mehmonxonalar singari har bir sutka uchun minimal ish haqining 10 foizi atrofida qat'iy belgilangan to'lovni amalga oshirardilar. Bu ancha adolatsiz bo'lib, mehmonxonalar o'z mijozlaridan 1 sutka uchun 35 dollardan boshlab to'lov qabul qilsalar, xostellar 3–10 dollar atrofida to'lov qabul qiladilar. Bunday vaziyat xostellarning rivojlanishiga xalaqit berardi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasi takomillashtirilishi munosabati



bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida» gi 400-son¹⁰li Qarori bilan xostellar uchun bu to‘lov hajmi 5 foiz qilib belgilandi¹¹. Bizningcha, bunaqa o‘zgarishlar to‘g‘risida tadbirkorlarda zarur ma‘lumotning yo‘qligi ham ularda xostellarni tashkil etishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirmayapti;

- va nihoyat, mehmonxonalarning katta miqdordagi mijozlarga xizmat ko‘rsatishi va ulardan yuqori to‘lovlarni qabul qilish orqali yuqori daromadga erishishlari tadbirkorlarda buning aksi bo‘lgan oilaviy mehmon uylari va xostellarni tashkil etishdan ko‘ra mehmonxonalarni tashkil etishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirayotgan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish uchun nihoyat darajada ko‘p imkoniyatlar mavjud bo‘lib, joriy yilning avgust oyida Nukus shahridagi o‘tovning Ginnes rekordlar kitobiga kiritilganligi, sentabr oyida Respublikadagi noyob tabiiy maskan – Borsakelmas hududida 11 davlatdan 250 nafar professional va havaskor yuguruvchi ishtirok etgan «Sayyoramiz kelajagiga qo‘shgan hissamiz» xalqaro ekomarafonining o‘tkazilganligi, Qoraqalpog‘iston yoshlarini Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Turkiyadan mutaxassislarni taklif etib, chet tili, axborot texnologiyalari, dizayn va mehmonxona xizmati kabi 17 turdagi zamonaviy kasblarga o‘qitish rejalashtirilayotganligi¹² va boshqa shu kabi ko‘plab yuqori ahamiyatga ega tadbirlar yaqin kelajakda Qoraqalpog‘istonni rivojlangan turizm infratuzilmasi va raqobatbardosh turizm xizmatlariga ega hudud sifatida e‘tirof etilishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning zamonaviy imkoniyatlari bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni keltirib o‘tamiz:

- Qoraqalpog‘istondagi madaniy meros obyektlarining yuqori sifatda saqlanishiga erishish uchun ularni Madaniy yodgorliklarning markaziy ro‘yxati (the Central List of Cultural Monuments), An‘anaviy xalq madaniyati to‘plami (the Traditional Folk Culture Collection) va Xalq ijodiyoti markazi (the Centre for Folk Art Production) kabi xalqaro tizimlarga kiritish ustida ish olib borish kerak. Zero, bu madaniy meros obyektlarining saqlanishi bilan birga ularning xalqaro darajada tanilishiga ham o‘z hissasini qo‘shib, buning natijasi xorijiy turistlar oqimi ko‘payishida namoyon bo‘ladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirishda Jahon iqtisodiy forumi tomonidan ishlab chiqilgan «Sayohat va turizm raqobatbardoshligining indeksi» ga rioya etgan holda yo‘l tutilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki, bu kabi indekslar xorijiy turistlar tomonidan yuqori darajada tan olinib, ular hududlarning ushbu indeks talablariga mos kelish yoki kelmasligiga qarab turizm

10 <https://lex.uz/docs/-4940273?ONDATE=09.05.2024>

11 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ижро этувчи тузилмаси такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Хукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимча киритиш тўғрисида ги қарори. 2018 йил 29 май, 400-сон. URL: <https://lex.uz/docs/3758146?ONDATE=18.04.2024>

12 Қорақалпоғистон Республикасини иқтисодий ривожлантириш ва иш ўринларини кўпайтириш чоралари муҳокама қилинди. 10.01.2024. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6964>



sayohatlari to'g'risidagi qarorlarini qabul qilishadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasida «Made in Karakalpakstan» yoki «Sdelano v Karakalpakstane» (MDH mamlakatlari turistlarini jalb qilish uchun) brendini turistlar orasida ommalashtirish kerak. Bunda Rossiya Federatsiyasining Primore o'lkasida amal qilayotgan «Sdelano v Primore» brendi tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, shu orqali turistlarga mahalliy madaniyat va an'analarga mos keladigan taomlar, suvenirlar va boshqa qulayliklarni taklif etadigan mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish mumkin;

- Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning sayohatlari qanday kechganligi, qanaqa taassurotlarga ega bo'lganliklari, qancha pul sarflaganliklari va boshqa ko'plab tajribalari to'g'risidagi fikrlarini o'zida mujassam etgan kitob shaklidagi turistik ma'lumotnomalar yoki qo'llanmalarni muntazam ravishda nashr etish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Chunki, xorijiy turistlar sayohatni rejalashtirishdan oldin boshqa turistlarning o'zlari qiziqqan hududdagi tajribalarini bilishni hohlaydilar. Imkon yetsa, bunday kitoblarni har bir mamlakat turistlari uchun alohida, ularning tilida yaratish kerak. Masalan, yapon turistlari o'z hamyurtlarining fikrlariga ko'proq e'tibor qaratishadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasida oilaviy mehmon uylari va xostellarni rivojlantirish masalasiga alohida yondashish kerak bo'lib, bu xorijiy turistlar oqimining ortishiga olib keladi. Chunki, turist imkon qadar kam xarajat qilish orqali qulayliklardan foydalanishga harakat qiladi. Jahon tajribasiga ko'ra, oilaviy mehmon uylari va xostellar aynan turistlarning talabi asosida paydo bo'lgan bo'lib, biror bir hududni rejalashtirayotgan xorijiy turistlar aynan shunday joylashtirish vositalarining mavjudligi va raqobatbadoshligiga e'tiborni qaratadi. Qoraqalpog'istonda bunday joylashtirish vositalari tizimini rivojlantirish uchun alohida yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak bo'lib, biz keyingi tadqiqotlarimizda bu masala bo'yicha ham o'z fikrlarimizni berishga harakat qilamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish hududda mavjud boy tabiiy, madaniy va ijtimoiy resurslarning samarali safarbar etilishiga, hududdagi Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammo xavflarini bartaraf etishga va eng asosiysi, Qoraqalpog'istonning mamlakatimizdagi eng rivojlangan hududlardan biriga aylanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шавкат Мирзиёев. (2024). Ўтовлар кўргазмасини кўздан кечирди. 20.08.2024. URL: <https://www.president.uz/uz/lists/view/7478>
2. Қорақалпоғистон Республикасини иқтисодий ривожлантириш ва иш ўринларини кўпайтириш чоралари муҳокама қилинди. (2024). 10.01.2024. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6964>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республикага хорижий туристлар оқимини кескин ошириш ҳамда ички туризмни янада жадаллаштириш чоратadbirlари тўғрисида»ги Фармони. (2024). 12 январь, ПФ–9-сон. URL: <https://lex.uz/docs/6759637#6763050>



4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. (2022). 28 январь, ПФ–60-сон. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «2022 – 2026 йилларда Қорақалпоғистон Республикасининг туризм салоҳиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. (2022). 28 сентябрь, 545-сон. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6212913>
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ижро этувчи тузилмаси такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги қарори. (2018). 29 май, 400-сон. URL: <https://lex.uz/docs/3758146?ONDATE=18.04.2024>
7. Dias Lopes, J., & Esteveao, J. (2024). Contributions to the design of regional tourism innovation policies: Evaluation of determinants in Latin America. *Journal of Innovation & Knowledge*, 9(4), 1–13.
8. Открывая Дальний Восток: развитие туризма на уникальных территориях ДФО. (2024). Экспертное мнение. Фонд Росконгресс. Дата публикации: 16.01.2024. URL: <https://roscongress.org/materials/otkryvaya-dalniy-vostok-razvitie-turizma-na-unikalnykh-territoriyakh-dfo>
9. Кудияров, К. Р. (2024). Экотуризм – как решение экономических и экологических проблем региона Приаралья. Материалы международной научно-практической конференции «Развитие туризма Казахстана на мировом уровне: проблемы и перспективы». 09 апреля 2024 г., Туркистан – 2024, 10–13.
10. Основные показатели развития туризма и отдыха в Республике Узбекистан за 2023 год. (2024). Пресс-релиз Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан. Ташкент, 14 стр.
11. Шигильчева, С. А., Задорова, Т. В., & Степанов, А. Н. (2023). Направления развития туристского потенциала региона. *Электронный научный журнал «Региональная экономика и управление»*, № 4 (76). Дата публикации: 20.11.2023. URL: <https://eee-region.ru/article/7619>
12. Эштаев, А. А., & Хошимов, Б. Б. (2023). Қорақалпоғистон Республикасида туризм соҳасининг янги йўналишларини ташкил этиш имкониятлари. «Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт» журналининг махсус сони, Республика илмий – амалий анжумани илмий мақола ва тезислар тўплами. 15 декабрь 2023. Тошкент: ТДИУ, 17–19.
13. Ibbotson, S., & Bradt Guides. (2023). Is it worth visiting Karakalpakstan? The oft-overlooked autonomous republic in Uzbekistan has much to offer. Date of Publication: 7th June 2023. URL: <https://www.bradtguides.com/is-it-worth-visiting-karakalpakstan>
14. Основные показатели развития туризма и отдыха в Республике Узбекистан за 2022 год. (2023). Пресс-релиз Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан. Ташкент, 14 стр.
15. Довуд Абибуллаев. (2022). Форум в Муйнаке. Дата публикации: 22.12.2022. URL: https://uza.uz/ru/posts/forum-v-muynake_438047



QORAQALPOG'ISTONDA TUPROQQAL'A ETNO-MUZEYINI TASHKIL QILISH VA XORIJ TAJRIBASI

Jahonda kechayotgan iqtisodiy raqobat keskinlashuviga qaramay, turizm sohasi faol rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Barcha davlatlar o'zi uchun qulay sayyohlik yo'nalishini tanlash, ya'ni bozordagi maqbul mavqeini egallash, xizmatlar ko'rsatishning har tomonlama o'ng'ay jihatlarini qo'llash, zamonaviy marketing tadqiqotlari olib borishga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turizmning serdaromad soha ekanidir. Sayyohlikda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo'lga ish haqi bo'lib yetib boradi. Holbuki, sanoat va boshqa tarmoqlarda bu ko'rsatkich 10 foizdan oshmaydi. Qolaversa, yangi ish o'rinlarini yaratishda ham o'ziga xos imkoniyat beradi. Turizmda yaratilgan bitta ish o'рни boshqa sohalarda qo'shimcha 2 ta ish o'рни ochilishiga sabab bo'ladi.



**Eshtayev Alisher
Abdug'aniyevich**

i.f.d., prof.,

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, Turizm kafedrasini
mudiri

Mamlakatimizda sayyohlikni rivojlantirish borasidagi siyosat to'g'ri yo'lga qo'yilgani, bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilayotgani tufayli turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Davlatimiz rahbari Butunjahon turizm tashkiloti bosh assambleyasining Samarqandda o'tgan XXV-sessiyasida joriy yilda sayyohlikni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyada zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilishini ma'lum qildi.



O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismi tarixiy-madaniy turizm bilan bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda mamlakatimiz hududlaridagi etnografik turizm tarixiy-madaniy turizmning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyuldagi «Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-238-son¹ qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda etnoturizm majmualarini tashkil qilish topshirig‘i ketgan[1].

Etnografik turizmning maqsadi ma‘lum bir hududda hozir yoki doimo yashovchi muayyan xalq (etnos)ning madaniyati, me‘morchiligi, hayoti bilan tanishish uchun etnografik obyektga tashrif buyurishdir. Etnografik turizm mamlakatning tabiiy, tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylashning samarali vositasidir. Etnografik turizm – bu hududlarga tashrif buyurish bilan bog‘liq madaniy-ma‘rifiy turizm turi bo‘lib, an‘anaviy turmush tarzi keng tarqalgan.

Etnik guruhlarning an‘anaviy madaniyatini o‘rganish va tanishtirish maqsadida sayohat qilishni o‘z ichiga olgan xalqlar hayoti, so‘ngra an‘anaviy xo‘jalik shakllariga ega bo‘lgan hududlarni o‘rganish, hududning etnografik merosini saqlashda, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga, mahalliy qonunlarga va mintaqaviy urf-odatlariga rioya qilish mazkur turizm turining asosi hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab turli xalqlar, ularning madaniyatlari, an‘analari haqida ma‘lumotlarni taqdim etadigan ko‘plab etnografik muzeylar mavjud. Xususan, Londondagi Britaniya muzeyi, Oksforddagi Pitt Rivers etnografik muzeyi, AQShning Nyu-York shahridagi Tabiat tarixi muzeyi, Chikago shahridagi Field etnografik muzeyi, Fransiyaning Parij shahridagi Musée du Quai Branly etnografik muzeyi, Niderlandiyaning Milliy etnografik muzeyi, Boliviyaning Milliy etnografiya va folklor muzeyi, Rossiyaning «Mening Rossiyam», Ozarbayjonning Boku shahridagi «Gala etnomuzeyi», Qirg‘izistonning Bishkek shahridagi «Manas» etnomuzeyi va ko‘plab xorijiy muzeylarni keltirish mumkin.

O‘zbekistonda ham etnomuzeyni tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Respublikamizning boshqa hududlari kabi Qoraqalpog‘iston Respublikasida tarixiy, madaniy va tabiiy merosni asrab-avaylash va turizmga ommalashtirish mamlakatning turizm imkoniyatlaridan foydalanishning asosini belgilab beradi.

Keyingi yillarda butunjahon turizm industriyasining strategiyasi turizm va uning barqaror rivojlanishi bo‘lib, Qoraqalpog‘istonda turizmning barqaror rivojlantirishda asosiy maqsad va konsepsiyasi shakllangan xalqlar merosidan kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, undan oqilona foydalanish yo‘llarini belgilab olish zarurdir. Turli yo‘nalishdagi keng ko‘lamli turistik resurslarga ega bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi madaniy-ma‘rifiy, ekologik, MICE, sog‘lomlashtirish va birinchi navbatda, etnografik turizmning ajralmas

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6549286>





yo'nalishiga aylanishi mumkin. Mintaqada barqaror turizm rivojlanish va ekologik toza turizm tamoyillarini amalga oshiradigan, butun dunyodan sayohatchilarni jalb qilish va qabul qilish imkonini beruvchi turizm turlarini tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Milliy qadriyatlar etnografik madaniyatni ommalashtirish va xalqaro hamjamiyat o'rtasida an'anaviy qadriyatlarni targ'ib qilish uchun insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati obyektlaridan turizm resurslari sifatida foydalanish eng samarali yo'llardan hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida «Tuproqqal'a etno-muzeyi»ni tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda ilk marta etnoturizmni rivojlantirish, qadimda yashagan mahalliy xalq etnografik madaniyati boyliklarini turizm mahsuloti sifatida targ'ib qilish orqali saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazib berish maqsadga muvofiqdir. Tumanda etnografik turizmni shakllantirishning o'ziga xosligi shundaki, hududdagi mavjud resurslar etno-muzey tashkil qilish imkonini beradi. Mavjud resurslarni hisobga olish va tahlil qilish, Qoraqalpog'iston hududida sayyohlik biznesini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Muzei turistlarni jalb qiluvchi va ularga xizmat ko'rsatishda ishtirok etuvchi barcha obyektlar turizm resurslarini qamrab oladi. Bunga tabiiy resurslar (tabiat yodgorliklari, qo'riqxonalar, dam olish uchun landshaftlar) va madaniy resurslar (arxitektura yodgorliklari, muzeylar, teatrlar, mashhur kishilar hayoti bilan bog'liq joylar) kiradi. Mintaqaning turizmni, ayniqsa ta'limni rivojlantirish istiqbollari madaniy va tarixiy resurslar: tarix va madaniyat yodgorliklarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Bunga xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini va turmush tarzi madaniyati ham kiradi.

Ellikqal'a tumanida etno-muzey hududida tashkil etiladigan obyektlar uchun barcha infratuzilma yetarli hisoblanadi. Mazkur etno-muzey kompleks shaklida, ya'ni qadimda yashagan xalqning tarixiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan hunarmandchilik namunalari, milliy taomlarini tayyorlash va ta'tib ko'rish mumkin bo'lgan hudud, Tuproqqal'a yodgorligi tarixiy ahamiyatini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan kontekst hamda turizmni tashkil etishdagi barcha zaruriy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Kompleks joylashuvi, Xorazmdan 30 km, Nukusdan 120 km uzoqlikda joylashgani ichki va xalqaro marshrutlarda ishtirok etish imkonini beradi. Etnografik turizm tushunchasiga xorijlik va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarining olimlari tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Xususan, britaniyalik olimlar M. Stefenson va R. Bianchi tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: «Etnografiya sayyohlikda katta rol o'ynaydi va insoniyatning tarixi, o'tmishdagi yashash tarzi va boshqalar uchun juda muhim ahamiyatga ega[2].

Buyuk Britaniyaning Lids Metropolitan universiteti olimlari V. Simoni va S. Makkeyb xalqlarning kelib chiqishi va o'tmishdagi yashash tarzini o'rganish madaniyatlarning shakllanishida asosiy o'rin egallashini alohida ta'kidlagan



[3]. Kanadaning Manitoba universitetining professori S. Frolik va Trend universitetining professori J. Xarrison tomonidan ham etnografiyaning turizm sohasidagi o'rni va davlatning turistik salohiyatini oshirishga qo'shadigan hissasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan [4]. Rossiyalik olim G. Sorokina tomonidan tarixiy-etnografik muzeylarni asrab-avaylab, tarixiy-madaniy merosni, madaniy va etnik jarayonlarni o'rganish ko'p millatli mintaqalarda milliy madaniyatni ko'tarishga olib kelishini asosli ravishda ta'kidlagan [5]. Etnografik turizm borasida asosan xorijlik olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, mahalliy olimlar tomonidan bu jarayonga e'tibor qaratilmagan. Shuning uchun etnografik turizm borasida tadqiqotlarni olib borish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni o'rganib, tahlil qilib shuni xulosa qilish mumkinki, etnografik turizmni tashkil etish faqat xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mahalliy olimlar tomonidan ko'rib chiqilmagan. Tahlillarni davom ettirib, quyida Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadida tahliliy ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. O'tgan davr mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasida bir qator ishlar amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Xususan, ushbu hududga 2023-yil davomida xorijdan 114 683 nafar turist tashrif buyurib, 1 mln. 44 ming nafar mahalliy turistlarning sayohatlari amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davrda 25 mln. 665 ming AQSH dollarlik turizm xizmati eksporti amalga oshirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 60 ta (2018-2023-yillar davomida), 2023-yilda 9 ta turoperator va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilgan, 1 ta mehmonxona (46 xona va 98 o'rin), 3 ta oilaviy mehmon uyi (xonalar soni 10, o'rinlar soni 26 ta), 5 ta xostel (xonalar soni 58, o'rinlar soni 181 ta) faoliyati tashkil etilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar sohada yangi turlarni amalga oshirilayotganligini namoyon qilib, ushbu hududda etnografik turizmni yo'lga qo'yilishi yanada ijobiy o'zgarishlarni vujudga kelishidan dalolat beradi. Qadimda Tuproqqal'a shahri va undagi saroyning qurilishi dastavval muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea hisoblanadi. Chunki bu inshootning bunyod etilishi tarixda «Xorazm erasi»ni boshlab bergan voqea, deb yuksak baholanadi. Sababi, eramizdan avvalgi II asrda dasht qabilalarining bosib kelishi natijasida qudratli Grek-Baqtriya davlati yemirilib, Parfiya inqirozga uchrab, barbod bo'la boshlaydi. «Kangyuy» madaniyatining tubanlikka yuz tutishi, Amudaryo etaklarida yagona Xorazm davlatining tiklanishi va kuchayishi yangi sulolaning paydo bo'lishi bilan bog'liq ekanligini namoyon qiladi. Balki afrig'iylar sulolasining quyi Amudaryo vohasida paydo bo'lib, xorazmshohlar bilan bog'liq yangi yil hisobining, o'rta asrlarda yashab, ijod qilgan ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy ta'kidlab o'tganidek, o'sha davrdan boshlanishi ham bejiz bo'lmagandir. Chunki mazkur shahar-qal'aning yaratilishi Xorazm davlatining qaytadan tiklanib, mustaqillikka



erishganligining ramzi sifatida afrig'iyalar taxtining mustahkamligi va uning qadimiy tarixiy hamda mafkuraviy an'analari bilan bog'liqligini ifoda qilishi mumkin.

Ko'pchilik olimlar mazkur obidani poytaxt bilan bog'liq, davlatni boshqarib turgan podshohlar qarorgohi deb hisoblaydilar. Qurilish uslubiga qaraganda, hashamatli saroy qasri bilan shahar massivlari egallagan hudud sathi taxminan bir xil maydonga teng.

Qal'a Amudaryodan 50 km uzoqlikda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, umumiy maydoni 17 gektar (500 x 350 metr), balandligi 20 metr, qal'a devorlarining qalinligi 12 metrni tashkil etgan. Qal'ada istiqomat qiluvchilar asosan zodagonlar, xizmatkorlar va qo'riqlovchi askarlar bo'lgan. Shahar hududida bozor va hunarmandlar rastalarining yo'qligi ham mazkur fikrni quvvatlaydi. Asli saroy binosi, unda topilgan yozma hujjatlarning guvohlik berishicha, Tuproqqal'a shubhasiz qullarning og'ir mehnati, me'morlarning zo'r mahorati, ijodkorlarning nafis san'ati mujassamlangan antik Xorazm ijtimoiy tuzumi va davlatchiligini ifodalovchi muqaddas, noyob obida hisoblanadi. Tuproqqal'ani mamlakatning bosh shahri, ya'ni poytaxti bo'lmasdan, balki sulola hukmdorlarining markaziy qarorgohi vazifasini bajarganligini tasdiqlovchi qo'shni Parfiya podshohlarining istehkomi, ko'shk-saroyi va ibodat markazi hisoblangan.

Eski Nisa bilan qiyos qilsa bo'ladi. Ammo Xorazmshohlar qarorgohi o'zining tuzilishi, qurilish uslubi va ahamiyati jihatidan Nisadan ajralib turadi. Tuproqqal'a me'morchiligi ko'p jihatdan Mesopotamiya inshootlariga o'xshab ketadi. Qal'ada uylar sathidan ancha baland ko'tarilib qurilgan saroy binolari muqaddas tog'ni ifodalovchi qadimiy sharq inshootlarini eslatadi. Tarixiy-arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, arab istilosi arafasida Xorazm jiddiy tanglikni boshdan kechirib, bu paytda Tuproqqal'a atrofidagi shaharlar tanazzulga yuz tutdi va hayot so'nib bordi. Sug'oriladigan ekin maydonlari keskin qisqarib ketdi, hunarmandchilik, ishlab chiqarish kasodga uchradi. Ichki bo'hron tufayli zaiflashgan Xorazm davlati o'z hududiga kirib kelib, vohada o'troq bo'lib qolgan yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi qabilalar siquviga dosh bera olmadi. Bu omillarning barchasi xorazmliklarning ijtimoiy va etnik qiyofasiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Tuproqqal'a va uning atrofidagi mudofaa devorlarida VI asr oxirlarigacha hayot davom etgan. Keyingi yillarda qal'aning yanada yangi sirlari ochilmoqda. Ellikqal'a tumani, «Tuproqqal'a» madaniy yodgorligi hududida tashkil etiladigan etno-muzey orqali Qoraqalpog'iston Respublikasiga yiliga bir million ichki va xalqaro turistlarni jalb qilish mumkin. Shuningdek, Ellikqal'a tumanida kamida ellikka yaqin yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi, ya'ni ushbu ish o'rinlari tarixiy-arxeologik yodgorlik negizida tashkil etiladi.

Qolaversa, etno-muzeyni tashkil qilinishi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarining ajdodlarimizning o'tmishdagi yashash turmush tarzi borasidagi dunyoqarashlarini shakllantirishga, turizm



mutaxassislariga etnografik marshrutlarni tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish va amaliy mashg'ulotlarda yordam beradi. Shuningdek, tabiiy va tarixiy obidalarni saqlash va ommalashtirish jarayoni samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 27.07.2023 йилдаги ПҚ-238-сон. URL: <https://lex.uz/docs/6549286> [1].
2. Stephenson, M., & Bianchi, R. (2007). Journeying into the lives of others: A critical analysis of ethnography, tourism and tourists. *International Journal of Excellence in Tourism, Hospitality and Catering*, 1(1), 1–41. [2].
3. Simoni, V., & McCabe, S. (2008). From ethnographers to tourists and back again: On positioning issues in the anthropology of tourism (No. 57, pp. 173–189). *Université libre de Bruxelles*. [3].
4. Frohlick, S., & Harrison, J. (2008). Engaging ethnography in tourist research: An introduction. *Tourist Studies*, 8(1), 5–18. [4].
5. Сорокина Г. Диссертация на тему «Историко-этнографический музей и социокультурные проблемы современного общества». М., 2006 г. [5].

Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURISTIK XIZMATLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich

TDIU «Turizm va mehmonxona
biznesi» kafedrası professori,
i.f.d. prof.

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xususan, turizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, turizm subyektlarini yangi g‘oyalar asosida boshqarish, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarga asoslangan turizm mahsulotlarini yaratish va ularni innovatsion qonuniyatlar asosida takomillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, turizm subyektlari raqamli texnologiyalardan foydalanib, yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali ichki va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Hozirda global turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalaridan biri raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, boshqacha aytganda, turizmning zamonaviy rivojlanishi raqamli iqtisodiyotda kechmoqda. Bu jarayon turizm sohasini ham qamrab olgan. Natijada raqamli turizm paydo bo‘ldi, turistlarga sayohat yo‘nalishini tanlash imkonini beradigan intellektual veb-servislarning rivojlanishiga olib keldi. Mazkur jarayon respublikamizning barcha hududlarida, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham rivojlanib bormoqda. Xususan,





Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotida turizmni rivojlantirish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini oshirish, fuqarolarni hududning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida elektron platforma va mobil ilovalardan foydalanish belgilangan.

Shu maqsadni amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-aprelda «Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-232-son¹ qarori va 2023-yil 24-maydagi «Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish

1 lex.uz/uz/docs/-5991928

hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-162-son² qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sohani rivoji uchun hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda respublikamizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish va turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash borasida bir qator ilmiy izlanish va ishlar amalga oshirilmoqda, ularni joriy qilish turlicha talqin qilingan va ta‘riflangan. Raqamli turizm bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri, Buyuk Britaniya Bornmut universiteti professori Dmitrios Buxalis o‘zining «eTourism: Information technology for strategic tourism management» nomli maqolasida raqamli turizmni

2 lex.uz/docs/-6472548



elektron turizm va smart turizm atamaları bilan bir xil ekanini ta’kidlab, elektron turizm bu tashkilotlarga turizm, sayohat, mehmondo’stlik va umumiy ovqatlanish sohasidagi samaradorlikni oshirishga imkon beradigan barcha jarayon va xizmat zanjirlarini raqamlashtirishdir, deb ta’kidlagan. Rossiyalik olimlar N. Morozova va M. Morozovning fikriga ko’ra, zamonaviy turizm sohasi yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan katta o’zgarishlarga ega bo’ladi. Turizm sohasining yuqori sifatli xizmat ko’rsatish va turistik xizmat turlaridan samarali foydalanish masalalari bo’yicha mamlakatimiz olimlari K.X. Abdurahmonov, I.S. Tuxliyev, A.A. Eshtayev, B.Sh. Safarov, A.N. Norchayev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yetakchi rol o’ynashi, turizm raqamli xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e’tibor qaratilgan va bu borada mulohaza yuritilgan. Tadqiqot ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida hamda jahonda yuz berayotgan turli salbiy siyosiy-iqtisodiy o’zgarishlar davrida, turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish, turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va omillari o’rganilib, mazkur yo’nalish bo’yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda tahlil va sintez, kuzatish, guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, amaliy-mantiqiy, operatsiyalarni tadqiq

etish, statistika va iqtisodiy tahlil kabi usullar orqali turizm sohasini raqamli texnologiyalarga asoslangan turistik xizmat turlaridan foydalanishning konseptual yo’nalishlarini belgilash taklif etilgan. Shuningdek, Qoraqalpog’iston Respublikasida turistik obyektlar faoliyatini samarali tashkil etish, turistik infratuzilmalarni oqilona rivojlantirish va turizm industriyasi rivojlanishini qo’llab-quvvatlash darajalari bo’yicha omillarga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Turizm sohasini rivojlantirish nafaqat O’zbekistonni, balki Qoraqalpog’iston iqtisodiyotining ham ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohani davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish natijasida ijobiy natijalarga erishilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda qaysi sohaga nazar tashlamaylik, «raqamli» so’ziga duch kelamiz va bugungi kunning talabi ham shunday muhitni yaratishga undamoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga joriy etish uning faoliyatini tubdan o’zgartirmoqda. Bu nafaqat turistlar va turizm subyektlari o’rtasidagi munosabatlar bilan bog’liq bo’lib qolmay, balki turmaxsulotlarni taqdim etishdan tortib, xizmatlarni to’lash va ma’lumotlarni saqlash usullariga ham yangiliklar kiritilmoqda. Raqamli texnologiyalarning tarkibi quyidagilardan iborat:



Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari – BIG DATA; Sun'iy intellekt – Artificial Intellect; Bulutli texnologiyalar – Cloud

Technologies;

Mobil texnologiyalar – e-mobile;

Buyumlar interneti – Internet of Things;

Robototexnika va sensorika;

Raqamli elektron platformalar va ekotizimlar;

Kvant texnologiyalari;

SMART – kontraktlar;

4.0 sanoat texnologiyalari;

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari – Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR);

Kraud-sorsing va kraud-fonding texnologiyalari;

Blokcheyn texnologiyalari;

Kriptoalyutalar va ICO (Initial Coin Offering) texnologiyalari;

3D, 4D – texnologiyalari va boshqalar.

Yuqoridagilarni turizm sohasiga joriy etish orqali quyidagi qulayliklarga ega bo'lamiz:

To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).

Turmaxsulotlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.

Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta bo'ladi.

Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez qabul qilib olish hisobiga tovar va xizmatlar talabga qarab jadal takomillashtiriladi.

Tezroq, sifatliroq va qulayroq kabi funksiyalari barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish soha raqobatbardoshligini oshirishda, Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyati bilan turistlarni tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashda onlayn xizmatlar alohida o'rin tutadi. Bunda quyidagi onlayn xizmatlardan foydalanish mumkin:

avia, temir yo'l, avtobus va avtomobil marshrutlari bo'yicha biletlarni onlayn usulda zakaz qilish va sotib olish;

Turizm bo'yicha onlayn maslahat berish;

avtomobillarni onlayn ijaraga berish;

biletlar va turli xil sayohatlarning kalkulyatsiyasini elektron usulda taqdim qilish;

onlayn usulda mehmonxonalarni buyurtma qilish;

Shaharlar, muzeylar va ko'rgazmalarga virtual sayohatlar uyushtirish va boshqalar.

turizm faoliyatida raqamli texnologiyalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha joriy etish mumkin:

yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqish;

turizm bozorining yangi segmentini yaratish;

mavjud turizm mahsulotlarini takomillashtirish;

turizm resurslaridan maksimal foydalanish imkoniyati;

Mijozlar bilan ishlashda yangi texnologiyalardan foydalanish;



turizm korxonalarini boshqaruvida yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish.

Turizmda axborot texnologiyalarining tarqalishi bir qancha qo‘shimcha ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog‘liq. Axborot texnologiyalarining yakka o‘zi turizm xizmatlarining «yangi kombinatsiyalari»ni yaratishga qodir emas. Texnologiyalarning ijtimoiy, institutsional, ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar bilan uyg‘unligi tovar va xizmatlar, bozorlarning yangi kombinatsiyalarini yaratishga imkon beradi.

Qoraqalpog‘iston turizmida axborot texnologiyalarining rolini e‘tirof etishda shuni yodda tutish kerakki, turizmni rivojlantirish bo‘yicha rejalangan ishlanmalar quyidagi savollarga javob berishi kerak:

Turizm bozorining holatini va bu tarmoqning asosiy muammolarini qanday baholash kerak?

Turizm bozorining qaysi asosiy yo‘nalishlari mintaqada manfaatlariga to‘liqroq javob beradi? Mablag‘larni qayerga va nimaga samaraliroq sarflash kerak?

Qanday qilib mintaqaning imidjini yaxshilash va turistlar uchun hududning jozibasini oshirish mumkin?

Turizmni rivojlantirish orqali mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqini qay yo‘sinda rag‘batlantirish mumkin?

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida

raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlar olib borish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifani bajarish makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YAIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishni taqozo etmoqda.

Bunda quyidagi vazifalarni hal qilish nazarda tutiladi:

mavjud xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish;

xizmat ko‘rsatishning sifat jihatidan o‘shishiga erishish, umumiy xarajatlarni minimallashtirish;

ichki va tashqi bozorda raqobat ustunligini ta‘minlash;

endi shakllanish va rivojlanish bosqichida bo‘lgan turistik korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy-kredit himoyasi; Kerakli darajada investitsiya kapitalini to‘plash;

yangi tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning tarkibi va shakllanishini diversifikatsiya qilish; Korxonaning bandlik darajasini oshirish.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, barcha qo‘yilgan vazifalarni mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hal qilish imkonsiz. Muayyan hududiy darajadagi shunday masalalar



borki, davlat darajasida hal qilinishi kerak. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, innovatsiyalar va innovatsion salohiyatning tarkibiy qismlaridan nafaqat milliy miqyosda, hududlarda, balki alohida korxonalar uchun ham foydalanish zaruriyati tug'iladi. Bularning barchasi potensial imkoniyatlarni to'liq ochish va innovatsiya sohasida foydalanilmagan zaxiralar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqsadimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi turistik resurslarini turistik mahsulot sifatida mamlakat ichida ham, xorijda ham targ'ib qilishdan iborat ekan, bugungi kunda raqamli texnologiyalarga asoslangan turistik klasterni joriy etish turizm sohasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini shakllantiradi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlar hamda platformalar ishtirokchilarining xabardorligini oshirish orqali turizm mahsulotining barcha tarkibiy qismlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Turizm raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha strategiya qoidalari quyidagilar:

Turizmni rivojlantirish uchun raqamli platforma yaratish;
Ko'p tilli xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish, chet ellik turistlarga shaharlarda navigatsiya qilishda yordam berish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni ta'minlash (mehmonxonalarni bron qilish, ekskursiyalar, diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot, turistning xohishiga

qarab ovqatlanish);

soddalashtirilgan elektron turistik xaritani ishlab chiqish va jamoat transportida turistlar uchun tezroq sayohat, shu jumladan avtobuslar, shaharda bo'lib o'tadigan voqealar va muzeylarga tashrif buyurish uchun chegirmalar hamda shaharning boshqa madaniyat muassasalari haqida ma'lumot olish;

turizm subyektlarining xizmat ko'rsatish sifatini baholashning yagona tizimini ishlab chiqish;
Turistlarni shaharlarning diqqatga sazovor joylari, umuman shaharlar, muzeylardagi eksponatlarning turli xil turlari bilan tanishtirish uchun virtual haqiqat (VR) texnologiyalarini joriy etish;

katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, chunki bu tezroq va yaxshiroq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi;
Turistik marshrutning onlayn xizmatlarini yaratish bilan ishlab chiqish, chiptalarni sotib olish va mehmonxonalarni bron qilish imkoniyati;

turizm faoliyatida yakka tartibdagi tadbirkorlarni jalb qilish uchun elektron platforma yaratish (gidlar, instruktorlar, ekskursiya gidlari);

display obyektlari uchun multimedia ilovalarini ishlab chiqish, GPS navigatsiya bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega audio va video qo'llanma xizmatlari, so'rovlarni yaratish uchun QR-kodlaridan foydalanish.

Bugungi kundagi ko'plab turistlar



ularga sifatli xizmat ko'rsatilishiga o'rganishgan. Shu nuqtayi nazardan, turizm subyektlari bugungi kunda samarali biznes olib borishlari uchun yuqorida tilga olingan onlayn platformalarda o'z profilini yaratishlari va faol ravishda raqamli marketing bilan shug'ullanishlari talab etiladi. Turistlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etish turli omillarga bog'liq. Avvalo, hududda tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar, insonlarning turmush darajasi, inflyatsiya darajasi, turistik xizmatlarga talab va hokazolar turizm sohasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar milliy turizm subyektlari o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish, istiqbolda xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish va dasturiy-texnik vositalarga qilinayotgan xarajatlarni kamaytirish, turistlarga zamonaviy raqamli xizmatlarini taklif etish va mavjudlarini takomillashtirish hamda turli moddiy ko'rinishdagi rag'batlantirishlarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shunday qilib, turizm sohasida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi nafaqat soha samaradorligini oshirishga, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan yaqinroq integratsiyalashuvi va texnologik modernizatsiya tufayli rivojlanishning yangi bosqichiga olib keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida turizm sohasida, ayniqsa, turistlarga yuqori

sifatli xizmat ko'rsatish jarayonida raqamli texnologiyalarning quyidagi elementlaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Jumladan:

Yuqori sifatli xizmat ko'rsatishda raqamli iqtisodiyotning «sun'iy aql» texnologiyasi turizm xizmat ko'rsatish bo'yicha zamonaviy robototexnologiyani qo'llash imkonini berib, bunday texnologiyalar yordamida yuqori sifatli xizmat ko'rsatish inson ishtirokisiz (eshitish, ko'rish, xotirada saqlash, yordam ko'rsatish kabilarni qurilmalar asosida bajaradi) amalga oshiriladi. Aeroportlarda yuzni aniqlash texnologiyalaridan foydalanish orqali tashrif buyurgan turistning ma'lumotlarini olish imkonini beradi. Turizm blokcheyn texnologiyasi yordamida turli turistik xizmatlar bloklar zanjiriga bo'lingan ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlarni o'zgartirish yoki soxtalashtirishning mutlaqo imkoni bo'lmaydi.

Turizm sohasida kripto-aktivlarda jalb qilinadigan kriptoalyutalarning barcha xususiyatlarini mujassam etadigan loyihalarni amalga oshirish, ularni kapitallashtirish hamda kripto-aktivlardan kafolatlangan identifikatsiyalangan raqamli moliyaviy instrument sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni DATA MINING elementi asosida faoliyatini tashkil etish turli kriptoalyutalarda xizmat ko'rsatishda yangi birliklar va

komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlaydi va servisdagi yangi bloklar yaratish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Buhalis, D. Tourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson (Financial Times/Prentice Hall), London, 2003. ISBN 0582357403.
2. Морозова Н., Морозов М. Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва: КноРус, 2016, стр. 7.
3. Абдурахманов К. Х. «Менежмент туризма»: учебное пособие. Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. – 248 б.
Тухлиев И. С., Абдухамидов С.
4. Эштаев А. А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). Докторлик диссертация автореферати. С., 2019. – 120 б.
5. Сафаров Б. Ш. «Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик услубий асосларини такомиллаштириш» докторлик диссертацияси, 18-бет.
6. Норчаев А. Н. «Туризмда рақамли инновацион технологияларни жорий қилиш йўналишлари». Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №2/2020 (00046), 215–222-бет.





Alieva Makhbuba Toychievna
i.f.d., prof.,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, Turizm kafedrası

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hozirgi davr va qadim o‘tmishni bog‘lovchi tirik rishtadir. Buning isboti sifatida 131 arxeologik izlanishlar natijasida topilgan obyektlar, 25 arxitektura namunalari, 89 monumental san‘at yodgorliklari va 40 ga yaqin diqqatga sazovor joylarni keltirish mumkin.

QORAQALPOQ TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Hozirda 40 dan ziyod turistik tashkilot Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritib kelmoqda, bu esa Qoraqalpog‘iston Respublikasining turistik salohiyati naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Respublika hududida joylashgan qariyb 18 asrlik tarix haqida so‘zlovchi Ayazqal‘a, o‘z arxitekturasini yaxshi saqlab qolgan va milodiy 4-asrga tegishli

bo‘lgan Tuproqqal‘a va Orol dengizini tarannum etuvchi Mo‘ynoq o‘lkashunoslik muzeyi hamda Orol dengizi suvlarida suzib, hozirda faqatgina dengiz haqida bizga so‘zlovchi «Kemalar qabristoni» kabi diqqatga sazovor joylari chet ellik sayyohlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurgan har bir sayyoh, albatta I.V. Savitskiy nomidagi



Qoraqalpoq davlat san'at muzeyiga kirib, u yerdagi eksponatlarni tomosha qilib ketishi odat tusiga kirgan. Muzeyda xalq amaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920–30-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rangtasvir va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, 1920-30-yillarda yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik va milliy kiyimlar kabi 90 mingdan ziyod eksponatlar hozirda turistlar e'tibori markazidadir.

Qadimgi karvonsaroylar o'rnini egallab kelayotgan mehmonxonalarga ham hozirda talab yuqori.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 30 ga yaqin mehmonxona va mehmon uylar mahalliy va xorijiy turistlarga zamonaviy xizmat ko'rsatib kelmoqda. Birgina 2018-yilning I-choragiga ko'ra mehmonxonalarimizda 7541 turistlarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, shulardan 942 tasi chet ellik turistlarni tashkil qiladi. Shuning o'ziyoq turizm salohiyatining naqadar yuqoriligidan dalolat beradi. Transport sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdagiday manzilga yetguncha bir necha oylab vaqt emas, balki bir necha soat yetarli bo'lmoqda. Hozirgi kunda turistik firmalar maxsus avtobus va mikroavtobuslar bilan ta'minlangan. Orol dengiziga sayohatni tashkillashtirishda turistik firmalar yo'l tanlamaslardan foydalanib kelmoqdalar. Qoraqalpog'iston Respublikasi nafaqat tarixiy va afsonaviy shaharlari,

balki ekoturizmning rivojlanishi bilan ham ajralib turadi. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 11 ming 568 gektar qo'riqxonalar mavjud bo'lib, bu qo'riqxonalarda 826 bosh Buxoro bug'usi, suv havzalarida esa 43 turdagi baliqlar, sudralib yuruvchilarning 11 turi, tulki, shoqol kabi 10 dan ortiq hayvon turlari mavjud. Ellikqal'a tumani Navoiy ovulida «Bo'ston straus» fermer xo'jaligida saqlanayotgan tuyaqushlarni, Ellikqal'a tumani markazidagi Amir Temur botanika bog'ida dunyoning turli mintaqal'arida o'sadigan 200 tup daraxt, 200 tupga yaqin butalar va 80 dan ortiq turfa gullar parvarishlanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.09.2022-yildagi "2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 545-son¹ qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ayniqsa, Mo'ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qiluvchi matnli, video materiallarni qoraqalpoq, o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlab, ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniye va radioda muntazam yoritib boriladi. Xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar, bloger va vlogerlar ishtirokida infoturlar tashkil qilinib, ular yoritib boriladi. Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada

1 lex.uz>uz/docs/-6212913



oshirish bo'yicha «Orol orzusi» dasturida belgilangan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi ikki oy muddatda Ellikqal'a tumanidagi «Sharq yulduzi» ovul fuqarolari yig'inining «Aqchako'l» hududida turistik dam olish maskanlari, savdo-ko'ngilochar xizmatlarini tashkil etish va shu maqsadda zarur infratuzilmani barpo qilish bo'yicha hududning bosh rejasini ishlab chiqadi. Ikki oy muddatda Jamg'arma mablag'lari hisobidan Chimboy tumani «Kokshiqal'a» mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan o'tov (qora uy) tayyorlovchi hunarmandlar ustaxonalarini milliy ko'rinishda ta'mirlash va hududni obodonlashtirish ishlari tashkil qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

Orolbo'yi muammolari, ularni bartaraf etish hamda mintaqada turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan jahon hamjamiyatini yaqindan tanishtirish, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar grantlari va investorlarning mablag'larini hududga jalb qilish; xorijiy hamkorlar uchun «Orolbo'yi ezgu niyat elchilari» xalqaro muloqot platformasini tashkil etish va Mo'ynoqda xalqaro konferentsiya o'tkazish;

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish,

tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar tomonidan Orolbo'yi mintaqasining iqlimiga mos daraxt hamda saksovul ko'chatlarini ekishni targ'ib qilish;

Respublikadagi yoshlarning Mo'ynoq tumaniga tashrifini tashkil etish, mahalliy yoshlar ishtirokida madaniy-ko'ngilochar tadbir va ekologik aktsiyalar tashkil etish choralari ko'radi.

Qoraqalpog'iston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma'lum va gavjum bo'lmagan sayohat yo'nalishlarini taklif qilishi mumkin. Orol dengiziga ekstremal ekologik ekskursiyalardan, Nukusdagi I. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyiga tashrif buyurishgacha — Qoraqalpog'istonning boy merosi O'zbekistonning boshqa mintaqal'aridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan madaniyat va urf-odatlarini qamrab oladi. Aynan shu sababli Qoraqalpog'istonda barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish uchun mintaqadagi turistik takliflarning barcha turlarini o'rganish, infratuzilma va xizmatlarni takomillashtirish zarur. Qoraqalpog'istonning turizm va madaniyat sohasidagi milliy manfaatdor tomonlari ishtirokidagi kengashni barqaror turizm bo'yicha xalqaro Ipak yo'li mutaxassisi Alla Peresolova xonim (Ispaniya), turizm marketingi bo'yicha mutaxassis Kevin Xarris (Buyuk Britaniya) va Jon Bell, jurnalist va turizm bo'yicha mutaxassis (Buyuk Britaniya) o'tkazdilar.



Onlayn yig'ilish 2021-yil 23-24 iyun kunlari Nukus shahrida (Qoraqalpog'iston) «Media va turizm: rivojlanishga yangi yondashuvlar» mavzusidagi ikki kunlik amaliy mashg'ulot bilan, shuningdek, 2021-yil 30-iyundan 6 avgustgacha bo'lib o'tadigan turizm va Qoraqalpog'iston madaniy va tabiiy merosi to'g'risidagi media-tarkibni tayyorlash va yaratish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar (onlayn-inkubator) bilan davom etadi.

BMT Taraqqiyot dasturi va YUNESKOning «Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish» Qo'shma dasturi Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik trust fondi moliyaviy ko'magi bilan amalga oshirilmoqda. Dasturning maqsadi — Orol dengizi mintaqasining eng zaif hamjamiyatlarining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorligini ekologik muammolarni kompleks yechimlari orqali bartaraf etish, asosiy xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish, hayot darajasini yaxshilash va Qoraqalpog'istonda barqaror turizmni rivojlantirishdir. Bundan tashqari, dasturning maqsadi Qoraqalpog'istondagi aholi uchun ekologik turizm asosida daromad olish imkoniyatlarini oshirish va Orol dengizi mintaqasidagi turizm sohasining inklyuziv barqaror o'sishiga ko'maklashish orqali qishloq

aholisining, shu jumladan ayollar va yoshlarning ijtimoiy farovonligini oshirishdan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasining strategiyasi maqsadi — turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini ko'tarish, infratuzilmani yaxshilash, yangi sayyohlik yo'nalishlarini yaratish, eksportni oshirish va tashqi turizm bozorlarida targ'ibot ishlarini olib borish, hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan. Strategiyaga muvofiq, bir qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab olindi, deb xabar beradi Madaniyat va turizm vazirligi matbuot xizmati. Unga ko'ra:

Qoraqalpog'iston hududida mehmonxonalar tizimida diversifikatsiya qilish, ya'ni hududda yulduz toifali, shu jumladan, 4 va 5 yulduzli mehmonxona tashkil etish;

mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun transport-logistika tizimini yaxshilash, xususan, mahalliy hamda xorijiy avia/temir yo'l qatnovlarini tashkil etish. Kelgusida Qoraqalpog'istonni mamlakatning turizm shaharlari, jumladan, Xiva, Buxoro va Samarqand shaharlari bilan transport aloqal'arini o'rnatish;

tajriba va bilimga ega bo'lgan ingliz, rus, nemis, fransuz, italyan, turk, ispan tillarida so'zlashuvchi gidlarni tayyorlash, turizm sohasida kasb-hunar va oliy ta'lim sifatini oshirish;

ushbu hududda sayyohlarning qolish davomiyligi (tunash) va ular



tomonidan sarflanadigan xarajatlarni yiliga o'rtacha 7-10 % ga oshirish;

2026-yilga kelib

Qoraqalpog'istonga keluvchi xorijiy turistlar sonini 180 000 (2022-yilda 50 ming) va mahalliy turistlar sonini 1 million nafarga yetkazish (2022-yilda 552 ming), turizm xizmatlari eksportini oshirish. dan 60 million dollarga yetkazish, joylashtirish vositalarida xonalar sonini 1 005 tadan 1 905 taga yetkazish;

Eko, etno, madaniy-tarixiy, ziyorat, arxeologik, gastronomik va safari turizm yo'nalishida yangi mahsulotlar yaratish hamda turistik dasturlar ishlab chiqish; Xorazm viloyati bilan qadimiy qal'alar bo'ylab turizm marshrutini rivojlantirish, Savitskiy muzeyi, Orol dengizi, Sudochoye ko'li va Ustyurt platosi imkoniyatlaridan samarali foydalanish; Marketing choralari ko'rish va xalqaro sayyohlik platformalarida Qoraqalpog'iston turizm mahsulotlarini joylashtirish. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat unumdorligi, ish samaradorligi, innovatsion faoliyati, rentabelligi va foydasi hamda raqobatbardoshligi yanada ortadi. Shu maqsadda Taxtako'pir, Xo'jayli va Ellikqal'a tumanlarida «Qoraqalpog'istonning 7 ta mo'jizasi» turkumidagi hududiy turizm klasterlarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Sayyohlik turlarini ko'paytirish, bunda ziyorat, arxeologik, ekologik, etno, ishbilarmonlik, sport,

gastronomik, tibbiy, ta'lim va ilmiy turizmni rivojlantirish, yangi turizm yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tumanlarning geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi, tarixi, imkoniyatlari va boshqa muhim elementlari o'rganilib, turizmning turlariga ixtisoslashuvi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, Ellikqal'a tumanida tarix va arxeologiyani sevuvchilar uchun Ayoqzal'a qo'rg'oni, Bo'ronqal'a, Burliqal'a, Dumanqal'a, Jeldikqal'a, Kichik Qirqqizqal'a, Qavatqal'a, Tuproqqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Burgutqal'a, Qo'yqirilganqal'a va boshqa joylarga sayohat uyushtirish mumkin. Tuyada hayajonli sayohat qilish va qadimgi Ayoqzal'a xarobalarini ziyorat qilish, Ayoqko'lda cho'milish, motorli qayiqda sayr qilish, mahalliy baxshi va jirovlarning ekzotik folklor kuy-qo'shiqlarini tinglash imkoniyati mavjud. Ellikqal'a tumanida ko'plab diqqatga sazovor tabiiy joylar, o'simliklar dunyosi, flora va fauna mavjudligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishi ekologik va agroturizmni keng yo'lga qo'yishga imkon yaratadi. Ushbu tumanda turizmga noqulay mavsumlarda turli tadbirlar, tanlov va ko'rgazmalar, o'ziga xos festivallar, muayyan sohalar bo'yicha olimlar va tadqiqotchilar uchun ilmiy anjumanlar, ommaviy tadbirlar, ishbilarmonlik turizmini tashkil etish maqsadga muvofiq. Xo'jayli shahrining g'arbiy chekkasida, Ko'hna Urganch shahriga olib boruvchi yo'lning ikki tomoni


bo'ylab tepalikda bepoyon qadimgi Mizdaxqon shahri nishonalari joylashgan. G'arbiy tepalikda joylashgan qadimiy Mizdaxqon shahri miloddan avvalgi IV-III asrlarda paydo bo'lgan. Shuningdek, hududda Mazlumxonsulu maqbarasi, Xalifa Yerejep maqbarasi, Shamu nabi maqbarasi, Aq Xanaqi majmuasi va Jumart qassob kabi obyektlar mavjudligi ziyorat va arxeologik turizmni, qoraqalpoq xalqining o'ziga xos taomlari gastronomik turizmni, mahalliy xalqning yashash madaniyati, milliy urf-odat va udumlari etnografik turizmni rivojlantirishga asos bo'ladi.

the quality management system of tourism services. JournalNX, 492–497.

3. Шермухамедов, А. Т., & Алиева, М. Т. (2019). Туризм вдоль Великого Шелкового пути. In Тенденции и проблемы развития туризма и гостеприимства в XXI веке (pp. 115–125).
4. Aliyeva, M. T. (2007). Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. T.: TDIU.
5. Алиева, М. Т. (2023). Развитие смарт туризма в Узбекистане
6. Mirzaev, M. A., & Aliyeva, M. T. (2011). Fundamentals of tourism. Textbook. Tashkent.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyeva, M. T. (2018). Tourism problems in the Central Asian republics. International Scientific Journal, 67, 30–34.
2. Aliyeva, M. (2019). Application of innovations on the improvement of



Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



Очилова Хилола Фармоновна
доцент кафедры
Туризм, ТГЭУ

Ходжейли – название города на русском языке. В русскоязычных текстах сайта государственной власти Узбекистана используется также вариант Хужайли. Название города в лексическом переводе означает «урочище рода ходжей». В городе расположен некрополь Миздахкан, в мавзолее которого, по среднеазиатской легенде, похоронен Адам - первый человек. Ходжейли - небольшой уютный городок, расположенный на берегу реки Амударьи.

ПОВЫШЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ОСВЕДОМЛЕННОСТИ О ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕСТИНАЦИЯХ ХОЖЕЙЛИ

«Миздакхан». «Миздахкан – древнейший и самый большой некрополь Азии. Занимает около 200 гектаров. По легенде, в Миздахкане находится могила прародителя человечества – Адама. В текстах Авесты упоминается поселение Мазда, построенный богу Ахурамазду. Паломники убеждены, это город Миздахкан. Идея, что Хорезм является родиной зороастризма, не нова. Так считали многие ученые. В том числе известный археолог, руководитель хорезмской экспедиции С.Толстов. В основе гипотезы лежит тот факт, что из 63 культовых памятников

зороастризма, разбросанных по миру, 17 находятся в Миздахкане». Миздакхан – это целый комплекс историко-археологических памятников, расположенных на трех холмах и равнине между ними. Плоская вершина западного холма увенчана руинами крепости Гяур-кала, сооруженной в IV веке до нашей эры и охранявшей мир и покой большого города, некогда существовавшего на восточной холме.

Одним из самых древних и посещаемых паломниками мест Каракалпакии является некрополь Миздакхан – древнее кладбище, расположенное рядом с остатками



крепости Гяур-кала. Название это крепость получила во время завоеваний арабов и в переводе означает Крепость неверных, так как учеными было установлено, что жители крепости до арабского завоевания были зороастрийцами.

На другой, противоположной крепости, холме изначально существовало зороастрийское кладбище, где жители крепости хоронили усопших. Об этом свидетельствуют найденные археологами ассуарии (сосуды для захоронений), а так же нечто, напоминающее дахма – башня с плоской крышей, на которой зороастрийцы оставляли своих умерших. Птицы обгладывали их кости, а родственники собирали их и складывали в ассуарии.

«Гяур-кала». «Крепость неверных» - так переводится название городища Гяур-кала. Эта крепость была построена приблизительно в IV веке до н.э. Её десятиметровые стены впечатляют своей мощью. Они окружают развалины двух цитаделей, которые предположительно могли быть храмом и дворцовыми постройками. Одна из цитаделей могла выполнять функции защитного сооружения и храма. Это не удивительно, так как именно эта местность считается родиной самых древних текстов «Авесты» - Гатов, написанных самим Зараустрой. Многочисленные остатки очагов свидетельствуют, что жители Гяур-

калы были огнепоклонниками – зороастрийцами.

Другая цитадель, по-видимому, была дворцом правителя. Здесь был обнаружен внутренний двор, множество хозяйственных построек, а также жилые помещения, украшенные резьбой и росписями. Археологи нашли здесь и другие остатки предметов роскоши: различные украшения, ткани, украшенные золотым шитьем, и многое другое, что свидетельствовало о том, что здесь проживали представители высшего сословия.

Крепость Гяур-кала стояла на пересечении торговых путей. Недалеко от неё проходила северная ветка Великого Шелкового Пути, что в немалой степени способствовало более длительному существованию городища по сравнению с другими крепостями Древнего Хорезма. Своё название крепость получила после завоевания арабов в начале VIII века. Жители города оказали отчаянное сопротивление завоевателям, и почти в течение века сопротивлялись арабам. Крепость продолжала функционировать вплоть до прихода монгол в Среднюю Азию в 1220 г. Старший сын Чингизхана – Джучи приказал разрушить город до основания. Впоследствии жители города переселились и основали новое поселение недалеко от развалин Гяур-кала. Интересно отметить, что внутри одной



из погребальных оград, кроме погребений были обнаружены шесть кувшинов XIII-XIV вв., внутри которых оказалось 18 куриных яиц – по три в каждом сосуде. На каждом яйце арабская надпись, нанесённая чернилами.

Среди хорезмских святых, пожалуй, наибольший интерес вследствие архаизма основных черт представляет образ покровителя мясников Жумарт. В аспекте генетических связей с домусульманскими культами этот образ по своей выразительности не уступает Амбар-она и Султан Хубби. Но это становится очевидным только после кропотливого сбора отдельных разрозненных сведений о культуре этого святого и о его легендарной истории.

Почти все культовые объекты Миздакхана связаны с числом «семь». Семь куполов, как считается, были возведены в честь семи красавиц — дочерей Шамуна Наби.

У подножия памятника Халифа Ережеп, по преданию, захоронено семь сподвижников пророка. Кроме того, «Ережеп» («Раджаб») одновременно с именем человека обозначает название седьмого месяца в арабском календаре. «Мавзолей Мазлумхан Сулу» расположен в западной части северной половины возвышенности. Памятник находится наполовину в земле. Над землёй возвышались

только купола и портал входа. Вниз, через сводчатый коридор ведёт лестница из портала к маленькому промежуточному купольному сооружению. Отсюда вторая лестница спускается к центральному помещению.

По монетным данным постройка мавзолея датирована первой половиной XIV века. Она связывается с расцветом торговых городов Золотоордынского Хорезма, одним из которых был Миздахкан, оказавшийся на оживлённых путях международной торговли.

Мавзолей привлекает путешественников со всего света не только своей уникальной архитектурой, но и удивительной и в то же время трагичной легендой, связанной с его постройкой. Считается, что мавзолей получил название от имени этой самой девушки – Хансулу. И в некрополе похоронена именно она. Первоначально мавзолей был подземным некрополем. Позднее здесь были произведены другие захоронения. Так, в зале подземного некрополя найдены два захоронения. Но с течением времени портал мавзолея разрушился и мавзолей был отстроен заново, в результате чего были возведены новые наземные сооружения.

Внутренняя архитектура мавзолея представляет собой центральный зал с несколькими глубокими и одной неглубокой



нишами. Западная стена центрального помещения соединена с малым залом огромной аркой, украшенной прекрасными узорами. Восьмигранный купол здания покрыт лазурной краской. Мавзолей Маслумхан-сулу не просто памятник архитектуры, но и великолепный пример того, что может совершить человек ради любви.

Литература

1. Очилова Х. Ф. Узбекистан: теория и практика подготовки кадров для туризма. Научные известия. – М., 2023, № 7, с. 318–323.
Очилова Х. Ф., Макарова Е. Н. International research activities and harmonious development of student's personality. E3S Web of Conferences, 291, 05039 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202129105039>. SDGG 2021, 1–6 с.
2. Баумгартен, Л. В. Маркетинг гостиничного предприятия: учебник для вузов. Москва: Издательство Юрайт, 2021. – 338 с.
Скобкин, С. С. Маркетинг и продажи в гостиничном бизнесе: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва: Издательство Юрайт, 2021. – 197 с.
3. Хендриксон, М. Туризм и устойчивое развитие: вызовы и возможности. Лондон: Издательство Routledge, 2020. – 256 с.
Саидмаматов, О., Матьякубов, У., Руденко, И., & Филимонов, В. Экотуризм в условиях Аральского региона: перспективы и вызовы. Устойчивость, 11(24), 2020. URL: <https://doi.org/10.3390/su11247158>
4. Бекбулатова Г. А., Жолымбетов Б. Пути и возможности развития туризма в Каракалпакстане. Экономика и социум, 2023, №12 (115)-1
5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-vozmozhnosti-razvitiya-turizma-v-karakalpakstane> (дата обращения: 07.05.2024).

Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



QORAQALPOG‘ISTON GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH



Xudoynazarova Sarvinoz Qarshi qizi
«Madaniy meros obektlari muammolarini
o‘rganish va rivojlantirish
«ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch
doktarant

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari tomonidan ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy infratuzilmalar turizm sohasida marketing strategiyalari xususida tadqiqotlar olib borish bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Biroq bizning jamiyatimizda Respublikamizda gastronomik turizm sohasi va umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatish infratuzilmalari, marketing strategiyalari mazkur sohaning yanada rivojlanishidagi roli va ahamiyati yetarli darajada tadqiq qilinmagan.



Qoraqalpog‘iston gastronomik turizm va umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatishning marketing strategiyasini ishlab chiqish, infratuzilmasi faoliyatini o‘rganish va xorijiy tajribalarni qo‘llash hamda sohada mavjud muammolarni echish yo‘llarini tadqiq qilish bugungi kunda dolzarbdir.


Qoraqalpog‘istonda turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma‘muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta‘minlash, uning raqobatbardoshligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish bugungi kunda eng dolzarb maqsadlarimizdan biridir.

Bugungi kunda xizmatlar sohasiga katta e‘tibor qaratilmoqda, jumladan, Qoraqalpog‘istonda ham ushbu sohada prognozlar natijasida jadal o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval. Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m hisobida taqsimlanmaydigan hajmlarni qo‘shgan holda.

Hududlar	2020	2021	2022	2023 q1	2023 q2	2023 ^{q3}	2023 ^{q4}
O‘zbekiston Respublikasi	219 978,5	284 388,1	366 891,0	96 758,0	212 840,6	329 201,5	470 286,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 520,3	8 458,4	10 595,3	2 712,7	5 794,6	9 015,1	12 876,6

Ushbu jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, xizmat ko‘rsatish sohasining yillik o‘sish sur‘atlari yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda aholining farovon va qulay sharoitda hayot kechirishlari uchun xizmatlar sohasida bir qator qulayliklar ta‘minlab berilmoqda. Natijada mamlakatimizning qishloq





joylarida servis infratuzilmasining rivojlanishi evaziga qishloq aholisining yashash tarzi shahar aholisining yashash tarziga yaqinlashmoqda. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining 80,4 mingtasini yoki 81%i aynan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritmoqda.


Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-aprel kuni hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Xizmat ko'rsatish sohasi keng qamrovliligi bilan iqtisodiyotda, aholi hayotida muhim o'rin tutadi. Bu sohada yangi ish o'rinlarini kam xarajat bilan va tez muddatda tashkil etish mumkin. Aholi daromadlarining real o'sishi ham avvalo xizmatlar rivojida seziladi. Yig'ilishda Prezident har bir loyiha ijrosini nazoratga olib, tadbirkorlarga ko'maklashish, shu bilan birga, yangi loyihalarni shakllantirib borish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Respublikaning zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichidayoq iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari — mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, narxni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, moliya va kredit tizimida islohotlar o'tkazish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish kabilar bilan bir qatorda bozor infratuzilmasini shakllantirish birinchi darajali vazifa sifatida belgilab olindi. Mamlakatda bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi:

bozor ishtirokchilari o'rtasidagi bevosita xo'jalik aloqal'arini har tomonlama rivojlantirish;


bozorning mavjud turlarini rivojlantirib, yangi joylarni barpo etish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor mexanizmlarining samarali amal qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar, jumladan, bozor infratuzilmalari shakllantirilmoqda va uzluksiz takomillashtirib borilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro turizm marketingi jarayonida uning elementlari muhim ahamiyatga ega. Endilikda bu marketing elementlari gastronomik turizm marketingi elementlari bilan bog'lanib, bu sohadagi strategik va taktik





maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan majmua faoliyatidan iborat bo'lib, uning tarkibiy bo'g'inlari 1-chizmada tasvirlangan.



1.2-Jadval. Xalqaro turizmga gastronomik turizmning asosiy elementlari.

Xalqaro gastronomik turizmga marketingning elementlari xar birini mazmuni turmahsulotni istemolchigacha etkazish bilan bog'liq bo'lgan muamolarni ketma-ket hal qilish bilan ta'riflanadi.

U yoki bu elementlar bilan etibor berish darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Soha marketing bo'limlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida shu narsa ayon bo'ldiki xalqaro gastronomik turizm marketingi elementlaridan qaysi biriga birinchi navbatta etiborni qaratasiz degan savolga, so'ralganlarning aksariyati ya'ni 76 foizi tur mahsulotni sotish masalasi biz uchun muhimdir, deya javob berishdi va bu yerda avvalo, tur mahsulotlarni va reklani amalga oshirish (84 foiz) muhimdir deb javob berishgan. Shu bilan bir vaqtda xalqaro turizmning hozirgi zamon marketingida umumiy maqsad turmahsulotlarni istemolchiga etkazish bo'lganligi uchun ham uning elementlariga e'tibor u yoki bu darajada bo'lishi mumkin va bu elementlar xam doim bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi.

Gastronomik turizmga strategik marketing – bu, avvalo, jismoniy shaxslar va tashkilotlar ehtiyojlarining tahlilidir. Marketing nuqtayi nazaridan qaraganda xaridor tovarning o'ziga emas, balki shu tovar yordamida yechiladigan muammoning hal qilinishiga muhtojdir. Yechimga turli texnologiyalar yordamida erishiladi, texnologiyalarning o'zi esa tinimsiz o'zgarib turadi. Strategik marketingning roli berilgan bozorning evolutsiyasini kuzatib borish va qondirishga muhtoj ehtiyojlarni tahlil qilish asosida turli mavjud yoki kutilayotgan bozorlarni yoki ularning segmentlarini aniqlashdan iborat.¹

Aniqlangan tovar bozorlari iqtisodiy imkoniyatlarni ifodalaydi, endi ularning jalb qiluvchanligini baholash kerak. Tovar bozorining jalb qiluvchanligi miqdoriy jihatdan bozor salohiyati bilan o'lchanadi, dinamik jihatdan esa o'zining mavjnci bolish muddati bilan yoki hayot davri bilan xarakterlanadi. Miuyyan firma uchun tovar bozorining jalb etuvchanligi uning raqobatbardoshligiga, boshqacha

¹ Sh.DJ. Ergashxodjayeva. Strategik marketing. O'quv qo'llanma. Toshkent-2014.



qilib aytganda, xaridorlarning ehliyojlarini raqiblariga qaraganda yaxshiroq qondira olish qohiliyatiga bog'liq. Firmaning raqobatbardoshligi uning raqobatli ustunlikka ega bolishi yoki uning raqiblaridan ajralib turuvchi sifatleri tufayli yoxud xarajatlar bo'yicha afzallik beruvchi yuqori ishlab chiqarish samaradorligi tufayli mavjud bo'ladi.

Gastronomik turizmدا inavatsiyalar marketingi—bu turizm xizmatleri bozorining talablarini xisobga olgan xolda tarmoqni samarali yangilashni taminlash uchun, muayyan yangi xizmatlar turlarini, inavatsion dasturlarni yaratish va amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha muamolarni tijorat va ijtimoiy tadqiq etish yuzasidan chora tadbirlar to'plamidir.

Inavatsiyalar marketingida ijtimoiy ma'suliyat tamoyilidan foydalanish uni ko'p maqsadli tadqiqotlarga yo'naltiradi, ular tijorat ta'sirlari va samaralari, ko'rsatgichlarining axborot taminoti bilan cheklanib qolmaydi, balik inavatsion faollikni va jalb qilinganligini rag'batlantirish imkoniyatlarini o'rganish ilan bog'liq bo'ladibu esa inavatsion dasturlarning inavatsion siyosatiga, ijtimoiy extiyojlarga muvofiqiligini, ijtimoiy qadryatlar va ananalarni xisobga olgan xolda, ta'minlaydi.²

Gastronomik turizmда innovatsion marketing — bu innovatsion dasturlarni amalga oshirish sohasida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish maqsadida innovatsiyalarni amalga oshirishning tijorat va ijtimoiy muammolarini kompleks va tizimli tadqiq qilishni ta'minlaydi va innovatsiyalarni boshqarishning axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi. Gastronomik turizmда innovatsion marketing tashkiliy-boshqaruv o'zgartirishlari, biznes-jarayonlarni qayta injiniring qilish, zamonaviy dasturiy tizimlar va AT-echimlarni joriy qilish vazifalariga e'tibor qaratadi. Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar zamonaviy axborot-kommunikatsion resurslardan foydalanish hisobiga transport xizmatleri faoliyatining unumdorligini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 2, 2016, on the organization of the State Committee for Tourism Development of the Republic of Uzbekistan.
2. Данилов С. Туризм со вкусом узбекского риса. Ташкент, 2013 г. Баумгартен, Л. В. Маркетинг гостиничного предприятия: учебник для вузов. Москва: Издательство Юрайт, 2021. – 338 с.
3. Скобкин, С. С. Маркетинг и продажи в гостиничном бизнесе: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва: Издательство Юрайт, 2021. – 197 с.
4. Очилова Х. Ф., Умирова Д. С. Гастрономический туризм: теория и практика. Учебник. Москва, Берлин, 2021. – 6 п.

² Кучко, Е.Е.Иновациялар социологияси/Е.Е Кучко: БГУ: taqrizchilar sotsiologik fanlar doktori, professor A.N.Danilov,sotsiologik fanlar doktori, professor D.G. Rotman-Минск: Нуқуқ ва iqtisodiyot, 2009-340 б.



Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TURIZM XIZMATLAR BOZORINING MARKETING MUHITI TAHLILI

Kusekeyev Bayram Kallibekovich

Qoraqalpoq davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Turizm marketingi har bir mamlakat yoki hududning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Marketing orqali potensial turistlar hududning nimalarni taklif eta olishini bilib, u yerga sayohat qilish istagini paydo qiladilar. Bozorni rejalashtirish esa turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ushbu mahsulotning talabga mos ravishda shakllantirilishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, marketing va rejalashtirish o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birgalikda turistlarni jalb qilish va turistik xizmatlarni muvaffaqiyatli taqdim etishga ko‘maklashadi.

Marketing faoliyati ko‘plab yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bularga marketing maqsadlarini belgilash, marketing strategiyasini ishlab chiqish, reklama va axborot dasturlarini yaratish va amalga oshirish, shuningdek, turistlar uchun ma‘lumot xizmatlarini tashkil etish kiradi. Turistik mahsulotning xizmat ko‘rsatishning umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha ta‘riflash mumkin:

- turistik mahsulot turli komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning murakkab tizimi bilan tavsiflanuvchi tovar va xizmatlarning majmuasidir;
 - turistik xizmatlarga bo‘lgan talab narx bo‘yicha juda ham qayishqoq bo‘lib qator ijtimoiy-siyosiy omillarga bog‘liq bo‘ladi;
 - turistik xizmat taklifi qayishqoq bo‘lmaganligi bilan ajralib turadi, ya‘ni turistik resurs bevosita joylashgan o‘rnida iste‘mol qilinishi mumkin;
 - turistik mahsulot fakat iste‘mol qilish davrida namoyon bo‘ladi, iste‘molning o‘zi ham bevosita turistik mahsulot ishlab chiqarilgan joyda amalga oshiriladi;
 - turistik mahsulotni xossalari muhimligi bo‘yicha tavsiflab bo‘lmaydi, chunki iste‘moli, taassurotlari kompleks ravishda namoyon bo‘ladi, ularga subyektiv omillarning ta‘siri kuchli bo‘ladi. Marketing yo‘nalishining boshlang‘ich bug‘ini bozor imkoniyatlarini aniqlash bilan bog‘liqdir.
- Korxonalar tahlili – bu firma strategiyasini ishlab chiqish uchun juda muhim va murakkab jarayondir. Muhitni bilmasdan korxonalar mavjud bo‘la olmasligi muqarrar. U o‘zining



maqsadlari yo'lida muvaffaqiyatli siljishlarni ta'minlash uchun muhitni o'rganadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelgan. Turizm rivojlanishi bevosita marketing faoliyati bilan bog'liqdir. Bugungi kunda mahalliy turistik korxonalarimizda marketing faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslanib rivojlanayotgan mamlakatlarda marketing mustahkam pozitsiyani egalladi. Hozirgi kunda ko'plab marketing xizmati, marketing va konsalting firmalari mavjud. Uzoqni ko'zlovchi tadbirkorlar va menenjerlar marketingning biznesdan ajralmasligini va raqobatlar mavjud bo'lgan sharoitda uning roli beqiyos ekanligini yaxshi tushunishadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, turizm faoliyati jahon iqtisodiyotining tez sur'atda o'sib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning o'sish sur'ati ancha ilg'or bozorlardan kam emas. Raqobat kurashining kuchayishi bilan turizm bozorida o'zgarishlar dinamikasining oshishiga sharoit yaratildi. Natijada, kelajakni oldindan ko'ra bilish qiyinlashib, tavakkalchilik omilining xavfi ortib, qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar yetishmasligi va ushbu axborotlarga ega bo'lish uchun sarflanadigan xarajatlarning samarasiz bo'lish ehtimoli ortdi.

Turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi ayirboshlash savdo shaklida amalga oshiriladi. Bu esa marketingning

turistik korxonani ko'plab iste'molchilarning doimiy ravishda o'zgarib turadigan talablarining qondirilishiga yo'naltirishdan dalolat beradi. Bir so'z bilan aytganda, turizm marketingi shunday boshqaruv falsafasidirki, unda iste'molchilar muammolari va ularning talablari samarali qondiriladi. Bu esa firmaning muvaffaqiyat qozonishiga olib keladi va bu o'z navbatida jamiyatga foyda keltiradi.

Marketing alohida xo'jalik yuritish subyektlari darajasida ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarni qondira oladigan tovarlar xilma-xilligiga erishishni ta'minlovchi, mahsulotlarning hajmi, tanlangan bozorlararo taqsimlanishi, sotuvni va narxni rejalashtirishning yaxlit tizimidir. Demak, marketing – bu turistik korxonaning mijozlar uchun faoliyat yuritishidir.

Turizm marketing bilan shug'ullanishdan oldin turistik talabning o'ziga xosligi va uning omillari bilan chuqurroq tanishish lozim bo'ladi. Tor ma'noda turistik bozor deganda, turistik mahsulot oldi-sotti bitimlari yuz beradigan joy tushuniladi. To'laroq tavsif beradigan bo'lsak, turistik bozor deganda turistik mahsulot sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladigan va turistik mahsulot sotilishi yuz beradigan soha tushuniladi.

Shunday qilib, turizm sohasini rivojlantirish jarayonida marketolog, uning tashkiloti bozor talablariga qanchalik moslashganini, uning faoliyatini qanday va nima hisobidan yaxshilash mumkinligini, buning uchun nima qilish kerakligi kabi qator



savollarga javob topishi kerak. Bunda boshlang'ich muammo tashkilot ichki faoliyatini bozor talablariga muvofiqligini ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va o'sishi sharoitida tadbirkor bozor talablariga mos harakat qilishga majbur, iste'molchilar talabini hisobga olishi, raqobat kurashi uslublarini o'zlashtirishi, tovarni sotish va siljitishda marketing instrumentlarini qo'llash, tijorat faoliyatida marketing strategiyasiga tayanishi kerak.

Ipak yo'li yo'nalishlari, jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva o'zining boy tarixiy merosi va keng qamrovli sayyohlik xizmatlari bilan sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Toshkentdan ushbu manzillarga yetib borish uchun davlatimiz tomonidan havo va temir yo'l transportlarida qulay sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga, barcha hududlarda turizm infratuzilmalari birdek rivojlantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, har bir mintaqaning o'ziga xosliklari va imkoniyatlarini yanada ochib beradi.

Qoraqalpog'istonning keng cho'l manzaralari, qadimiy Xorazmning noyob arxeologik yodgorliklari, dunyoga mashhur Savitskiy muzeyi, asosiy manzillardan biri bo'lgan Orol dengizi, shuningdek, Ellikqal'a qo'rg'onlari va qadimiy Mizdaxqon shahar xarobalari bu hududning o'ziga xos boy madaniy va tabiiy merosini namoyon etadi. Ushbu yo'nalishlar har bir sayyoh uchun unutilmas taassurotlar taqdim etadi va turizm sohasida yangi ufqlarni ochadi. Qoraqalpog'iston turizmi boshqa yo'nalishlar bilan raqobatda o'zining noyob madaniy merosi va tabiiy

resurslari bilan katta imkoniyatlarga ega. Sayohatchilarni jalb qilish strategiyasini yanada kuchaytirish uchun hududlararo hamkorlikni rivojlantirish va yangi imkoniyatlar yaratishga e'tibor qaratilishi zarur. Masalan, uzoq muddatli turistik xizmatlar yoki maxsus takliflar orqali sayohatchilar uchun o'ziga xos yo'nalishlar yaratish katta istiqbolni ta'minlaydi.

Qoraqalpog'iston turizmining kelajagi – sayohatchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos turistik xizmatlarni taklif etish bilan bog'liq. Mavjud turistik imkoniyatlarni yanada boyitish, yangi xizmat turlarini joriy qilish va ularni qulay sharoitlarda taqdim etish bu yo'nalishda muvaffaqiyat garovidir. Masalan, tashrif buyuruvchilar qora uy lagerlarida tunashni xush ko'rishlari mumkin, lekin qulayroq sharoitlarni izlashadi. Shu sababli, xalqaro tendensiyalar, xususan, «glamping» tajribasini joriy etish orqali, an'anaviy lager tajribasini zamonaviy qulayliklar bilan uyg'unlashtirish katta qiziqish uyg'otadi.

Shu tarzda, Qoraqalpog'iston turizmi madaniy va ekologik turizmni yuqori darajadagi xizmatlar bilan birlashtirishi mumkin. Bu sayohatchilarga madaniy tajribani boyitgan holda, qulaylik, komfort va estetika bilan ta'minlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv Qoraqalpog'iston turizmini barqaror rivojlantirish va global turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam asos bo'ladi. Yaqin kelajakda turizm xizmatlar bozorining quyidagi rivojlanish strategiyasini belgilash rejalashtirilmoqda:



Turizm sohasidagi xizmatlar narxini turistlar uchun maqbul darajada saqlab, turizm industriyasi uchun ham foyda keltiradigan muvozanatni ta'minlash.

Investitsiya qilishda atrof-muhitni himoya qilish masalalarini, jumladan, qurilish va arxitektura bilan bog'liq ekologik jihatlarni hisobga olish. Turizm sanoatida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompaniyalarning 90 foizi ish faoliyatining muvaffaqiyatini foyda normasiga bog'laydi. Ya'ni, sarflangan kapitalga to'g'ri keladigan daromad hajmi ularning asosiy ko'rsatkichidir. Mehmonxonalar uchun oliy maqsad

sifatida xizmat va mahsulot sifatini oshirish, bozor ulushini kengaytirish, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish va raqobat sharoitida ustunlikka erishish talablari dolzarbdir.

O'tkazilgan SWOT tahlil asosida ma'lum bo'ldiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida sayohatchilar uchun yetarli sharoitlar va chet tillarni biladigan malakali xodimlar yetishmovchiligi mavjud. Shu bois, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash muhim vazifadir. Ushbu chora-tadbirlar davlat va mahalliy hokimiyatlarning qo'llab-quvvatlashi bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur yondashuv hududning turizm salohiyatini kuchaytirib, milliy va

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi turizm xizmatlar bozorining SWOT tahlili.

KUCHLI TOMONLARI	KUCHSIZ TOMONLARI
<ul style="list-style-type: none"> • Qoraqalpog'istonga talabning o'sishi • Ajoyib tabiat manzarasi; • O'ziga xos madaniyati; • Turmahsulotini ilgarilatish imkoniyatlarining kengayib borayotganligi; • Mo'ynoq, Ellikqal'a, Taxtao'pir tumanlarida ekologik turizmni tashkil etish uchun qulay sharoitlarning mavjudligi; • Oq ko'ngil mahalliy aholi; • Dunyo e'tiboridagi Orol dengizi; • Markaziy Osiyoda yagona dunyoga mashhur Savitskiy muzeyi; • Arxeologik manzillarning konsentratsiyasi 	<ul style="list-style-type: none"> • Joylashtirish vositalaridagi xizmat ko'rsatish narxga nisbatan mutanosib emasligi; • Arxeologik turizm obyektlarining tanishuv uchun moslashtirilmaganligi; • Turistik obyektlarning bir biridan uzoqda joylashganligi; • Turizm sohasi ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organlarning zaifligi; • Xonalar sig'imligi va transport aloqal'arining cheklanganligi; • Xalqaro bozorlarga til biladigan mutaxassislarning yetishmasligi
IMKONIYATLAR	TAXDIDLAR
<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekistonga talabning ko'payishi sababli Qoraqalpog'istonga ijobiy ta'siri; • Yangi, tanish bo'lmagan manzillarga talabning ko'payishi; • Rang-barang tabiat-resurs salohiyati; • Xorazm bilan sherikchilik; • Hukumat va donorlarning Orol bo'yi hududlarini qo'llab-quvvatlashga qiziqishi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Turizmda kuchayotgan raqobat; • Kuchli iqlim o'zgarishi sababli turizmning mavsumiyligi; • Arxeologik obyektlarning buzilishi; • Madaniy meros obyektlari atrofida yomon gigiyena standartlari.




xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Buning uchun hududdagi turistik faoliyat puxta o'ylangan marketing siyosatiga asoslangan bo'lishi mumkin. Zero, aniq maqsadni ko'zlagan va resurslar bilan ta'minlangan hududiy iqtisodiy siyosat turizm salohiyatiga salbiy ta'sir etuvchi aksariyat zaif nuqtalarni bartaraf etishi mumkin. Hududning turizm xizmatlari bozorining SWOT tahlili hududning turizm salohiyatini takomillashtirib borish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki imkoniyatlar va afzalliklarini o'stirish va kuchaytirish kerak, tahdidlar va kamchiliklarni kamaytirib, ularning salbiy ta'sirini yo'qotish yoki o'z kuchli tomonlariga aylantirish kerak.

Jahon turizm bozorlariga kirib borish strategiyasining yo'qligi yoki talab doirasida ishlab chiqilmagan strategiyani biz hududning kuchsiz tomonlari deb baholadik, ya'ni qaysidir sohani rivojlantirish rejasi bo'lmasa u soha xarakatlana olmaydi. Yangi bozorga chiqish uchun esa shu bozorni o'rgangan holda shu holatga moslab strategik reja ishlab chiqish kerak. Qoraqalpog'iston o'zini katta tajriba va yuqori sifatli xizmatlarni taklif etuvchi ekoturizm yo'nalishida tadbiq etish orqali o'ziga xos imidj va brend yaratishi kerak. Hukumat va xalqaro donor tashkilotlarning mablag'lari o'ziga xos brendni yarata oladigan marketing bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish uchun ajratilishi kerak. Faqat brend identifikatori asosida marketing faoliyatida natijaga erishish va samarali rivojlantirish mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11-сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-300-сон қарори. URL: <https://lex.uz/docs/6600390>
2. Саидмаматов Олимжон, Матъякубов Умиджон, Руденко Инна, ҳам Филимонов Вячеслав. (2020 йил, ноябрь). Аралбойы аймағында турақлылық учун экотуризм имкониятларидан фойдаланиш: Келешак ва муаммолар. Турақлылық, 2019, 11(24), 7158. URL: <https://doi.org/10.3390/su11247158>
3. Николь Хойслер ва Хендрик Винтъен. (июнь 2023). Стратегия устойчивого развития туризма в Республике Каракалпакстан.
4. Бекмуродов А. Ш. ва бошқалар. Хизматлар маркетинги. Ўқув қўлланма. Тошкент, ТДИУ, 2010 й.
5. Қорақалпоғистон Республикаси Туризм бошқармаси маълумотлари.






Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



QORAQOLPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA CHO‘L TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI



Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Turizm kafedrasida dotsenti

Baxromov Akmal Abduvahid o'g'li
Turizm kafedrasida katta o'qituvchisi



Butunjahon iqlim o'zgarishi dunyo bo'yicha haroratning uzoq muddatli o'zgarishi ya'ni ob-havo sharoitlarining keskin issiq yoki sovib ketishi oqibatida ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan bugungi kundagi iqlim o'zgarishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Misol tariqasida UNEP, BMT, UNDP, UNICEF va boshqa tashkilotlarini misol tariqasida keltirish mumkin. So'nggi yillarda eng muhim ekologik muammolardan biri suv bilan bog'liq. Global isish natijasida suv bilan bog'liq muammolar oqibatida hududlarda cho'llashuv yuzaga kelmoqda.



BMTning ta'rificha, cho'llashuv — hudud biopotensialining kamayishi yoki buzilishi bo'lib, bundan keyin cho'l sharoitlariga o'xshash sharoitlarning vujudga kelishiga imkon beradi. UNEPning baholashicha, cho'llashuv natijasida qishloq xo'jaligiga har yili 26 milliard dollarlik zarar yetkaziladi. BMTning boshqa bir tashkiloti — Cho'llashuv bo'yicha dastur faoliyatini nazorat qilish markazining baholashicha esa qishloq xo'jaligi bir yilda cho'llashuv natijasida 21 million gektar qishloq xo'jaligida lalmi va qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan yerlarni yo'qotadi.

Hududlarning cho'llashuvi yerlarning degradatsiyasi oqibatida yerlardan foydalanish yoki tuproqlarning shamol va suv eroziyasi, fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalarning yomonlashuvi kabi jarayonlar va tabiiy o'simliklarning uzoq muddatga yo'qolishiga sabab bo'ladigan hatti-harakatlar tufayli sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlarning yoki yaylovlar va o'rmonlarning biologik va iqtisodiy mahsuldorligi kamayishiga yoki to'liq yo'qolishiga olib keladi. Cho'llashgan hududlarning tuproqlari kam hosildorligi bilan farq qiladi. Kam va o'zgaruvchan yog'inlar bilan birgalikda, bunday cho'llashgan hududlarda biologik mahsuldorlik gektariga 400 kilogrammdan oshmaydi. Iqlim sharoitlariga mos holda cho'llar (muzlik sahrolari bilan birgalikda) jahonda 48 million km² atrofidagi maydonni egallaydi.

Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, uzoq muddat takrorlanmaydigan jarayon cho'llashuv deb ataladi, boshqa olimlar esa bu fikrni inkor qilishadi. R. Nelsonning ta'kidlashicha, cho'llashuv ko'pincha inson faoliyati

bilan bog'liq bo'lsa, C. Agnew cho'llashuvni iqlim o'zgarishlari va asosan inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan degradatsiya bilan bog'laydi. Misol uchun, bir necha yuz ming yil oldin Sahroi Kabir o'rnida savanna, Amazonka junglilari o'rnida esa cho'l bo'lgan. Cho'llashuvni noto'g'ri talqin qilish natijasida hosildorroq yerlarga cho'lning bosib kirishi deb tasavvur qilish ham mavjud. 1994 yilda qabul qilingan Cho'llashuvga qarshi kurash bo'yicha Xalqaro Konvensiya esa cho'llashuvni iqlim tebranishi va inson faoliyatidan kelib chiqadigan turli omillar natijasida qurg'oqchil hududlarda yerlarning degradatsiyasi deb ta'riflaydi. Dunyo bo'yicha cho'llar turli xil turlarga ajratiladi va ular geografik joylashuvi, iqlimi va boshqa xususiyatlariga ko'ra to'rt asosiy turga tasniflanadi:

Issiq va quruq cho'llar:

Ushbu cho'llarda kunduzi yuqori harorat, kechasi esa sovuq bo'ladi, bu esa haroratning ekstremal o'zgarishiga sabab bo'ladi

Yog'ingarchilik minimal va tartibsiz, odatda yillik yog'ingarchilik miqdori 250 millimetrdan kam bo'ladi.

Masalan: Afrikadagi Sahroi Kabir, O'rta Osiyodagi Arabiston cho'li va Shimoliy Amerikadagi Mojave cho'llari. Sovuq cho'llar:

Sovuq cho'llarda past harorat kuzatiladi, ayniqsa qish oylarida kunduzi va kechasi orasida keng harorat farqi mavjud bo'ladi

Yog'ingarchilik asosan qor ko'rinishida bo'ladi va yomg'ir kamdan-kam hollarda yog'adi.

Masalan: Osiyodagi Gobi cho'li va Shimoliy Amerikadagi Buyuk havza sahrosi.

Qirg'oq cho'llari:

Ushbu cho'llar salqin okean



oqimlari tufayli quruq sharoitlar yaratadigan qirg‘oq mintaqal’ari yaqinida joylashgan.

Okean ta’siri tufayli boshqa turdagi cho’llarga qaraganda yumshoqroq haroratga ega bo’ladi.

Semiarid cho’llar:

Bu cho’llar yarim quruq sharoitlarga ega bo’lib, yog‘ingarchilik boshqa cho’llarga qaraganda biroz ko‘proq bo’ladi. O‘simliklar quruq sharoitlarga moslashgan va bu cho’llarda odatda yarim quruq iqlim hukm suradi

Yog‘ingarchilik past, ko‘pincha tuman yoki muz shaklida bo’lib, vaqti-vaqti bilan yog‘ingarchilik bo’ladi.

O‘simliklar okeandan keluvchi tuz sepish va namlikka bardosh berishga moslashgan.

Masalan, Janubiy Amerikadagi Atakama cho’li va Afrikadagi Namib cho’llari shunday cho’llardandir. «Semiarid cho’llar»ning o‘ziga xos hususiyatlari:

Bu cho’llar cho’l va nam muhitlar o‘rtasidagi o‘tkinchi zonalarga ega bo’lib, kamroq ekstremal sharoitlarni boshdan kechiradi.

Issiq cho’llarga qaraganda biroz ko‘proq yog‘ingarchilikka ega, ammo hali ham uzoq vaqt qurg‘oqchilik davom etadi.

O‘simliklar boshqa cho’l turlariga qaraganda xilma-xil bo’lishi mumkin.

O‘tloqlar, butalar va vaqti-vaqti bilan daraxtlar mavjud. Bunday cho’llarga Shimoliy Amerikadagi Sonoran cho’li va Afrikadagi Kalahari cho’li misol bo’la oladi.

O‘rta Osiyo hududida joylashgan O‘zbekiston, ko‘pincha Qozog‘iston yoki Turkmaniston kabi mintaqadagi boshqa davlatlar singari cho’llari bilan mashhur emas. Biroq, O‘zbekiston ham quruq va yarim quruq iqlim sharoitlariga ega bo’lib, cho’l sharoitlari ustunlik qiladi. O‘zbekistonning e’tiborga sazovor cho’l hududlaridan biri Qizilqum cho’lidir. Turk tillarida «Qizil qum» deb tarjima qilingan bu cho’l O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston bo‘ylab tarqalgan. Markaziy Osiyodagi eng yirik cho’llardan biri bo’lgan Qizilqum cho’li qariyb 298 ming kvadrat kilometr maydonni qamrab oladi. Cho’l keng qumli cho’llar, toshloq erlar va kam o‘simliklar bilan ajralib turadi. Quruq sharoitlariga qaramay, cho’l o‘zining o‘ziga xos florasi va faunasini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu hududda cho’lga moslashgan o‘simliklar va hayvonlar yashaydi, jumladan sudralib yuruvchilar, kemiruvchilar, hasharotlar va qushlar. Qizilqum cho’li dunyo bo‘yicha ko‘p tanilmasa-da, Markaziy Osiyoning muhim ekotizimlaridan biri hisoblanadi.¹

1. Qizilqum. Qizilqum cho’li qumtepa tizmalari bilan ajralib turuvchi, qumli va toshloq cho’l bo’lib, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. O‘zbekiston hududida katta maydonni egallagan bu cho’l shimoli-g‘arbda Orol dengiziga tutashib, shimoli-sharqda Tyan-Shan tog‘ tizmalariga yetib boradi. Cho’lning umumiy maydoni uch yuz ming kvadrat kilometr ga yaqin. Bu sahroda sut emizuvchilardan jayron, dasht mushuklari, qo‘shoyoqlar, tulki, bo‘ri, quyon va ko‘rshapalaklar yashaydi. Qushlardan drof, burgut va boyqushlarni uchratish mumkin. Ilonlar, kaltakesaklar kabi sudralib yuruvchilar ham cho’lning doimiy aholisi hisoblanadi. O‘zbekistondagi cho’llarning turizm imkoniyatlaridan

¹ Olimjon Bahodir o‘g‘li Ozodqulov «O‘RTA OSIYODA CHO’L MINTAQASINING EKOLOGIK OQIBATLARI» Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti. 2022-yil



foydalanish bo'yicha bir qator misollar mavjud. Masalan, Navoiy viloyatida turistlar uchun dam olish maskanlari mavjud bo'lib, u yerda uylar yollash, tuya minish va tuya sutini tatib ko'rish mumkin. Shuningdek, Buxoro viloyatida tabiiy tuz va qumni qayta ishlash markazi faoliyat ko'rsatadi. Bu markazda tabiiy tuz va qumdan foydalangan holda davolash muolajalari amalga oshiriladi va ilon bilan tayyorlanadigan shifobaxsh taomlar taklif etiladi.

2. Orolqum. Afsuski, tabiat shafqatsiz bo'lishi mumkin, chunki bir vaqtlar ulkan Orol dengizi joylashgan hududda yangi cho'l – Orolqum paydo bo'ldi. Bu qumli va sho'r cho'l O'zbekiston va Qozog'iston hududida joylashgan bo'lib, tuz miqdori ko'pligi sababli o'ziga xos oq rangga ega. Orolqumning maydoni kengayishda davom etmoqda va bugungi kunda 38 ming kvadrat kilometrga yetdi. Cho'lning o'simlik va hayvonot dunyosi qisqarib bormoqda, chang bo'ronlari yiliga yuz million tonnaga yaqin zaharli chang va tuzlarni bir joydan boshqa joyga olib ketadi. Yillar davomida bu mintaqadagi ekologik vaziyat yomonlashgan va aholi orasida nafas yo'llari bilan bog'liq muammolar ko'paygan.

Shunga qaramay, Mo'ynoq tumanida joylashgan Orolqum o'zining o'ziga xos rangi va qurigan dengizdan qolgan tarixiy nishonalari bilan ko'plab turistlarni jalb qilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida bugungi kunda Orol dengizining boy tarixi bilan bog'liq bo'lgan muzey va kemalar qabristoni saqlanib qolgan. Bir vaqtlar qirg'oq bo'yidagi shahar o'zining porti va baliqchilik sanoati bilan mashhur bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda

shaharda dengiz hayotidan faqat izlar qolgan. Qurigan Orol dengizi o'rnida qolib ketgan baliq ovlovchi kemalar endi zanglagan kemalar qabristoniga aylangan. Orolqum cho'li orqali Orol dengizining sohiliga ham chiqish mumkin. Bu hududga ko'plab turistlar ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va mintaqaning ekologik o'zgarishlarini o'rganish maqsadida tashrif buyurmoqda.

3. Ustyurt

platosi. O'zbekistonning sirli va g'ayrioddiy joylaridan biri — Orol dengizi va Amudaryo deltasi oralig'idagi Ustyurt platosi bo'lib, mamlakatning g'arbiy qismini egallaydi. Bir paytlar bu yerlarda jahon okeani bo'lib o'tgan, ammo okean orqaga chekinib, orqasida jonsiz, suvsiz va o'simliksiz plato qoldirdi. Ustyurtning umumiy maydoni taxminan 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi va bu yer gilli va gilshag'alli cho'l hisoblanadi. Ba'zan platoda tog' tizmalari, tik qoyalar, ohaktosh jinslari va yer yuzidagi yoriqlar uchraydi. Aynan mana shu noodatiy tabiiy manzaralarni ko'rish uchun ham sayyohlar bu hududga tashrif buyurishadi.

Qoraqalpog'istonning cho'llashgan hududlarida yo'qolib borayotgan flora va fauna dunyosini asrab qolish maqsadida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi, Fransiya taraqqiyot agentligi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining qo'shma tashabbusi bilan tayyorlangan «Iqlim o'zgarishi bo'yicha davlat xarajatlari tahlili va institutsional baholash: O'zbekiston» (CPEIR) nashr etildi. Bu tashabbus mamlakatning iqlim o'zgarishiga



moslashuvini va Davlat byudjetidagi aksini tahlil qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston hukumati iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha milliy siyosat va rejalarini takomillashtirish bo'yicha izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha Strategiya kabi muhim hujjatlar qabul qilingan. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish Strategiyasi (2022–2026) ham iqlim o'zgarishiga qarshi kurash maqsadlariga moslashtirilgan.

Strategiyada belgilangan 100 ta yuqori darajadagi maqsadlardan ikkitasi (24-maqsad va 80-maqsad) iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashish bilan bevosita bog'liqdir. Qoraqalpog'istonda cho'l hududlarida saksavul kabi cho'l o'simliklarini ekish va parvarishlash bo'yicha maxsus tadbirlar amalga oshirilmogda. Ushbu choralar hududning qisman yashil hududga aylanishiga xizmat qilishi bilan birga, turistlar sonining ortishi orqali aholi orasidagi iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni qisman hal qilish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istondagi cho'l hududlarida safari turlarini targ'ib qilish orqali cho'llarda sarguzasht, yolg'izlik va tabiiy go'zallikka intilayotgan sayyohlar uchun noyob va unutilmas tajriba taqdim etish mumkin. Cho'l lagerlarini tashkil etish, cho'llarning o'ta og'ir sharoitlariga moslashgan noyob flora va faunani o'rganish, ekoturizmni muhofaza qilish ishlari hamda barqaror amaliyotlarni yo'lga qo'yish orqali mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, kinomatografiya sohasi

bilan hamkorlik qilish ham turistlarni jalb qilishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining Turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 545-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6212913>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida» 362-sonli qarori, 11.08.2023-yil. <https://lex.uz/uz/docs/-6565975>
3. Olimjon Bahodir o'g'li Ozodqulov. «O'rta Osiyoda cho'l mintaqasining ekologik oqibatlarini», Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, 2022-yil.
4. Allayarov, S. F. «The Definition of Rural Tourism and Its Features.» Faculty of Tourism and Economics, Urgench State University, Khorezm, Republic of Uzbekistan, Middle-East J. Sci. Res., 14(5), 720–728, 2013.
5. Aly, M.N., Yuliawan, R., Noviyanti, U. D., Firdaus, A. A., & Prasetyo, A. (2019). Public Policy and Rural Tourism Development in East Java Province, Indonesia. African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure, 2019 (Special Issue), 1–8.
6. <https://www.unep.org/explore-topics/extractives/what-we-do/informing-policy-science>.
7. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/news>

QORAQALPOG‘ISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI



Islomova Dilrabo Salomovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Turizm» kafedrası assistenti

Qoraqalpog‘istonda bugungi kungacha turli davrlarga oid ikki yuzga yaqin tarixiy va me‘moriy yodgorliklar saqlanib qolgan, ularning aksariyati noyob hisoblanadi. Bunday yodgorliklarning ko‘pchiligi mamlakatdan tashqarida ham yaxshi ma‘lum bo‘lib, ular Qoraqalpog‘istonga ko‘plab sayyohlarni jalb qiladi. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘istonda davlat muzeyi, dunyodagi ikkinchi yirik rus avangard muzeyi ham Qoraqalpog‘istonda joylashgan. Bu muzeyda Nukus shahridagi Tretyakov galereyasi hamda XX asr birinchi yarmidagi Qoraqalpog‘iston va Xorazm tasviriy hamda amaliy san‘atining noyob kolleksiyasi joylashgan. Ushbu to‘plam Igor Savitskiy tomonidan to‘plangan bo‘lib, bugungi kunda uning soni 9000 ga yaqinni tashkil etadi.


Qoraqalpog‘iston murakkab tarixga, o‘ziga xos madaniyatga ega zamin bo‘lib, uning hududi Finlyandiya hududiga teng. Shimoldan janubgacha bo‘lgan masofa taxminan 700 km, g‘arbdan sharqqa — taxminan 400 km. Qoraqalpog‘istonning asosiy qismini Qizilqum cho‘li va Turon pasttekisligi tashkil etadi. Qoraqalpog‘iston Amudaryoning quyi oqimi bo‘ylab cho‘zilgan. G‘arbiy va Amudaryo respublika chegaralarini tashkil qiladi. Bu zaminning qadimiy tarixi va boy madaniyati ko‘plab sayyohlarni o‘ziga tortadi. Tashrif buyuradigan juda ko‘p qiziqarli joylar va uning qadimiy tarixi haqida ko‘plab hikoyalar mavjud.

Respublika Nukus, Mo‘ynoq, Tupraq qal‘a kabi diqqatga sazovor joylarni o‘z ichiga oladi. Qoraqalpog‘istonga tashrif buyurgan sayyohlar, ayniqsa, uning tarixiy



joylariga qiziqish bildiradi, chunki ular mintaqaning o'tmishi haqida chuqur ma'lumot beradi. Ulardan eng muhimi Mo'ynoq shahri bo'lib, u bir paytlar Orol dengizi bo'yida joylashgan yirik port bo'lgan. Mo'ynoq — Orol dengizi qanday bo'lganini eslatib turadi. Bir paytlar gullab-yashnagan shahar va Xorazmning poytaxti bo'lgan Tupraq qal'a xarobalari Nukusdan janubda Amudaryo bo'yida joylashgan. Bu yana bir ajoyib tarixiy joy va cho'l atrofi unga deyarli sirli tuyg'u beradi. Qoraqalpog'istonning hozirgi poytaxti Nukusda ham bir qancha qiziqarli arxeologik yodgorliklar mavjud.

Bu yerda Davlat san'at muzeyi joylashgan bo'lib, u yerda hozirda ushbu obyektlardan ko'plab asarlar saqlanadi. Nukus, shuningdek, Mo'ynoq va Tupraq qal'aga tashrif buyurish uchun eng yaxshi joy.





Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



Ustyurt platosining o'rtasida Sudochie ko'li deb atalgan joy bor, u «ko'z yoshi» deb tarjima qilinadi. Bu ichi bo'sh joyda chuqur ko'l joylashgan. Keksa mahalliy fuqarolarning afsonalariga ko'ra, u yaqinda beva qolgan ayolning ko'z yoshlaridan hosil bo'lgan. Bu joy yaqinida Sudochi kanyonlari joylashgan [1].

Yana bir diqqatga sazovor joy — Kanimex ko'li. Ajablanarlisi shundaki, bu ko'l Qizilqum cho'lidagi Beruniy yaqinidagi cho'lga o'xshash qumloq joyda joylashgan. Bu hudud vohalarga boy, shuning uchun ham odamlar baliq ovlash uchun munosib joy topish umidida Amudaryo kanallaridan biridan o'tish joyi qazishgan. Voila, qisqa vaqt ichida ko'l paydo bo'ldi.

Bu inson tomonidan o'ylab topilgan tabiatning sof timsolidir, shuning uchun u ko'pincha mahalliy fuqarolar va chet ellik sayyohlar tomonidan xotirjamlik topish umidida tashrif buyuriladi. Qoraqalpog'iston, yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistonning g'arbiy qismida joylashgan. Bu yer asosan cho'l bo'lib, Qizilqumdan iborat va ko'zni qamashtiradigan joylar ko'p. Ulardan biri Sulton Uvays Tog'idir. Bu Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan tog'li hududdir. Sulton Uvays diapazoni ikki xil diapazondan iborat bo'lib, ular Katta Uvays va Kichik Uvays deb tarjima qilinadi. Bundan tashqari, ko'plab buloqlar mavjud bo'lib, ular o'z navbatida Amudaryo yaqinidagi yashash joylari uchun suv manbaiga aylanadi. Bu sayyohlar va mahalliy aholining tez-tez tashrif buyuradigan joylaridir.

Ammo hududda turistik oqimni qabul qilish uchun ayrim muammolar mavjud. Jumladan:

- Mehmonxonalar va mehmon uylari, xostellar sonining cheklanganligi;

- Hududning jozibador salohiyatini to'liq namoyon etadigan turpaketlar sonining cheklanganligi;

- Turizm infratuzilmasining Nukus, Qo'ng'iro't singari shaharlarda joylashganligi va chekka shaharlarda (Orolbo'yi mintaqasida) taraqqiy etmaganligi.

Shu jihatdan olganda ham, Qoraqalpog'iston madaniyati va tarixini keng tadqiq etish, turistik jozibador hududga aylantirish va turistik oqimni qabul qilish bilan bog'liq muammolarga yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Alimovning keltirishicha, O'zbekistonning ko'plab hududlarida bo'lgani kabi Qoraqalpog'iston Respublikasida ham nafaqat umumiy turizmni, balki o'ziga xos ekoturizmni rivojlantirish uchun ham juda katta imkoniyatlar mavjud. Chunki Qoraqalpog'istonning tabiiy-hududiy ekotizimlari o'zining betakror tabiati, o'ziga xos o'simlik va tabiat dunyosi, dashtlari, ko'llari va suv havzalari, Amudaryo qirg'oqlari, Baday To'qay qo'riqxonasi, Ustyurt tekisliklari, Qizilqum cho'li, Sulton Uvays tog'lari, Beltag tepaliklari boshqa mintaqalardan farq qiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda Qoraqalpog'istonning shimoliy-g'arbiy qismida hamda Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasi bilan chegaradosh hududlarda joylashgan Ustyurt platosi yer sharining Kaspiy va Orol dengizlari oralig'idagi suvsiz cho'l hududiga aylanib, bu yerda dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin emas. Bunday murakkab ekologik tabiatga qaramay, Ustyurt platosida tarixiy obidalarni uchratish mumkin, ularning yoshi hali fan uchun sir bo'lib qolmoqda [4]. Bekbulatova G.A., Jolitbetov B. keltirishicha, Qoraqalpog'iston hududida 131 ta arxeologik, 25 ta



me'moriy, 89 ta monumental (39 ta diqqatga sazovor obyekt) jami 284 ta me'moriy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan. Qadimgi va o'rta asrlar Xorazm davlati va Kerder madaniyatiga oid tarixiy obidalarning 90 foizi shu hududda joylashgan [5].

BMT taraqqiyot dasturining keltirishicha, Qoraqalpog'iston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma'lum va gavjum sayohat yo'nalishlarini taklif qilishi mumkin, Orol dengiziga ekstremal ekoekskursiyalardan tortib, Davlat san'at muzeyiga tashrif buyurishgacha. Nukusda I. Savitskiy – Qoraqalpog'istonning boy merosi, O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan farq qiluvchi o'ziga xos madaniyat va an'analarni o'z ichiga oladi. Aynan shuning uchun ham Qoraqalpog'istonda barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish uchun mintaqadagi turistik takliflarning barcha turlarini o'rganish, infratuzilma va xizmatlarni yaxshilash zarur [6].

Buyuk Britaniyaning Bradt Guides sayohat bo'yicha nashriyoti 2023-yilda sayohat qilishga tavsiya etilgan dunyodagi noyob turistik o'rinlarning ro'yxatini e'lon qildi. Chili, Kosta-Rika, Isroil, Estoniya va boshqa turistlarni jalb qiluvchi noyob maskanlardan iborat bo'lgan ushbu ro'yxatga Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiritildi [7]. Hududning turistik salohiyatini yanada oshirish infratuzilmani rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin.

Shu maqsadda, hududga 2026-yilga qadar 180 ming xorijiy va 1 million mahalliy turistni jalb qilish maqsadida «2023-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish» strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq [2]:

- hududda yulduz toifali

mehmonxonalar tashkil etish;

- mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun transport-logistika tizimini yaxshilash, xususan, mahalliy hamda xorijiy avia-temir yo'l qatnovlarini tashkil etish;

- tajriba va bilimga ega bo'lgan ingliz, rus, nemis, fransuz, italyan, turk, ispan tillarida so'zlashuvchi gidlarni tayyorlash;

sayyohlarning qolish davomiyligi (tunash) va ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarni yiliga o'rtacha 7-10% ga oshirish;

- 2026-yilga kelib, turizm xizmatlari eksportini 13,5 dan 60 million dollarga yetkazish, joylashtirish vositalarida xonalar sonini 1 005 tadan 1 905 taga yetkazish;

- Xorazm viloyati bilan qal'a turizmi (Castles)ni rivojlantirish, Savitskiy muzeyi [3], Orol dengizi, Sudochiye ko'li va Ustyurt platosi imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- marketing choralarini ko'rish va xalqaro sayyohlik platformalarida Qoraqalpog'iston turizm mahsulotlarini joylashtirish kabi bir qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hududlarning turistik salohiyatini oshirish maqsadida 11 ta oliygohga birlashtirilgan 30 ta hududda viloyat va tuman hokimliklari bilan «yo'l xaritalari» tasdiqlanib, amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, jami 34 ta turistik operator bilan hamkorlikda 30 ta tuman va shaharning tarixi, turistik obyektlari to'g'risida ma'lumotlar hamda o'ziga xos xususiyatlari asosida 67 ta turpaket ishlab chiqildi. Shu jumladan, «Qoraqalpog'istonning 7 mo'jizasi» deb nomlangan 7 kunlik turpaket ham chiqildi. Unga ko'ra 7 ta mo'jiza sifatida quyidagilarga sayohatlar tashkil etiladi:

- «Kemalar qabrisoni»;



- «Ayoq qal'a»;
- «Aqchako'l»;
- «Shilpiq qal'a»;
- «Katta Guldursun qal'a»;
- «Tuproq qal'a»;
- Osiyo durdonasi — Savitskiy muzeyi.

Ta'kidlash kerakki, Qoraqalpog'iston Respublikasi I.V. Savitskiy nomidagi davlat muzeyiga 2021-yilda 48,3 ming kishi tashrif buyurgan. Shuni ham aytish kerakki, Taxtako'pir, Ellikqal'a va Xo'jayli tumanlarining turistik salohiyatini oshirish, ularda turistik innovatsiyalarni joriy qilish maqsadida, ushbu tumanlar Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga birlashtirilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son¹ «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida universitet tomonidan qator ilmiy-tadqiqot va tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir, Xo'jayli va Ellikqal'a tumanlaridagi turizm va servis xodimlarining malakasini oshirish kurslari tashkil etildi;

Universitetda «Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida Tuproqqal'a etno-muzeyini tashkil qilish» ilmiy loyihasi doirasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda;

Universitet bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanida «Orol baliqlaridan 99 tur taomlar» gastronomik festivali tashkil etildi;

Talabalarni Qoraqalpog'iston turistik salohiyati va imkoniyatlari

bilan tanishtirish maqsadida «Qoraqalpog'istonni bilasizmi?» shiori ostidagi tur o'yinlari muntazam tashkil etiladi;

Universitet bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston

Respublikasining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha «Xalqaro raqslar va Qoraqalpog'iston milliy taomlari» festivali o'tkazildi;

2023-yilning 12-iyul kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Xalqaro turizm fakultetining Turizm va servis kafedrasidan «Qoraqalpog'iston Respublikasi turistik potentsiali: muammolar va yechimlar» mavzusida xalqaro veb-forumi tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik hududlar ro'yxatiga kiritilgan tumanlarining tarixiy va madaniy obyektlarida 10 ta ilmiy-amaliy ekspeditsiya yo'lga qo'yildi. 2024-yilning 17-18-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanida «Mizdaxkon muqaddas va sirli maskan» yoshlar festivali o'tkazildi. TDIU Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik salohiyatini oshirish uchun jozibali ekskursiya tashkil etish maqsadida kreativ va noan'anaviy roliklar tanlovlari muntazam tashkil etib boriladi.

Buning natijasida hozirga qadar 35 645 nafar mahalliy va 5 640 nafar xorijiy turistlar jalb qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi turizmi keng tarqalgan boyliklarga ega bo'lib, uning tabiiy boyliklari, tarixiy obyektlari va madaniy merosi dunyoda e'tirof etilgan joylar hisoblanadi. Igor Savitskiy nomidagi Davlat muzeyi, Mo'ynoq qal'asi, Tuproq qal'asi, Ustyurt platosi va turli tarixiy obyektlar Qoraqalpog'istonga sayyohlar jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasidagi strategiyalarning amaliyotga

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6456786>



tatbiqini ta'minlash, turistlar uchun yashash joylari va transport tizimini yaxshilash, tajribali gidlar va xizmatlar taklif etish kabi chora-tadbirlar kerak.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

- Turizm infrastrukturini rivojlantirish uchun mehmonxonalar, restoranlar va transport vositalarining miqdorini oshirish va sifatini yaxshilash kerak.

- Turizm xizmatlarini mustahkamlash, turistlarga yuqori sifatli gidlar va xizmatlar taqdim etish, tadbirlar ko'rsatish uchun innovatsion usullar qo'llash lozim.

Turistik joylarga transport vositalarini taqdim etish, shuningdek, turistlar uchun qulay yo'lak va moslashtirilgan yo'nalishlarni yaratish lozim.

Turizm potentsialini oshirish uchun reklama va marketingning samarali qo'llanilishi, turizm mahsulotlarining xalqaro bozorlarda taqdim etilishi kerak.

O'ylaymizki, yaqin kelajakda Qoraqalpog'iston o'zining noyob tabiati, tarixi va nomoddiy obyektlari bilan O'zbekistondagi eng jozibador yangi turistik yo'nalishga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev: «Toshkent – Samarqand – Buxoro – Xiva» an'anaviy turistik zanjiriga Qoraqalpog'iston ham qo'shiladi. <https://uza.uz>
2. Alimov, Atabek. (2016). Развитие экотуризма в республике Каракалпакстан: проблемы, новые направления и перспективы. 10.5281/zenodo.55874.
3. Бекбулатова Г.А., Жолымбетов Б. Пути и возможности развития туризма в Каракалпакстане. Экономика и социум, 2023, №12 (115)-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-vozmozhnosti-razvitiya-turizma-v-karakalpakstane> (дата обращения: 07.05.2024).
4. Qoraqalpog'istonning turizm salohiyati: yangi imkoniyatlar va muammolar BMTTD va YUNESKOning qo'shma dasturi doirasida onlayn tarzda muhokama qilinmoqda. <https://www.undp.org/uz>
5. Uzbekistan – only Central Asia country recommended to visit in 2023 by Bradt Travel Guides. <https://en.trend.az/casia/uzbekistan/3694862.html>
6. Islomova, D. «Hududlarda smart turizmni rivojlantirishda xorij tajribasini qo'llash istiqbollari.» (2023).
7. Ergashev, R., & Islomova, D. «The Role of Pilgrimage Tourism in the Development of the National Economy.» International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(1), 28–34.
8. Egamnazarov, K. (2023). The Influence of Sustainable Tourism Policy, Destination Management, and Sustainable Tourism Development on Improving the Quality of Life for the People of Uzbekistan: A Comprehensive Overview. Nashrlar, 32–35.
9. Egamnazarov, K. (2023). Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan.
10. Egamnazarov, K. (2023). How Does Smart Tourism Support Sustainable Tourism Development: the Case of Uzbekistan.
11. <https://uzbektourism.uz>





Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi

Туристическая инфраструктура Каракалпакстана

Tourism infrastructure of Karakalpakstan



O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI
Kiymishek kashtachilik qoraqalpoq xalqining asrlar davomida amal qilib kelayotgan an‘anaviy tikuvchilik turidir. O‘zining murakkab naqshlari, jo‘shqin ranglari va ramziy naqshlari bilan mashhur bo‘lgan «Kiymishek» kashtachiligi Qoraqalpog‘iston viloyati madaniy merosida alohida o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, Kiymishek qoraqalpoq kashtachiligi tarixiga nazar tashlasak:

Kelib chiqish tarixi. Kiymishek kashtachiligining kelib chiqishini O‘rta Osiyo cho‘llarida, jumladan, qoraqalpoq xalqida yashagan ko‘chmanchi turkiy qabilalarga borib taqal‘adi. Kashtachilik



san'ati nafaqat kiyim-kechak va matolarni bezash vositasi, balki murakkab naqsh va belgilar orqali madaniy o'ziga xoslik va hikoyalarni etkazish usuli edi.

Texnika va materiallardan foydalanish. Kiymishek kashta tikish odatda paxta yoki zig'ir kabi mato asosidagi ipak yoki paxta iplari yordamida amalga oshiriladi. Tikuv texnikasi xilma-xil bo'lib, mahoratli hunarmandlar geometrik naqshlar, gul naqshlari va hayvonlar naqshlarini yaratish uchun zanjirli tikuv, atlas chok va xoch tikuv kombinatsiyasidan foydalanadilar. Qizil, ko'k, yashil va sariq kabi yorqin ranglardan foydalanish kashtaga jonli va jozibali element qo'shadi.

Ramzi va ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, kiymishek kashtachiligidagi har bir naqsh va chizmalar qoraqalpoq xalqining an'analari, e'tiqodlari va merosini aks ettiruvchi ramziy ahamiyatga ega. Masalan, geometrik naqshlar birlik va uyg'unlikni, gulli naqshlar go'zallik va tabiatni ifodalashi mumkin. Ko'pincha ot va tuya kabi hayvonlar tasvirlangan, ular kuch-quvvat, chidamlilik va ko'chmanchi turmush tarzini anglatadi.

Madaniy ahamiyatiga kelsak, kiymishek kashtachiligi qoraqalpoqlarning madaniy tadbirlari, marosimlari va kundalik hayotida muhim o'rin tutadi. Naqshli kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari va aksessuarlar an'ana va hunarmandchilik timsoli sifatida qadrlanib, avloddan-avlodga meros sifatida o'tib kelmoqda. Qiymishek kashtalarining murakkab naqshlari va jo'shqin ranglari ham o'tmish bilan bugungi kunni bog'lab, badiiy ifoda va hikoya qilish shakli bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda

Kiymishek kashtachilik san'atini asrab-avaylash va jonlantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Mahalliy kashtachilarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini namoyish etish, an'anaviy uslublarni yosh avlodga yetkazish maqsadida hunarmandchilik ustaxonalari, hunarmandchilik yarmarkalari, madaniy tashabbuslar tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Kiymishek kashtachiligining go'zalligi va madaniy ahamiyatini targ'ib qilish orqali mahalliy aholini ham, tashrif buyuruvchilarni ham o'ziga rom etib, ilhomlantirayotgan azaliy hunarmandchilikni saqlab kelmoqda.

Umuman olganda, Kiymishek qoraqalpoq kashtachiligi qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi va badiiy merosidan dalolat beradi. Bu an'anaviy san'at o'zining murakkab naqshlari, jo'shqin ranglari va ramziy naqshlari bilan g'ururli va jo'shqin jamoaning hikoyalari, an'analari va hunarmandchiligini saqlab qolgan holda o'tmishga oyna va kelajakka ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda hunarmandchilik faoliyatidan foydalangan holda turizmni rivojlantirish uchun tajribali turizm imkoniyatlarini yaratish kerak. Xalq hunarmandchiligi san'atini namoyish etishning eng kuchli usullaridan biri bu eksperimental turizm faoliyatidir. Tasavvur qiling-a, sayyohlar mahalliy hunarmandlar ustaxonasiga tashrif buyurish, hunarmandchilik jarayoniga bevosita guvoh bo'lish va hatto o'z durdona asarini yaratishda o'z kuchlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega. Amaliy tajribalarni taklif qilish orqali tashrif buyuruvchilar har bir hunarmandchilik mahsulotiga kiradigan mahorat va fidoyilik uchun chuqur minnatdorchilikni rivojlantirishlari mumkin, bu esa mahalliy madaniyat



bilan mustahkam aloqani kuchaytiradi.

Bundan tashqari barqaror rivojlanishni rag'batlantirish hozirgi kunda muhim hisoblanadi. Xalq hunarmandchiligining turizm sohasiga integratsiyalashuvi turizmni rivojlantirishdan tashqari, Qoraqalpog'istonning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shishi mumkin. Mahalliy hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash va ularning hunarmandchiligini targ'ib qilish orqali mintaqa jamiyatda iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi, an'anaviy ko'nikmalarni saqlab qolish va hunarmandlarga o'z madaniy merosini dunyo bilan baham ko'rish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Bu nafaqat sayyohlik tajribasini oshiribgina qolmay, balki mahalliy iqtisodiyotning ustuni sifatidagi xalq hunarmandchiligining uzoq muddatli hayotiyligini ham ta'minlaydi.

Shulardan kelib chiqqan holda madaniy almashinuvni rivojlantirishiga turtki bo'ladi. Xalq hunarmandchiligi san'ati madaniyatlar o'rtasida ko'prik bo'lib, tashrif buyuruvchilarni har bir qo'lda yasalgan buyumga to'qilgan an'analar va hikoyalar bilan shug'ullanishga chorlaydi. Madaniy almashuv dasturlari va hunarmandlar boshchiligidagi seminarlar orqali Qoraqalpog'iston turli millatga mansub tashrif buyuruvchilar o'rtasida tushunish va qadrlash ruhini uyg'otishi mumkin. Ushbu fikr va ijod almashinuvi sayyohlik tajribasini boyitadi, doimiy xotiralar yaratadi va butun dunyo bo'ylab odamlar

o'rtasida mazmunli aloqal'arni o'rnatadi.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish uchun milliy hunarmandlar bilan hamkorlik qilish, ularning mahsulotlarini ko'rsatish va sotish imkoniyatlarini kengaytirish;
- turizm obyektlarini yaratish va rivojlantirishda milliy asarlar, san'at va madaniyatning to'g'ri ta'lqin etilishi va xar xil turizm turlari uchun aniq markazlarga aylanishi;
- turizm sohasida yirik tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun investitsiyalar jalb etish, shuningdek, xalq hunarmandchiligi sanoatini rivojlantirish va uni dunyoga tanitish uchun marketing faoliyatini rivojlantirish;
- turistlarga qulay sharoitlar yaratish, mehmonxona va restoranlar darajasini oshirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va turizm xizmatlarini sifatliroq qilish kerak.

Bu takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishda muammolarga yechim topishga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq hunarmandchiligining badiiy mahoratini ishga solib, turizm sohasini yangi cho'qqilarga ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hunarmandchilik an'analarini nishonlash, tajribali sayyohlik imkoniyatlarini yaratish, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va madaniy almashinuvni rag'batlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Xushnazarova, M. (2023). Qoraqalpoqiston Respublikasida turizmni rivojlanish yo'llari.
2. Xushnazarova, M. (2023). Turizm sektorida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Khushnazarova, M. G. (2023). Development of National Tourism Through Crafts in the Environment of Economic Opportunities in New Uzbekistan.
4. Xushnazarova, M. G. (2024). Qoraqalpog'iston Respublikasini turizm sohasini rivojlantirishda hunarmandlarning o'rni..



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA HUDUDNING TURISTIK JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYASI

Xalimova Fayyoz Nafasovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining eng muhim daromad manbai bo'lgan hududlarda turizmni barqaror va innovatsion rivojlantirish yo'nalishida amaldagi huquqiy hamda kontseptual bazani takomillashtirish va uni tarkibiy bo'linma sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon turizm infratuzilmasini mustahkamlash, yangi texnologiyalarni keng qo'llash, hamda milliy va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekiston turizmining, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi turizmining jadal rivojlanishi nafaqat milliy iqtisodiyot yutuqlariga hissa qo'shadi, balki mintaqaviy va jahon turizm xizmatlari bozorida O'zbekistonning raqobatbardosh o'rin olish imkonini ham yaratadi. Shu nuqtai nazardan, 2022-yil 28-sentabrdagi Vazirlar Mahkamasining 545-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi



Prezidentning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish maqsad qilingan.

Qarorga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini oshirish, hududning, xususan, Mo'ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizmni targ'ib qilish vazifalari belgilangan.

Bu qaror doirasida turizm infratuzilmasini yaxshilash, madaniy merosni targ'ib qilish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, yangi turizm xizmatlarini joriy etish va turistik obyektlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, xususan qoraqalpoq, o'zbek, rus va ingliz tillarida targ'ibot materiallari tayyorlash zarurati belgilangan. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy jurnalistlar, blogerlar va vlogerlar ishtirokida infoturlarni tashkil etish hamda turistik obyektlarni ommaviy ravishda targ'ib qilish qisqa muddatlarda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qatoriga kiritilgan.

Bizga ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining tarixiy o'tmishi bilan jonli aloqaga ega hudud. Buni hududdagi 131 ta arxeologik topilmalar, 25 ta arxitektura namunalari, 89 ta monumental san'at yodgorliklari va 40 ga yaqin diqqatga sazovor joylar tasdiqlaydi.

Ayazqal'a, Ayazqal'a-2 va Ayazqal'a-3 tarixiy arxeologik yodgorliklari 18 asr bo'lishiga qaramay yaxshi saqlanib qolgan, shuningdek, eramizning IV asriga oid Tuprak-qal'a qal'asi, Sulton Vays bobo, Keshirmes bobo va Dautata sayyohlarning ziyorat

qilishlari va tashrif buyuruvchilar sonining ko'payishiga hissa qo'shadi. Bir paytlar hajmi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallagan, ammo hozirda ham qirg'oqlaridan uzoqlashayotgan Orol dengizi atrofida sayohatlar tashkil etilishi. Orol dengizi to'liqlarida suzib yurgan, hozir esa qum ustida yotgan kemalar butun dunyoning sobiq cheksiz qirg'oqlarini eslatuvchi «Kemalar qabristoni»ni tashkil qildi. Bunday tabiat hodisasini dunyo ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda «Tabiatni asrashga birdek mas'ulmiz» shiori ostida Orol muammosi keng talqin qilinib, chet ellik sayyohlar uchun tashrif buyuradigan joyga aylantirish mumkin.

Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasida 40 dan ortiq turizm tashkiloti faoliyat ko'rsatayotgani Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyati yuksakligidan dalolat beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurgan har bir mehmon, albatta, Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat san'at muzeyiga tashrif buyuradi. I.V. Savitskiy va qimmatbaho eksponatlarga albatta qoyil qolmasdan iloji yo'q. Muzeyda xalq amaliy san'ati, Xorazm sivilizatsiyasining qadimiy va o'rta asrlar san'ati, 1920–1930-yillardagi o'zbek va rus tasviriy san'ati, haykaltaroshlik va zamonaviy qoraqalpoq rangtasviri, yog'och o'ymakorlik naqshlari, zargarlik va to'qimachilik kabi 90 mingdan ortiq eksponatga ega ilmiy-ma'rifiy bo'limlari mavjud bo'lib, 1920-1930-yillarga oid



milliy liboslar sayyohlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida nafaqat tarixiy va afsonaviy shaharlarda turizm, balki ekoturizm ham rivojlanmoqda. Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasida 11 ming 583 gektar tabiatni muhofaza qilish zonaları mavjud.

Bu qo'riqxonalarda 826 bosh Buxoro bug'usi, qo'riqxonada suv havzalarida 43 turdagi baliq, 11 tur sudralib yuruvchilar va 10 dan ortiq boshqa hayvonlar yashaydi. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi mavjud turistik imkoniyatlardan samarali foydalangan holda quyidagi turistik mahsulotlarni rivojlantirish zarur: «MICE turizmi», «Madaniy turizm», «Faol va sarguzashtli turizm», «Kino turizmi», «Plyaj turizmi» va «Gastronom turizmi», «Tibbiyot va tabobat turizmi»ni tashkil etish sayyohlarning tashrifiga sabab bo'ladi. MICE turizmi biznes motivlari bilan bog'liq bo'lgan uyushgan sayohat turini anglatadi: ish uchrashuvlari, rag'batlantiruvchi sayohatlar, konferentsiyalar, ko'rgazmalar, tadbirlar, ishchi guruh uchrashuvlari, seminarlar va bo'sh vaqtni o'tkazish uchun xizmat safarlarini tashkil etish va bu jarayonni ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirish.

Madaniy turizm va ekskursiyalar – madaniy yodgorliklar va tarixiy meros obyektlariga jozibador turlar va ekskursiyalar tashkil etiladi. Faol va sarguzasht turizmi – ochiq havoda sayr qilish, jumladan, «yumshoq» mashg'ulotlar (lager, piyoda sayr

qilish, velosipedda sayr qilish, tabiatni o'rganish, ot minish, qushlarni kuzatish, baliq ovlash va ov qilish) va «qattiq» faoliyat (qayiqda eshkak eshish, g'or, tog'da sayr qilish, velosport, chang'i uchish, alpinizm, rafting, toshga chiqish).

Gastronom turizmi – Qoraqalpog'istonning milliy taomlari va turli xil baliq taomlari hamda ularning tayyorlash jarayonlari bilan tanishtirish turistlar tashrifini oshirishi mumkin. Tibbiyot va tabobat turizmi – Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining o'simlik dunyosi juda boy bo'lib, uning deyarli barcha vakillari dorivor xususiyatlarga ega. Respublika florasi o'simliklarning turli ekologik shakllaridan iborat bo'lib, bu yerda dorivor, mevali, ko'nchilik, efir moyi, manzarali, melisa va boshqa o'simliklar o'sadi.

Bundan tashqari, uy hayvonlari sutlari ham tabobatda mashhur bo'lib, bu imkoniyatlar hududda mujassam. 2019-yil pandemiyadan keyin butun dunyo aholisi uchun tibbiy xizmat birlamchi ehtiyojga aylandi. Shunday ekan, hudud mavjud salohiyatidan foydalangan holda sog'lomlashtirish turizmini tashkil etish va targ'ib qilish lozim. Hudud turizmining ommalashishiga asosiy omil sifatida bolalar va yoshlar ichki turizmini rivojlantirish zarur.

Bolalikdan turizmning turlari bilan tanishish, vatan tuyg'usini his qilish, turistik madaniyatini oshirish, mehmondo'stlik qoidalariga rioya qilish va tarbiyalanishiga, yosh avlod irodasi va ma'naviyatini



shakllantirishga yordam beradi. «Mening ona yurtim – Qoraqalpog‘iston» loyhasini amalga oshirish orqali yoshlarni, shuningdek, turizmning faol turlarini tashkil etishda gid va ekskursiya gidlarini keng jalb etishni ta‘minlash kerak.

Xulosa va takliflar beradigan bo‘lsak, bugungi globallashuv va zamonaviy axborot texnologiyalari davrida yuqorida keltirilgan turizm turlarini samarali tashkil etish va ommalashtirish uchun yangicha yondashuvlar zarur.

Eng so‘nggi axborot texnologiyalaridan foydalanish Qoraqalpog‘istonning sayyohlik imkoniyatlari to‘g‘risidagi barcha zarur ma‘lumotlarni, jumladan, sayyohlik obyektlari haqida sayyohlar uchun ma‘lumot olishni osonlashtiradi. «Visit Qoraqalpog‘iston» veb-saytini yaratib, hududning jozibadorligini sahifalarga joylash va maqsadli kontent yuritish zarur. Mehmonxonalar, aviachiptalarni onlayn bron qilish va talabgorlarni onlayn so‘rovnomalar orqali tahlil qilish turistik xizmatlar paketini doimiy ravishda ta‘minlash imkonini beradi. Kino turizmini rivojlantirish uchun Influencer marketingdan foydalanish, ya‘ni mashhur shaxslar, blogerlar yoki ijtimoiy tarmoqlarga ta‘sir ko‘rsatuvchilardan foydalangan holda joylarda festivallar va tadbirlar tashkil etish lozim. Tibbiyot va tabobat turizmini rivojlantirish orqali ichki turizm salmog‘ini oshirish, xizmat sifati hamda turlarini Influencer marketing yordamida ommaviy axborot vositalari

va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish muhim. Jahon turizmida yangi yo‘nalish – virtual turizm paydo bo‘ldi. To‘liq ma‘lumot olish va uni dunyoning istalgan nuqtasida bo‘lajak sayyohlarga yetkazishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari noyob va bebahodir. Shu bilan birga, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali chora-tadbirlari sifatida axborot markazlarining imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

Hududning turizm sohasini axborot bilan ta‘minlash. Qozog‘istonning sayyohlik salohiyatini baholash bo‘yicha IPK International tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari va uni uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar jahon amaliyotida qo‘llanilayotgan eng so‘nggi texnologiyalardan foydalangan holda uni axborot bilan qamrab olishning tizimli konsepsiyasini yaratishni taklif qiladi.

Zarur transport yo‘nalishlari, muhandislik va infratuzilma obyektlari mavjudligini hisobga olgan holda respublika hududlarida turizm sohasi monitoringini amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilsa shu ma‘lumotlar orqali imkoniyatlardan foydalaniladi va kamchiliklar bartaraf etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Egamnazarov, K. (2023). The influence of sustainable tourism policy, destination management, and sustainable tourism development on improving the quality of life for the people of Uzbekistan: a comprehensive overview. *Nashrlar*, 32–35.
2. Egamnazarov, K. (2023). Evaluating the path towards sustainable tourism development in the Republic of Uzbekistan.
3. Egamnazarov, K. (2023). How Does Smart Tourism Support Sustainable Tourism Development: the Case of Uzbekistan.
4. Xushnazarova, M. G. (2023). Turizm sektorida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Egamnazarov, K., & Amonboev, M. (2022). Development of the area as an attractive place for adventure and tourism lovers: a case of Chimgan. *Uzbekistan. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali*.
6. Xushnazarova, M. (2023). Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlanish yo'llari.
7. Xalimova, F. (2023). Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm sektoridagi integratsiyaning nazariy asoslari.
8. Xalimova, F. (2023). O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishida shopping turizmining ahamiyati.
9. Xalimova, F. (2023). O'zbekistonda MICE turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma.
10. Халимова, Ф. (2022). Рақамли иқтисодиёт шароитида туризм соҳасида пиар менежментни қўллаш зарурати.
11. Алиева, М. (2019). Совершенствование менеджмента предприятий туристской индустрии в Узбекистане. Тенденции и проблемы развития туризма и гостеприимства в XXI веке, 17–25.
12. Алиева, М. (2021). Роль гостиничных услуг в развитии новой экономики Узбекистана. *Экономика и Образование*, (2), 213–219.
13. Alieva, M. (2023). Development of smart tourism in Uzbekistan.
14. Алиева, М., & Равшанов, Т. (2021). Малайзияда зиёрат туризми ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг ташкилий механизмлари. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 398–405.



TOG' TURIZM SOHASIDAGI INVESTITSIYA JARAYONLARI: HUSUSIYATLARI, MEXANIZMLAR VA RIVOJLANISH OMILLARI

Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Turizm fakulteti dekan muovini

Iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlarini ta'minlash ehtiyoji sarmoyaga yo'naltirilgan iqtisodiy muhitni shakllantirishni taqozo etmoqda. Aynan investitsiyalar oqimi ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi, yuqori darajasiga olib chiqishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, investitsiya siyosati mintaqa iqtisodiyotining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan kapital ko'yilmalarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab berishi kerak.

Hozirgi kunda Jizzax viloyatida tog' turizmi mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda multiplikativ effekt yaratishga qodir soha sifatida qaralmoqda. Bu soha ba'zi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Turizmni rivojlantirish bo'yicha investitsiya konsepsiyasini amalga oshirish, pirovardida, Jizzax viloyatiga qo'shimcha sayyohlar oqimini jalb qilish bilan bir qatorda, ijtimoiy-madaniy xizmatlar va turizm sohasida yangi ish o'rinlari

yaratishni ta'minlaydi.

Sayyohlik-rekreationsion kompleks, ayniqsa tog' turizmi rivojlanishi, ijobiy va salbiy natijalarni birgalikda olib keladi. Bu holat turizmning tarmoqlararo kompleks sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, yanada takomillashtirilgan boshqaruv mexanizmini yaratishni zarur qiladi. Ushbu soha respublika iqtisodiyotining bir qator tarmoqlarini birlashtiradi, ularda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni faollashtiradi hamda ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Turizmning iqtisodiy klasterlardan biri sifatida rivojlanishi iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta ko'rib chiqishga yordam beradi va uning jadal rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'zining noyob tabiiy sharoitlariga ega bo'lgan Jizzax viloyatida turizm sohasida iqtisodiy jihatdan eng foydali biznes yo'nalishlaridan biri – zamonaviy, yuqori darajadagi qulaylik va xizmat ko'rsatish bilan ta'minlangan tog'-changi kurortlarini qurish va ulardan samarali foydalanishdir. Ushbu kurortlar shunday hajm va sifatda barpo etilishi kerakki, ular nafaqat mahalliy iqtisodiyotga, balki respublika iqtisodiyoti rivojlanishiga



ham sezilarli hissa qo‘shishi lozim.

Mintaqada tog‘ turizmini rivojlantirish uchun investitsiya resurslarini tuplash bugungi kunda viloyat budjeti daromadlarini oshirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, va kurort aholisining farovonlik darajasini yuksaltirish kabi bir qator muhim vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзаев М., Алиева М. Туризм асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласофлар жамияти, 2011.
2. Файзиёва С. Основные направления развития туризма в Узбекистане. Экономический вестник Узбекистана, № 3-4, 2004.
3. Бектурдиев Ж. – Молодой ученый. – 2016.
4. Эшова А., Норчаев А., Рузиев С. Ўзбекистон Республикасида туризм хизмати ва сервис соҳасини ривожлантириш йўллари. – Т.: ТДИУ, 2007.
5. Манба: «Туризм инфратузилмасини ривожлантиришнинг методологик, услубий асосларини такомиллаштириш» мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари, Самарқанд, 2014.
6. Алиева М. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2007. 339-б.
7. Алиева М., Хўжаев О.Х., Норчаев А.Н. Туризм ривожланишини прогнозлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006. 214-б.
8. www.lex.uz





Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi

Туристическая инфраструктура Каракалпакстана

Tourism infrastructure of Karakalpakstan



«ZIYORAT TURIZMI» VA BIZNES KESIMIDA «HALOL» MEHONXONALARNING O‘RNI

Musayev Malikjon Karomatovich

Buxoro davlat universiteti «Turizm va mehmonxona xo‘jaligi» kafedrası doktoranti

Hozirgi kunda ko‘pchilik «ziyosat turizmi» deb ataydigan turizm turi qadim zamonlardan beri rivojlanib kelgan. Zamonaviy O‘zbekistonda turizmning bu turi yaqinda rivojlana boshladi. Bugungi kunda bu yo‘nalish ancha yangi va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, «Nisbatan yangi, lekin juda istiqbolli yo‘nalish bo‘lgan ziyosat turizmi Buxoroning turizm industriyasida, xususan, ichki va kirish turizmini rivojlantirishda yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanishi mumkin. Islom sivilizatsiyasi beshigi, ma‘rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurtimizda Islom dini rivoj topgan, jahon ilm-fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan allomalar, mutafakkir olimlar, ulamolar va ulug‘ avliyolar yetishib chiqqan. Dunyoda ularning ziyosatgoh va muborak qadamjolarini ziyosat qilishga ehtiyoj yuqori.[1]

Buxoro ziyosat turizmini rivojlantirish markazlaridan biriga aylanishi uchun keng imkoniyatlarga ega, chunki shaharda zarur diniy salohiyat mavjud. Bundan tashqari, ziyosat turizmi Buxoroda turizmning mavsumiyligi muammosini hal qilishga yordam beradi. Buning uchun viloyat Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mitasi hamda Buxoro viloyati turizm va madaniy meros boshqarmasining

o‘rni beqiyos bo‘lib, soha vakillari ishtirokchilari birlashgan holda ziyosat turizmini rivojlantirishda katta hissa qo‘shmoqdalar. Maqola muallifi quyidagi sxema asosida tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi shaklini taklif qilmoqda: Shahar hokimligi – Turizm boshqarmasi – Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mitasi – Madaniyat vazirligi (muzeylar, teatrlar, ko‘rgazma birlashmalari va boshqalar) – biznes (sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar).

Bugungi kunda Buxoro viloyati Turizm va madaniy meros Departamenti Buxoroni targ‘ib etishda faol pozitsiyani egallagan: ziyosat turizmini rivojlantirish uchun Buxoroning madaniy va diniy salohiyatidan foydalangan holda strategik resurs sifatida foydalanmoqda: «Ziyosat turizmi iqtisodiyotni rag‘batlantirishning kuchli omiliga aylanishi mumkin va kerak. Bu innovatsiyalar va hududlarni rivojlantirish uchun kuchli zaxiradir. Madaniyatning investitsion jozibadorlikni oshirish vositasi sifatida imkoniyatlarini namoyish etish zarur» [2].

Departament tomonidan ziyosat turizmini rivojlantirish borasida turli tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, Buxoro viloyati Turizm



va madaniy meros Departamenti ma'lumotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda Buxoroda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni alohida ta'kidlashimiz mumkin [3]:

2022-yil fevral oyida «Ichki va ziyorat turizmi» festivali va uning doirasida «Usmon mushafi» nomli maxsus suvenirlar kolleksiyasi namoyishi;

2022-yil 19-may kuni «Declaratsiyalar muloqoti» xalqaro forumning Buxoro shahrida bo'lib o'tgan yakuniy bosqichda, 11 ta davlatdan 100 ga yaqin ishtirokchilar qatnashib, forum yakunida O'zbekiston hamda jahon hamjamiyatining e'tiqod erkinligini targ'ib qilish jarayonida «Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik» yo'nalishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

2022-yil iyun oyida Butunjahon va musulmon olami e'tirof etgan allomalarimizdan biri Abu Hafs Kabir Buxoriy ijodiga bag'ishlangan «Abu Hafs Kabir Buxoriy merosi va uning birinchi sharq renessansi hamda islom falsafasi ilmiy nazariy asoslarini belgilashdagi o'rni va ahamiyati» mavzusida chet el (Misr, Turkiya, Tojikiston) olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

- Turkiyaning Malatiya shahrida bo'lib o'tgan «Abduxoliq G'ijduvoni va tasavvuf» mavzusidagi xalqaro simpoziumda Abduxoliq G'ijduvoni Jome masjidi imom-xatibi Orif Amonov ishtirok etdi va viloyatning ziyorat turizm salohiyati targ'ib qilindi.

- Xalqaro ziyorat turizm haftaligi

har yili o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, bugungi kunda Buxoro shahrida ziyoratchi sayyohlarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda tegishli infratuzilma shakllantirilmoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, «ziyosat turizmi» va «halol mehmonxona» tushunchalari terminologik jihatdan hali to'liq o'rganilmagan. Halol mehmonxona fenomeni hali ham chuqur tahlil va ilmiy izlanishni talab qiladi. Mahalliy Buxoro mehmonxona bozorini yanada chuqurroq o'rganish bizga Buxoroning ziyorat turizmiga xos xususiyatlarini aniqroq ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Halol mehmonxonalar, asosan, xonalarda spirtli ichimliklar (masalan, minibarlar) yo'qligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, xonalarda namoz o'qish uchun yetarli joy va joynamoz mavjud bo'ladi; xonada qibla ko'rsatkichining (Makkadagi Ka'ba tomon yo'nalishini ko'rsatuvchi belgi) bo'lishi ham muhim o'ziga xosliklardan biridir. Kontseptual noaniqlik tufayli, «halol» belgisi ortidan Buxoroning turistik bozorida ziyorat turizmga bo'lgan qiziqish asnosida bundan foydalanadigan uddaburonlar tomonidan mehmonxonalar paydo bo'la boshladi. Bu «mehmonxonalar kitchi»ning o'ziga xos ko'rinishidir (nemis tilidan «Kitsch» – juda oddiyligi bilan ajralib turadigan, moda ketidan quvadigan past navli ommaviy mahsulotlar). Afsuski, ko'pincha biznesda «diniy chayqovchilik» holatini kuzatamiz.

Buxoroning tarixiy hududida halol mehmonxonalar ochilishi ko'p jihatdan

ziyorat turizmi infratuzilmasi elementi sifatida gavdalanadi. Butun musulmon olamida e'tirof etilgan tendensiyalar asosida rivojlanish bilan bir qatorda, Buxoroning o'ziga xos turistik, diniy va madaniy tomonlari bor. Samarqand shahrida ham ziyorat turizmini rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. [4]

Xulosa qilib aytish mumkinki, halol mehmonxonalar Buxoroning ziyorat turizmi uchun jozibadorligini oshirishda muhim o'rin tutadi, ya'ni ular Buxoroni jahon ziyorat turizmi bozorida ommalashtirishga hissa qo'shadi va ziyorat turizmi infratuzilmasining zarur tarkibiy qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayev, M. K. (2024). Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishning muammolari va ularni bartaraf qilish yo'llari. In Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning tafakkur va talqin mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami, Buxoro, 15-may.
2. Халқ депутатлари Бухоро шаҳар Кенгашининг навбатдан ташқари сессияси ҳужжатлари. URL: https://t.me/buxorouz_official/84827
3. Бухоронинг ягона зиёрат туризми бренди тарғиботига бағишланган тадбирлар ўтказилди. URL: <https://t.me/bukhtourism/20189>
4. Хушназарова, М. Г., Мардонова, Х. А., Мусаев, М. К., & Тохирова, Д. М. (2021). Краткий обзор истории азиатского города Самарканд. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(2), 835–842.
5. Musaev, M. K. (2023). The role of banking and financial system in the development of tourism in Uzbekistan. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 418–420.



Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan



TURIZM MARKETINGINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOSLIGI

Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna

Renessans ta'lim universiteti
(Iqtisodiyot) kafedrasasi assistenti

Turizm industriyasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotining tez rivojlanayotgan sektorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Turizm sohasida raqobat kundan kunga kuchayib bormoqda, shuning uchun turizm tashkilotlari iste'molchilar ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish maqsadida samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etishga ehtiyoj sezmoqdalar.

Turizm marketingining mohiyatini yoritishdan avval, umumiy marketing tushunchasiga to'xtalib o'tish lozim. Marketing – bu tovar, xizmatlar va g'oyalarni iste'molchilar ehtiyojlarini

qondirish, tashkilotning maqsadlariga erishish va jamiyat farovonligini oshirish maqsadida yaratish, narxlash, targ'ib qilish va taqsimlash jarayonidir. Shunday qilib, marketing tashkilot va iste'molchi o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqal'arni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turizm marketingi esa turizm xizmatlari va mahsulotlarini samarali tarzda iste'molchilarga yetkazish, ularning ehtiyoj va talablarini qondirish, raqobatbardosh ustunlikka erishish, shuningdek, tashkilot maqsadlariga erishish uchun marketing tamoyillari va usullarini



qo'llash jarayoni sifatida talqin etiladi.

Turizm marketingining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Xizmat sektoriga tegishli xususiyatlar:

- Xizmatlar moddiy emas, balki nomoddiy xususiyatga ega.

- Xizmatlar ishlab chiqarish va iste'mol qilish bir vaqtda amalga oshadi.

- Xizmatlarni saqlash, transport qilish yoki qayta sotish imkoni yo'q.

- Xizmatlar sifati subyektiv baholanishi mumkin.

Turistlar xatti-harakatlarining murakkabligi:

- Turistlar uchun sayohat va dam olish qarorlari ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi

- Turistlar xarid qarorlarini qabul qilishda ko'pincha his-tuyg'ular yetakchilik qiladi

- Turistlar xatti-harakatlarida mavsumiylik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Turizm sohasidagi faoliyatning keng doirasi:

- Turizm sohasida faoliyat yurituvchi ko'plab subyektlar (mehmonxonalar, sayohat agentliklari, transport kompaniyalari, ovqatlanish korxonalar va boshqalar) o'rtasida marketing faoliyati amalga oshiriladi.

Ushbu subyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlar marketing faoliyatining asosini tashkil etadi.

Turizm marketingining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Yangi turizm mahsulotlari va xizmatlarini yaratish;

- Iste'molchilar ehtiyojlari va

talablarini chuqur o'rganish;

Raqobatchilar faoliyatini tanqidiy tahlil qilish;

- Samarali targ'ibot va sotish tizimini yaratish;

- Brend va imijni yaratish hamda mustahkamlash.

Turizm marketingining o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini yaxshi tushunish va amalda qo'llash turizm tashkilotlariga iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirishga, raqobatbardoshlikni ta'minlashga hamda o'z maqsadlariga samarali erishish imkonini beradi. Turizm tashkilotlari uchun asosiy marketing strategiyalarining xulosa qilinishi:

Bozorni samarali segmentlash va maqsadli segmentlarga yo'naltirilgan yondashuv tashkilotning maqsadli mijozlarga samarali ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi. Tashkilotning o'ziga xos afzalliklarini belgilash va mijozlar xotirasida mustahkam pozitsiyani shakllantirish jarayonida brend yaratish va uni mustahkamlash strategiyasi katta ahamiyatga ega.

Yangi geografik bozorlarga kirish va yangi mahsulot hamda xizmatlarni taklif etish orqali diversifikatsiya qilish tashkilotning bozordagi mavqeini kengaytiradi. Shuningdek, vertikal va gorizontal integratsiya orqali tashkilotlar o'rtasida hamkorlik o'rnatish qiymatni oshirish va raqobatbardoshlikni yaxshilashga yordam beradi.

Innovatsion strategiya – yangi mahsulot va xizmatlarni taklif etish, mavjudlarini yaxshilash, raqamli texnologiyalardan foydalanish

orqali tashkilotning bozorda ajralib turishiga xizmat qiladi. Narx belgilash siyosatini maqsadli bozorlar, mavsumlarga moslash va chegirmalar taklif etish tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi

Turizm tashkilotlari ushbu asosiy strategiyalar yig'indisidan samarali foydalanish orqali bozordagi mavqeini mustahkamlashi va yanada rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzayev, M. A., & Aliyeva, M. T. (2011). Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati. 23-24 b.
2. Файзиева, С. Х. (2004). Основные направления развития туризма в Узбекистане. Экономический вестник Узбекистана, №3-4.
3. Бектурдиев, Ж. К. (2016). Молодой ученый.
4. Eshova, A. A., Norchaev, A. N., & Ruziev, S. S. (2007). O'zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo'llari. –T.: TDIU. 44-48-b.
5. Of the international scientific conference on "Improving the methodological and methodological bases of tourism infrastructure development". Samarqand. esearchgate.net/profile/Janibek-Saukhanov/publication/349366096
6. www.moluch.ru
7. www.lex.uz






Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan











Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
-------------	---

I-SHO‘BA

Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish tendensiyalari.....	8
Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich	10
O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri	
Zarikeyev Rasul Polatovich	14
Deputy Chairman of the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan for Tourism	
Ermashov Jengis Maratovich	18
Xo‘jayli tumani hokimi	
Teshaboev To‘lqin Zokirovich	22
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori	
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna.....	26
Professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	30
Towards sustainable tourism development in karakalpakstan: a holistic analysis of ecological, sociocultural, and economic dimensions	

II-SHO‘BA

Etnografik turizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari	38
Karimov Norboy G‘anievich	
QORQALPOG‘ISTONDA ETNOGRAFIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	40
Raquel Noboa	
CLIMATE CHANGE: THE MOST IMPORTANT AND PRESSING ISSUE IN THE MODERN WORLD AND SOLUTIONS	45
Dr. Hasan Ali Erdoğ an	
DEVELOPING THROUGH HERITAGE TOURISM.....	49
Leora Eisenberg	
ECOTOURISM AS A NATURAL SOURCE OF INSPIRATION FOR ART AND CREATIVITY	56
Shameka Fernander	60
SUSTAINABLE PATHWAYS: BALANCING NATURE AND BUSINESS	
Dr. Hrvoje Ivan Horvat	
TASTE AND TRADITION: EXPLORING POTENTIALS OF RURAL TOURISM IN KARAKALPAKSTAN	64

III-SHO‘BA

Qoraqalpog‘istonning ekologik turizm salohiyatini jahon turizm bozorida.....	70
Isakov Janabay Yakipbaevich	
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI	71
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich	
QORAQALPOG‘ISTONDA TUPROQQAL‘A ETNO-MUZEYINI TASHKIL QILISH VA XORIJ TAJRIBASI	85
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURISTIK XIZMATLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	92
Alieva Makhbuba Toychievna	
QORAQALPOQ TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	100
Очилова Хилола Фармоновна	

ПОВЫШЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ОСВЕДОМЛЕННОСТИ О ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕСТИНАЦИЯХ ХОЖЕЙЛИ	106
Xudoynazarova Sarvinoz Qarshi qizi QORAQALPOG‘ISTON GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRIS.....	110
Kusekeyev Bayram Kallibekovich QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TURIZM XIZMATLAR BOZORINING MARKETING MUHITI TAHLILI.....	117
Jo‘rayeva Nargiza Abdvohidovna, Baxromov Akmal Abdvohid o‘g‘li QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA CHO‘L TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	124
Islomova Dilrabo Salomovna QORAQALPOG‘ISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	129
Narzullaeva Gulchehra Salimovna, Teshayev Hotamjon Ixtoyor o‘g‘li O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI	138
Мусаева Сайёра Абдивахитовна СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ ПРОДВИЖЕНИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА НА МИРОВОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ	148
Раимова Севара ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ГОРОДА ХОДЖЕЙЛИ И ЕГО ТУРИСТИЧЕСКИЕ ОБЪЕКТЫ	154
Ozoda Ochilova QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH.....	157
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna XALQ HUNARMANDCHILIGI SAN‘ATIDAN FOYDALANGAN HOLDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH	160
Xalimova Fayyoza Nafasovna QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA HUDUDNING TURISTIK JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYASI.....	163
Mavlanov G‘olibjon Muxammad o‘g‘li TOG‘ TURIZM sohasIDAGI INVESTITSIYA JARAYONLARI: HUSUSIYATLARI, MEKANIZMLAR VA RIVOJLANISH OMILLARI.....	168
Musayev Malikjon Karomatovich DINIY QARASHLAR VA BIZNES KESISHMASIDA «HALOL» MEHONXONALARNING O‘RNI	171
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna TURIZM MARKETINGINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI.....	174





Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasi
Туристическая инфраструктура Каракалпакстана
Tourism infrastructure of Karakalpakstan

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda «Yashil» iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil» iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

